

373.3
7-13

O.M.JABBOROVA, Z.A.UMAROVA,
L.M.BABAXODJAYEVA

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI



373.3
7-13

O.M.JABBOROVA, Z.A.UMAROVA,
L.M.BABAXODJAYEVA

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI



373.3
y-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O.M.Jabborova, Z.A.Umarova ,
L.G.Babaxodjayeva

**BOSHLANG'ICH TA'LIM
PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA
INTEGRATSIYASI**

Darslik

5111700-“Boshlang'ich ta'lim”
bakalavr yo'nalishi talabalari uchun

- 12608 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«MALIK PRINT CO»
2021

UO‘K 373.3:00.895(07)

KBK 74.10ya73

J 13

Mazkur darslikda boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi masalalari tahlil qilingan bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarga mo‘ljallangan. Darslik ta‘limga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” fanining dasturiga binoan tayyorlangan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha iivojlantirish konsepsiyasi” talablari asosida tuzilgan.

Darslik ushbu fan bo‘yicha ilk tajriba bo‘lib, unga doir fikr – mulohazalaringiz va takliflaringizni kutib qolamiz.

Mas‘ul muharrir:

Shukurullo Qo‘ldoshevich Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Alijon Karimjonov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

Mukarram Axmedova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi-ning 2021-yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat etildi.

ISBN 978-9943-7906-7-4

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-Modul. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining umumiy xususiyatlari.....	7
1-mavzu: “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” tushunchasining mazmuni	7
2-mavzu: Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining metodologiyasi... 12	
3-mavzu: Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va uning tashxisi to‘g‘risidagi g‘oyalar.....	19
4-mavzu: Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi tarixi.....	26
5-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik jarayon	32
6-mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari	44
2-Modul. Boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi	56
7-mavzu: “Boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi” mazmuni	56
8-mavzu: Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasida o‘qitish jarayoni	63
9-mavzu: Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasida o‘qitish asoslari	68
10-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limni tashkil etish usullari.....	74
11-mavzu: Dars-boshlang‘ich ta‘limning asosiy shakli sifatida.....	80
12-mavzu: O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim natijalarini tekshirish va baholash	85
3-Modul. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya nazariyasi.....	90
13-mavzu: Tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyillari va metodlari	90
14-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayon sifatida	96
15-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda milliy tarbiya asoslari	102
16-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish.....	109
17-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayonining zamonaviy tendensiyalari	115
4-Modul. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya.....	121
18-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya mazmuni	121

UO'K 373.3:00.895(07)
KBK 74.10ya73
J 13

Mazkur darslikda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi masalalari tahlil qilingan bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarga mo'ljallangan. Darslik ta'limga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" fanining dasturiga binoan tayyorlangan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" talablari asosida tuzilgan.

Darslik ushbu fan bo'yicha ilk tajriba bo'lib, unga doir fikr – mulohazalaringiz va takliflaringizni kutib qolamiz.

Mas'ul muharrir:

Shukurullo Qo'ldoshevich Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Alijon Karimjonov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

Mukarram Axmedova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat etildi.

ISBN 978-9943-7906-7-4

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-Modul. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining umumiy xususiyatlari.....	7
1-mavzu: "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tushunchasining mazmuni	7
2-mavzu: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining metodologiyasi...	12
3-mavzu: Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va uning tashxisi to'g'risidagi g'oyalar.....	19
4-mavzu: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi.....	26
5-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayon	32
6-mavzu: Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablari	44
2-Modul. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi	56
7-mavzu: "Boshlang'ich ta'lim didaktikasi" mazmuni	56
8-mavzu: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish jarayoni	63
9-mavzu: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish asoslari	68
10-mavzu: Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullari.....	74
11-mavzu: Dars-boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida.....	80
12-mavzu: O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim natijalarini tekshirish va baholash	85
3-Modul. Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi	90
13-mavzu: Tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyillari va metodlari	90
14-mavzu: Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayon sifatida	96
15-mavzu: Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya asoslari	102
16-mavzu: Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish.....	109
17-mavzu: Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy tendensiyalari	115
4-Modul. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya.....	121
18-mavzu: Boshlang'ich ta'limda innovatsiya mazmuni	121

19-mavzu: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyati	127
20-mavzu: Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi	132
21-mavzu: Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish.....	140
22-mavzu: Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi	145
23-mavzu: Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalari	150
5-Modul. Boshlang'ich ta'limda integratsiya	155
24-mavzu: Boshlang'ich ta'limda integratsiya mohiyati.....	155
25-mavzu: Boshlang'ich ta'limda integratsion darslar.....	161
26-mavzu: Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli	165
27-mavzu: Boshlang'ich ta'limda "Maktab – laboratoriya" usuli.....	170
28-mavzu: Boshlang'ich sinflarda mahorat darslari usuli.....	175
29-mavzu: Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limni integratsiya asosida tashkil etish tajribalari.....	180
30-mavzu: Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash	185
Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.....	189
Glossariy	191
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	197

KIRISH

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida 7-11 yoshli shaxslarni barkamol voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020 yil 29 dekabr) quyidagi vazifalar alohida qo'yildi: *"Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va murabbiylar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim"*. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga o'qitilayotgan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fani quyidagi jihatlardan takomillashtirilishi lozim:

- fanning o'quv dasturini hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish;

- fan bo'yicha talabalar va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar hamda murabbiylar uchun xalqaro mezonlarga mos darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonini innovatsion pedagogik ishlanmalar bilan boyitish.

Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida biz tomonimizdan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanining o'quv dasturi 2020-2021 o'quv yilidan boshlab takomillashtirildi, uni o'qitish asoslari yangilandi hamda mazkur darslik tuzildi.

Darslikni tuzishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" Namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan Ishchi-o'quv dasturiga asoslanildi. Ushbu fan bo'lajak o'qituvchilar uchun mutaxassislik fanlari tarkibiga kiradi.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fanining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarga boshlang'ich ta'lim, tarbiya va amaliy faoliyat nazariyasi hamda metodikasidan saboq berishdan iborat. Uning vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmuni bo'yicha bilim berish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni o'rgatish;

- boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayonni tushuntirish;

- boshlang'ich ta'limda innovatsiya mazmunini anglatish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyati bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish;

- boshlang'ich ta'lim integratsiyasi mohiyati bo'yicha bilim berish;

- boshlang'ich ta'limda integratsion yondashuvlar yuzasidan malaka berish.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- boshlang'ich ta'lim pedagogikasi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish;

- boshlang'ich ta'limda innovatsiya bo'yicha ko'nikmani egallash;

- boshlang'ich ta'limda integratsiya masalasi bo'yicha malaka hosil qilish”

- individual o'qitish metodikasi bilan qurollanish.

Bu talablar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan ushbu fan vositasida o'zlashtiriladi.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fani oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitiladigan “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiyalar” kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Ayni paytda, bu fan o'zining tadqiqot obyekti, o'qitish metodikasi va konseptual asoslariga ega.

Mazkur darslik kirish, besh modulga bo'lingan o'ttiz mavzu tahlili, har bir mavzu bo'yicha mustahkamlash savollari va topshiriqlar, mustaqil ta'lim uchun ko'rsatmalar hamda tavsiya etiladigan adabiyotlardan iborat.

1-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

1-mavzu: “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” tushunchasining mazmuni

Reja:

1. “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” tushunchasi

2. “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanining maqsad va vazifalari

3. “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich, ta'lim, pedagogika, tushuncha, zamonaviylik, bilim, ko'nikma, yondashuv, malaka, bilim, idrok, tushunish.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” tushunchasi. O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

- boshlang'ich ta'limni ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish;

- boshlang'ich ta'lim samaradorligiga erishish.¹

Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitilayotgan “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” fanining mazmunini belgilaydi. Unga ko'ra, mazkur fanning *mazmuni* boshlang'ich ta'lim, tarbiya va uni o'qitish asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilim, ko'nikma hamda malaka berishdan iborat. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2020 yil 30 dekabr soni..

- *boshlang'ich ta'lim* tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi:

1) inson va jamiyat qadriyatlariga asosan 7-11 yoshli o'quvchilarga bilim berish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayoni;

3) boshlang'ich ta'limning samarasiga erishish;

4) boshlang'ich ta'limni yaxlit tizim sifatida qabul qilish.

- *boshlang'ich ta'limda tarbiya* tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga insoniyatning tarbiyaga oid tajribasini uzatish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini madaniyat va qadriyatlar olamiga olib kirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsini rivojlantirish;

4) boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini hayotning murakkab vaziyatlari va holatlariga tayyorlash.

- *boshlang'ich ta'limda o'qitish* tushunchasining mazmuni quyidagilardan iborat:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim, hayotiy tajriba, faoliyat ko'nikmasi berish va ularning tafakkurini shakllantirish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka hislarini shakllantirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira, diqqat va fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirish;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish.

Ushbu uch muhim kategorial tushuncha "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani mazmunini tashkil qiladi. Bu fan vositasida o'qituvchi 7-11 yoshli shaxslarga dastlabki ta'lim va tarbiyani beradi, ularni o'qish ko'nikmasini shakllantiradi.

Ayni paytda mazkur fanning mazmuniga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagilarga amal qilishi shart:

1) o'qishi, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq ma'lumotlarni va topshiriqlarni o'qituvchi yordamida sinfdoshlari bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda o'zlashtirishi;

2) kuzatish, qiyoslash va fikrlash ko'nikmalarini egallashi;

3) o'z fikri va qarashlarini ifodalay olishi kerak.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmunini tashkil qiladi.

Ushbu fanning yana zamonaviy ikki yo'nalishi bo'lib, ular innovatsiya va integratsiyadan iborat. *Innovatsiya* – boshlang'ich ta'lim pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda mazkur fanga doir yangiliklar, yangi g'oyalar, yangi yondashuvlar va yangi texnologiyalarni tatbiq etish nazarda tutiladi. *Integratsiya* – boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan bo'lib, unda ushbu fanga ilm-fan, pedagogika va ijtimoiy yutuqlarni joriy etish, fanning o'zaro aloqalarini tashkil qilish va hamkorliklarini yo'lga qo'yish amalga oshiriladi.

Zero, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya asoslari, undagi innovatsiya va integratsiya jarayonlarini o'rganadi, amaliyotga tatbiq etadi hamda bo'lajak o'qituvchilarni mazkur fan bo'yicha kasbiy tayyorlaydi.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining maqsad va vazifalari. Mazkur fanning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'limni davlat ta'lim standartlari va davlat talablari asosida talab darajasida tashkil etish asoslari bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani modul asosdagi quyidagi vazifalarni o'rganadi, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatadi va amaliyotga joriy etish vazifalarini bajaradi:

1-modul: boshlang'ich ta'lim pedagogikasining nazariy masalalari;

2-modul: boshlang'ich ta'lim didaktikasi;

3-modul: boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi;

4-modul: boshlang'ich ta'limda innovatsiya;

5-modul: boshlang'ich ta'limda integratsiya.

O'z navbatida bu modullar ichki mavzular, topshiriqlar, mustaqil ta'lim shakllari va laboratoriya ishlariga bo'linadi. Shu jihatdan ushbu fanning asoslari keng qamrovli bo'lib, u 5111700-"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy va majburiy fanlardan hisoblanadi.

2019-2020 o'quv yilidan boshlab oliy pedagogik ta'lim jarayoniga kiritilgan bu yangi fan o'tgan yillar davomida muayyan tajribalar va yutuqlarga ega bo'ldi. Uning maqsad va vazifalarini to'g'ri amalga oshirish natijasida fanning samaradorligiga erishilganligini ta'kidlab

o'tish joiz.

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiyalar”, “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” va “Ta‘limda normativ-huquqiy hujjatlar” fanlari bilan uzviy bog‘liq. shuningdek, ushbu fan “Psixologiya”, “Antr-pologiya” va “Fiziologiya” fanlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning metodologik va nazariy asoslaridan foydalanadi.


Umuman ushbu fan ta‘kidlangan fanlar bilan quyidagi jihatlar bo‘yicha uzviy bog‘liqlikda ekanligini ta‘kidlab o‘tish joiz:

- boshlang‘ich ta‘limning nazariy asoslari;
- boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi;
- boshlang‘ich ta‘limda tarbiyani amalga oshirish omillari;
- boshlang‘ich ta‘limga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish;
- boshlang‘ich ta‘limda integratsiya;
- boshlang‘ich ta‘limning psixologik xususiyatlari;
- boshlang‘ich ta‘limning samaradorlik indikatorlari.

Mazkur masalalar bo‘yicha fan o‘ziga turdosh fanlar bilan uzviy bog‘liqlik va aloqadorlik xususiyatlariga ega.

Ayni paytda, “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani o‘zining obykti, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari va usullariga ega. Shu jihatdan bu fan pedagogik fanlar tarkibida o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani tushunchasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u ushbu yangi fanning asoslari bo‘yicha tushunchalar beradi (1-chizma):



Mustaqil ta‘lim uchun savollar:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” tushunchasi deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi deganda nimani tushunasiz?
4. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanining tarkibiy qismini nimalar tashkil qiladi?

Topshiriqlar: pedagogik amaliyot

1. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” tushunchasining mazmuni ta‘rifini o‘zlashtiring.
2. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanining maqsad va vazifalarini konspekt qiling.
3. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani fanlari bilan bog‘liq (bog‘liq fanlar nomlarini yozing).

2-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASINING METODOLOGIYASI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi metodologiyasi asoslari
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining metodlari
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining zamonaviy tendensiyalari

Tayanich tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, pedagogika, metodologiya, metod, bilim, o'rganish, kasb, o'qituvchi, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi metodologiyasi asoslari. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fani o'ziga xos metodologik asoslarga tayanadi.

"Metodologiya" tushunchasi lotincha bo'lib, atama sifatida: 1) tadqiqot usullari majmuasini; 2) biror fanda qo'llaniladigan usullar majmuini; 3) ilmiy bilish va taraqqiyotga xizmat qiladigan ta'limotlarni anglash ma'nolarini anglatadi.¹ Shu jihatdan mazkur metodologiyaning asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar;
- boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti;
- boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb pedagogik tajribalari;
- boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar.

Ushbu metodologik asoslarini bo'lajak o'qituvchilar aniq o'zlashtirishi lozim.

- *boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar.* O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bilim olish va kasb-hunar egallashga oid belgilab qo'yilgan huquqlar;

b) O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr);

v) yagona "Milliy o'quv dasturi";

g) boshlang'ich ta'lim davlat standartlari va davlat talablari;

d) boshlang'ich ta'limga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda Farmoyishlari.

- *boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti;* O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti quyidagilarga asoslanadi:

a) boshlang'ich ta'limda bilim berish, tarbiyalash va o'qitish asoslari;

b) boshlang'ich ta'lim bo'yicha milliy tajriba;

v) boshlang'ich ta'lim bo'yicha ilg'or mamlakatlarning an'analari;

g) boshlang'ich ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari.

Bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limning mazkur nazariyasi va amaliyoti asoslarini o'zlashtirishlari taqozo etiladi.

- *boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb pedagogik tajribalari* mazkur masala bo'yicha Sharq va G'arb pedagogik tajribalari o'ziga xos tarzda mavjud. Unga ko'ra, Sharq va G'arb pedagogikasi tajribalari quyidagi uyg'unlikka ega:

a) 6-7 yoshli o'quvchilarga bepul boshlang'ich ta'lim berish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirish;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarini davr va jamiyat talablari asosida tarbiyalash;

g) boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi ta'lim olishga tayyorlash.

Ayni paytda, Sharq boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar mavjud:

- Ustoz-shogird an'anasiga tayanish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoaviy (o'qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida) tarbiyalash;

- boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini O'zbekiston sharoitida Prezident va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qish uchun tayyorlash;

- boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini oila va milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish.

¹ Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Hasanboev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya" 2009. 313-bet

G'arb boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar mavjud:

- bolaga individual yondashish;
- bolaning ijodiy layoqatlarini shakllantirish;
- bolani mustaqil fikrlash va faoliyatga o'rgatish;
- bolaning kasb-hunar negizlari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb tajribalarini uyg'un o'zlashtirish kerak.

- *boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar*. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limga oid ilmiy-tadqiqotlar XX asrdan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori va Abdulla Avloniyning ilmiy ishlanmalari, shuningdek, yuzlab o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari mavjud. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda izchil ravishda quyidagi muammolar o'rganilib kelinmoqda:

a) boshlang'ich ta'limning asoslari, funksional vazifalari, metodlari va texnologiyalari;

b) boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar va ularning individual metodlari, texnologiyalarini ommalashtirish;

v) boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiiq etish;

g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini monitoring qilib borish asoslari.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlarning ana shu yo'nalishlarini o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining metodlari. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"ning o'ziga xos metodlari bo'lib, ular umumpedagogik metodlar asosida quyidagi guruhlar bo'linadi:

1. O'qitish metodlari:

- o'qitish;
- o'rgatish;
- tushuntirish;
- ko'niktirish;
- bilim berish;

- savodxon qilish.

2. Tarbiya metodlari:

- shakllantirish;
- ko'niktirish;
- moslashtirish;
- yo'naltirish;
- odatlantirish.

3. Innovatsion metodlar:

- yangiliklarni o'rganib borish;
- yangiliklarni boshlang'ich ta'lim- tarbiya jarayoniga joriy etish;
- ta'lim va tarbiya jarayoniga yangicha yondashish;
- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoni bo'yicha yangiliklar yaratish.

4. Integratsion metodlar:

- boshlang'ich ta'limda uzviy bog'liqlik;
- boshlang'ich ta'limda hamkorlik;
- boshlang'ich ta'limda teng manfaatdorlik;
- boshlang'ich ta'limda samaradorlik.

5. Ilmiy-tadqiqot metodlari:

- tadqiq etish;
- tahlil qilish;
- kuzatish;
- monitoring;
- nazorat;
- qiyoslash va tipologiya.

6. Baholash metodlari:

- o'zlashtirishni baholash;
- tarbiyalanganlikni baholash;
- savodxonlik darajasini baholash;
- ta'limiy – tarbiyaviy muhitni baholash;
- rag'batlantirish.

Mazkur metodlar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining negizini tashkil qiladi va bu fan ana shu metodlar asosida o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu metodlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmasini o'rganishi taqozga etiladi. Shu sababli bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur metodlarni o'z amaliy faoliyatida (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari amaliyoti jarayonida) qo'llash bilan o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining zamonaviy tendensiyalari. "Tendensiya" tushunchasi lotincha bo'lib, an'ana, takomil va namuna ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining o'ziga xos va muhim tendensiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- 2) boshlang'ich ta'limning madaniy kontekstini kuchaytirish;
- 3) boshlang'ich ta'limga oid xalqlarning ilg'or tajribalarini tadbiiq etish.


Boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy *texnologiyalarni* joriy etishda kompyuter, Internet tarmog'i imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasiga asosiy e'tibor berilmoqda. Bunda texnologik ta'lim asoslari kuchayib bormoqda va ayni paytda, texnologik ta'lim rivojlanish hamda shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining insoniy, jismoniy hamda estetik tuyg'ularini texnokratik tarzda shakllantirmasligi kerak.

Boshlang'ich ta'limning *madaniy kontekstini* kuchaytirish jarayonida 7-11 yoshli o'quvchilarga xalqning milliy va oilaviy qadriyatlarini asosida bilim berish, ularning axloqiy va faoliyat ko'nikmasini umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda xalq an'analari, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik kabilar milliy qadriyatlar, bag'rikenglik, demokratlik, birodarlik singarilar umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limning madaniy kontekstini kuchaytirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslanish taqozo etiladi.

Butun dunyoda boshlang'ich ta'limga xalqlarning *ilg'or tajribalarini* tadbiiq etish tendensiyasi davom etmoqda. Unga ko'ra, muayyan xalqlarning boshlang'ich ta'limda erishgan yutuqlari o'zga xalqlar tomonidan qabul qilinmoqda. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining boshlang'ich ta'limdagi xalqparvarlik konteksti, Finlandiya qirolligining boshlang'ich ta'limidagi xususiy ta'lim konteksti va O'zbekiston boshlang'ich ta'limidagi dunyoviylik konteksti

xalqaro tajribalar sifatida e'tirof etiladi.

Zero, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi mazmuni quyidagicha idrok etiladi (2-chizma):



1-22608

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasining mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Metodologiya deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi metodologiyasi asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining asosiy metodlari nimalardan iborat?

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining zamonaviy tendensiyalarini nimalar tashkil qiladi?

Topshiriqlar: pedagogik amaliyot

Quyidagi savollarga javob yozing:

1. Siz o'zgalar uchun fidoyilik ko'rsata olasizmi?
2. O'zingizning his-tuyg'ularingizni ustun qo'yasizmi?
3. Vaqtning qadriga yetasizmi?
4. O'zgalarga bog'lanib qolasizmi?
5. Pedagoglik qanday kasb?
6. Siz o'zingizni haqiqatgo'y hisoblaysizmi?
7. O'rtog'ingizga yordam berasizmi?
8. Birga ta'lim oluvchilarni raqobatchilaringiz deb hisoblaysizmi?
9. Go'zallikni tez anglaysizmi?
10. San'atni xush ko'rasizmi?

3-MAVZU: SHAXS RIVOJLANISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI VA UNING TASHXISI TO'G'RISIDAGI G'OYALAR

Reja:

1. Shaxs rivojining umumiy qonuniyatlari
2. Shaxs rivojida ta'sir etuvchi omillar
3. Boshlang'ich ta'lim shaxs rivojlanganligini tashxislash asoslari

Tayanch tushunchalar: shaxs, rivojlanish, qonuniyat, ta'lim, tarbiya, mazmun, vosita, omil, muhit, yondashuv, bilim, ko'nikma, malaka.

Shaxs rivojining umumiy qonuniyatlari. O'zbekiston ta'lim tizimida shaxsni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi va u boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Shu jihatdan *shaxs rivojida umumiy qonuniyatlar* deganda individni ta'lim va tarbiya vositasida ijtimoiy shaxsga aylantirish asoslari tushuniladi.

Boshlang'ich ta'lim davridayoq o'quvchilar shaxsi umumiy qonuniyatlar asosida rivojlantirila boshlaydi. Bu boradagi asosiy qonuniyatlar tizimini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) aqlni rivojlantirish;
- 2) estetik his-tuyg'ularni rivojlantirish;
- 3) jismoniy rivojlantirish;
- 4) turli stresslarga bardoshlikni rivojlantirish;
- 5) o'z-o'ziga ishonchni rivojlantirish;
- 6) mustaqillik ko'nikmasini rivojlantirish;
- 7) shaxsiy faollikni rivojlantirish;
- 8) o'zgalarga va atrof-muhitga munosabatni rivojlantirish.

Mazkur qonuniyatlar asosida ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar shaxsi izchil rivojlantirib boriladi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsini rivojlantirishning qayd etilgan qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishlari lozim. Unga ko'ra, quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- shaxs aqlini rivojlantirishda bilim va insoniy tajribalarga tayaniladi;

- shaxs his-tuyg'usini shakllantirishda uning ruhiy kechinmalari va tasavvurlari tartibga solinadi;

- shaxsni jismoniy rivojlantirishda "Antropologiya" fani yutuqlariga tayanilib, insonning organizmi o'stiriladi;

- shaxsda turli stresslarga bardoshlik ko'nikmasini rivojlantirishda uning guruhlarda ko'proq bo'lishiga va aqliy jihatdan o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasini shakllantirishga asoslaniladi;

- shaxsda o'z-o'ziga nisbatan ishonchni rivojlantirishda uning fikrlari va dunyoqarashi o'stiriladi;

- shaxsda o'zgalarga va atrof-muhitga oqilona munosabatni rivojlantirishda "Etika" fani qonuniyatlariga asosan pedagogik tartibga solish, fikrlash va faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga tayaniladi.

Shaxs rivojlanishida shu tariqa Pedagogika, Fiziologiya, Psixologiya, Sotsiologiya va Etika fanlarining umumiy asoslariga tayanigan qonuniyatlar muhim o'rin tutadi. Bunda asosiy e'tibor individni *ijtimoiylashtirishga* qaratiladi. Buning ma'nosi shuki, har bir individ umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanishi natijasida o'zi yashayotgan jamiyatning hayotiy talablari va ehtiyojlariga moslashadi. Shu jihatdan bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy qonuniyatlar asosida rivojlantirish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1) 7-11 yoshli o'quvchilarni pedagogik va gumanitar fanlarning qonuniyatlariga asosan ijtimoiylashtirish;

2) mazkur yoshdagi o'quvchilar shaxsini jismoniy va ruhiy rivojlantirish;

3) ushbu yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan keyingi ta'lim bosqichlariga va hayotga tayyorlash.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy qonuniyatlar asosida ijtimoiylashtirish hisoblanadi. Shu jihatdan ijtimoiylashtirishning ahamiyati o'quvchilar shaxsini umumiy qonuniyatlar asosida rivojlantirish bilan belgilanadi.

Ayni paytda, shaxsni umumiy rivojlantirish qonuniyatlariga asosan ijtimoiylashtirishning *navbatdagi* bosqichi ham mavjud. Unga ko'ra, ijtimoiylashgan o'quvchi shaxsi individual sifatlarga ham ega bo'li-

shi kerak. Buning ma'nosi shuki, o'quvchi shaxsi ijtimoiylashganda jamiyatning umumiy talablariga moslashadi va ijtimoiylikdan individuallikka o'tganda esa o'quvchi shaxsida mustaqil sifatlar paydo bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy rivojlantirish qonuniyatlariga asosan o'stirish *ikki paradigmaga* ega bo'ladi:

1) o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish;

2) ijtimoiylashgan o'quvchi shaxsida individual sifatlarni tarkib toptirish.

Bunday yondashuv asosida shaxs va bu o'rinda o'quvchi shaxsi umumiy qonuniyatlar asosida rivojlantiriladi.

Shaxs rivojida ta'sir etuvchi omillar. Umumiy qonuniyatlar asosida rivojlangan shaxsga ta'sir etuvchi *omillar* muhim o'rin tutadi. Buning uchun shaxsning ijtimoiylaShuvida ta'sir etuvchi muhim omillarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Pedagogik olimlarning fikricha, bunday omillarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- muhit;

- irsiyat;

- ta'lim-tarbiya;

- shaxsiy faoliyat.¹

Bunda *muhit* deganda o'quvchi shaxsi voyaga yetayotgan ijtimoiy makon tushuniladi. O'zbekiston sharoitida bu makonni oila, mahalla va ta'lim dargohi tashkil etadi. Shu sababli keyingi yillarda mazkur makonda muhitning ta'lim -tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lishi uchun quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

a) oilani sog'lomlashtirish va unda ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish (ota-onalar universitetini yo'lga qo'yish, oilada kitobxonlikni kuchaytirish, oilani o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash va h.k.);

b) mahallaning shaxs rivojidagi ta'sirini oshirish (oila tarbiyasiga mahallaning yordamini kuchaytirish, mahallada yoshlarga munosib ma'rifiy-madaniy sharoitlar yaratib berish, oilalarni zamonaviy mobil, kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash va h.k.);

v) ta'lim dargohlarini (bog'chalar, maktablar, akademik litseylar, kollejlilar, texnikumlar, institutlar, universitetlarni) demokratlashtirish

¹ Qarang. Стефановская Т.А. Педагогика: Наука и искусство. -М.: "Педагогика". 1998.

va shaffoflashtirish (ta'lim dargohlarida inson huquqlarini ustuvor qo'yish, bola huquqlariga rioya qilish, yoshlarning iste'dodlarini ro'yobga chiqarish va h.k.).

O'zbekiston sharoitida shaxsni rivojlantirishga ta'sir etuvchi bunday muhit mexanizmlari uzluksizlik va hamkorlik xarakterga egaligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda o'quvchilar shaxsini bosqichma-bosqich va yosh xususiyatlariga asosan muhit ta'sirida rivojlantirish kutilgan amaliy samaralarni bermoqda.

Irsiyat – shaxs rivojidadagi muhim omillardan biridir. XX asrning II yarmiga qadar O'zbekiston pedagogika fanida sobiq Sho'ro pedagogikasining ta'siri natijasida shaxs rivojida irsiyat masalasi inkor etilgan. Aslida irsiyat tushunchasi yunoncha "genotip" bo'lib ma'nosi kelib chiqish, shakl va namuna demakdir. Pedagogik atama sifatida irsiyat bolaga ota-onadan o'tgan genetik xususiyatlar majmuini anglatadi.¹ Unga ko'ra, bolaning jismoniy tuzilishi, his-tuyg'ulari va aqliy imkoniyatlari ota-onadan o'tgan deb hisoblanadi. Ayni paytda, shaxs rivojida irsiyatning ahamiyati deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- a) har bir bola shaxsining fiziologik jihatdan o'ziga xosligi;
- b) har bir bola shaxsining turlicha aqliy va hissiy imkoniyatlarga egaligi;
- v) ba'zi bir bolalar shaxsida tug'ma iste'dodning ustuvorligi.

Shu tariqa o'quvchi shaxsi rivojida irsiyat omili fiziologik va sotsiologik vazifalarini bajaradi. Bunda pedagogik jihatdan bola shaxsini rivojlantirishda uning fiziologik, psixologik va spetsifik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Shaxs rivojida *ta'lim-tarbiya* omili asosiy vazifani bajaradi. Shu sababli mazkur omilning quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak:

- a) o'quvchi shaxsini aqliy, estetik va psixologik jihatdan rivojlantirish;
- b) o'quvchi shaxsini ijtimoiy tarbiyalash;
- v) o'quvchi shaxsini hayotga tayyorlash.

Mazkur asoslarga ko'ra, shaxs rivojida ta'lim-tarbiya omili asosiy

vazifani bajaradi. Bu omil mazkur "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" fanini o'qitish jarayonida har tomonlama ko'rib chiqilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Shaxs rivojida muhim ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu *shaxs faoliyatidir*. Bu omilga ko'ra, shaxs o'z faoliyatida jismoniy va aqliy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shu sababli shaxs rivojida mazkur omilning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) o'quvchi shaxsining o'z iste'dodi, iqtidori va qobiliyatining namoyon bo'lishi;
- b) o'quvchi shaxsining izchil va bosqichma-bosqich takomillashib borishi;
- v) o'quvchining shaxsiy faoliyati samaradorligi.

Bu ko'rsatkichlar o'quvchi shaxsining faoliyatida namoyon bo'ladi va uning rivojida muhim ta'sir kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Zero, shaxs rivojida muhit, irsiyat, ta'lim-tarbiya va shaxsiy faoliyat omillari muhim ahamiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli shaxs rivojida mazkur omillar ta'siri pedagogik jihatdan izchil kuzatib hamda tahlil qilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda shaxs rivojlanganligini tashxislash asoslari. Umumiy qonuniyatlar va ijtimoiy omillar asosida rivojlantirilgan shaxs har bir jamiyatning ehtiyoji hisoblanadi. Shu jihatdan o'quvchilar shaxsini rivojlanganlik darajasini *tashxislash* muhim ahamiyatga ega.

Tashxislash – bu o'quvchi shaxsining aqliy, jismoniy va ruhiy yetuklashganini aniqlashdir. Shu jihatdan shaxs rivojlanganligini tashxislashda quyidagilarga asoslaniladi:

1. *O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.* Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- o'quvchining necha yoshdaligi;
- o'quvchi bo'yining yoshiga mosligi;
- o'quvchi vaznining yoshiga mosligi;
- o'quvchi jismoniy rivojlanishining yoshiga mosligi.

2. *O'quvchilarning aqliy rivojini hisobga olish.* Bunda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- o'quvchining bilim darajasi;
- o'quvchining tushunish darajasi;
- o'quvchining fikrlash darajasi;

¹ Психология. Словарь. Составитель Л.А.Карпенко. –М.: "Полииздатель".1990-с 77-78.

- o'quvchining qiziqish darajasi.

3. O'quvchilarning ijtimoiy faolligini hisobga olish. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- o'quvchining axloqiy fazilatga egaligi;
- o'quvchining o'zgalarga munosabati rivojlanganligi;
- o'quvchining tashabbuskorligi;
- o'quvchining faolligi.


4. O'quvchilarning o'zini shaxs sifatida namoyon qilishini hisobga olish. Bunda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- o'quvchining ijtimoiylashganligi;
- o'quvchining individual xususiyatlarga egaligi;
- o'quvchining o'z imkoniyatlarini namoyon qila olishi;
- o'quvchining o'zgalarda taassurot qoldirish darajasi.

Mazkur mezonlar asosida o'quvchi shaxsining rivojlanganligi tashxislanadi. Ayni paytda, pedagogik olimlar ko'p hollarda shaxsning rivojlanganligini tashxislashda quyidagi umumiy talablarga asoslanadi:

- 1) shaxsning mas'uliyatligi;
- 2) shaxsning sabr-toqatligi;
- 3) shaxsning o'zini rivojlantirib borishi;
- 4) shaxsning ijobiy fikrlashi.¹

Mazkur pedagogik talablarga ko'ra shaxsning umumiy rivojlanganlik darajasi tashxis qilinadi (3-chizma) :



Shunday qilib shaxs rivojida umumiy qonuniyatlar va omillar muhim o'rin tutadi, mazkur asoslarga ko'ra shaxs rivojlantiriladi hamda uning rivojlanganlik darajasi tashxislanadi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Shaxs rivojining umumiy qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxs rivojida ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda shaxs rivojlanganligini tashxislash qanday bo'ladi?
4. O'quvchilar shaxsini tashxislash asoslari deganda nimani tushunasiz?

Topshiriqlar: pedagogik amaliyot

Quyidagi matnni o'qib berilgan savollarga javob bering va topshiriqni bajaring:

Sinfga yangi o'quvchi qiz keldi. Uning ehtiyotkorligi va sirilligi o'quvchi o'g'il bolalarni o'ziga tortdi. Tanaffus vaqtida qizcha tashqariga chiqqanida, o'quvchilar uning sumkani yashirib qo'yishdi va sabrsizlik bilan nima bo'lishini kuta boshladi. Barchasi o'zgacha bo'ldi: kelgan o'quvchi qiz jahllanmadi va ohista sumkasini kim olganini so'radi.

1. Bunday holat uchun o'quvchilarni yomonlash mumkinmi?
2. Bunday holatda har bir o'quvchi o'zini qanday tutgan bo'lar edi?
3. Ushbu holatni baholang.

¹ Бордовская Н., Реан А. Педагогика. —СПб.: Питер. 2001.- с 176.

- o'quvchining qiziqish darajasi.

3. *O'quvchilarning ijtimoiy faolligini hisobga olish.* Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- o'quvchining axloqiy fazilatga egaligi;
- o'quvchining o'zgalarga munosabati rivojlanganligi;
- o'quvchining tashabbuskorligi;
- o'quvchining faolligi.


4. *O'quvchilarning o'zini shaxs sifatida namoyon qilishini hisobga olish.* Bunda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

- o'quvchining ijtimoiylashganligi;
- o'quvchining individual xususiyatlarga egaligi;
- o'quvchining o'z imkoniyatlarini namoyon qila olishi;
- o'quvchining o'zgalarda taassurot qoldirish darajasi.

Mazkur mezonlar asosida o'quvchi shaxsining rivojlanganligi tashxislanadi. Ayni paytda, pedagogik olimlar ko'p hollarda shaxsning rivojlanganligini tashxislashda quyidagi *umumiy talablarga* asoslanadi:

- 1) shaxsning mas'uliyatligi;
- 2) shaxsning sabr-toqatligi;
- 3) shaxsning o'zini rivojlantirib borishi;
- 4) shaxsning ijobiy fikrlashi.¹

Mazkur pedagogik talablarga ko'ra shaxsning umumiy rivojlanganlik darajasi tashxis qilinadi (3-chizma):



¹ Бордовская Н., Реан А. Педагогика. –СПб.:Питер. 2001.- с 176.

Shunday qilib shaxs rivojida umumiy qonuniyatlar va omillar muhim o'rin tutadi, mazkur asoslarga ko'ra shaxs rivojlantiriladi hamda uning rivojlanganlik darajasi tashxislanadi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Shaxs rivojining umumiy qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxs rivojida ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda shaxs rivojlanganligini tashxislash qanday bo'ladi?
4. O'quvchilar shaxsini tashxislash asoslari deganda nimani tushunasiz?

Topshiriqlar: pedagogik amaliyot

Quyidagi matnni o'qib berilgan savollarga javob bering va topshiriqni bajaring:

Sinfga yangi o'quvchi qiz keldi. Uning ehtiyotkorligi va sirliligi o'quvchi o'g'il bolalarni o'ziga tortdi. Tanaffus vaqtida qizcha tashqariga chiqqanida, o'quvchilar uning sumkani yashirib qo'yishdi va sabrsizlik bilan nima bo'lishini kuta boshladi. Barchasi o'zgacha bo'ldi: kelgan o'quvchi qiz jahllanmadi va ohista sumkasini kim olganini so'radi.

1. Bunday holat uchun o'quvchilarni yomonlash mumkinmi?
2. Bunday holatda har bir o'quvchi o'zini qanday tutgan bo'lar edi?
3. Ushbu holatni baholang.

4-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI TARIXI

Reja:

1. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
2. Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixini o'rganishning ahamiyati

Tayanch tushunchalar: pedagogika, boshlang'ich, ta'lim, tarix, yondashuv, bosqichlar, ishlanmalar, fikrlar, bilim, ko'nikma, malaka.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi. O'zbekiston pedagogikasi taraqqiyotida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" asrlar davomida rivojlanib kelgan. Mazkur predmetning tarixiy taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- 1) eng qadimgi davr (VII asrgacha);
- 2) o'rta asrlar davri (IX-XIX asrlar);
- 3) yangi davr (XX-XXI asrlar).

Eng qadimgi davr Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi manbalarini xalq og'zaki ijodi, "Avesto" asari va arxeologik topilmalar tashkil qiladi. Bu davrda boshlang'ich ta'lim oilada va ibodatxonalar huzuridagi bilimxonalarda berilgan. Unda yozish, o'qish va biror hunarga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining *o'rta asrlar davridagi* manbalari juda ko'p bo'lib, ular Ustoz mutafakkirlar tomonidan yaratilgan. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-adab", Hakim Termiziyning "Ma'rifat", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Xojanazar Huvaydoning "Rohati dil", Shermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" asarlarida boshlang'ich ta'limni tashkil etish va o'qitish metodologiyasi tahlil qilib berilgan. Bu davrda o'g'il bolalar masjidlar qoshidagi maktablarda boshlang'ich ta'lim olgan, qiz bolalar esa Otinoyi o'qituvchilar tashkil etgan maktablarda o'qishgan. Mazkur davrda boshlang'ich ta'limdan boshlab islom dini asoslari o'qitilgan va fikrlash, nutqni o'stirish uchun shoirlarning

she'rlari yodlatilgan. Misol uchun, Alisher Navoiy 6 yoshida Farididdin Attorning (XIII asr) "Mantiq ut-tayr" (Qush tili) asarini yodlab olganligini yozgan.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining *yangi davrida* boshlang'ich ta'limni ilmiy – pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Natijada O'zbekiston boshlang'ich ta'limida dunyoviylik tamoyili usituvor bo'lib, bu tizim xalqaro standartlarga moslashdi. Mazkur davrning manbalarini boshlang'ich ta'lim muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar va darsliklar tashkil etadi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib O'zbekistonda barcha maktab yoshidagilar boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olindi.

O'zbekiston "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixi quyidagi tajribalarga ega:

- o'qitishning eng oson va maqbul metodlarigi egalik;
- har bir bolaning savodxon bo'lishiga erishish;
- har bir bolani bilim olishga qiziqtirish;
- ta'lim texnologiyalarining eng zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etish;
- professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash.

1998 yili YUNESKO tomonidan hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limi eng ilg'or va samarali ta'lim turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tajribalar bugungi kunda dunyo miqyosida targ'ibot qilinishi kerak.

Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi. Hozirgi zamon jahon xalqlarining boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi muayyan uyg'unliklarga ega. G'arb va Sharq xalqlari boshlang'ich ta'limida quyidagi *umumiyliklar* mavjud:

- har bir bolani savodxon qilish;
- har bir bolani keyingi ta'limga tayyorlash;
- boshlang'ich ta'limni ilmiy asosda tashkil qilish;
- boshlang'ich ta'lim beruvchi maxsus mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlash.

Ayni paytda, jahon xalqlari boshlang'ich ta'limida quyidagi *farqlar* uchraydi:

- o'quv fanlarini jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib belgilash;
- Sharq mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni 8 yoshgacha amalga oshirish;

- G'arb mamlakatlari boshlang'ich ta'limida o'qituvchilarning individual yondashuvi ustuvorligi;

- boshlang'ich ta'lim muammolarini standartlashtirilgan tarzda hal etish.

Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida quyidagilar muhim o'rin tutgan:

- a) ibodatxonalar huzurida boshlang'ich maktablar tashkil etish;
- b) xususiy boshlang'ich maktablarni rivojlantirish;
- v) boshlang'ich ta'limni homiylik asosida amalga oshirish;
- g) imkon qadar har bir bolani boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish.

Misol uchun, qadimgi Rossiyada boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchi Qirollik maktablari, Amakilik maktablari va Usta savodxonlik maktablari bo'lgan. Buning natijasida Rossiyada barcha maktab yoshidagi bolalar boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingan.

Yevropa mamlakatlari ichida Germaniya boshlang'ich ta'lim pedagogikasi juda boy tajribalarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatning boshlang'ich ta'limidan boshlab bolalar ongiga kiborlik tuyg'usi singdiriladi.

Fransiya boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'quvchilarni janoblik va xonimlik qadriyatlarini asosida voyaga yetkazishga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida Frantsuz xalqi Yevropa mamlakatlarining eng madaniyatli aholisi deb e'tirof etilgan.

Jahon xalqlari boshlang'ich ta'limi tajribalari bugungi kunda barcha xalqlar tomonidan e'tirof etiladi. Chunki bunga quyidagilar sabab:

- boshlang'ich ta'limga juda ko'p miqdorda moliyaviy mablag' ajratish;
- boshlang'ich ta'limga eng zamonaviy texnologiya yutuqlarini tatbiq etish;
- boshlang'ich ta'limning davlat nazoratiga olinganligi;
- boshlang'ich ta'limning dunyoviy xarakterda ekanligi.

Ayni paytda, qashshoqlik tufayli Afrika qit'asidagi bolalar boshlang'ich ta'lim olishdan mahrum. Bu masala 2000 yildan boshlab YUNESKO nazoratiga olindi. Unga ko'ra, dunyoning har bir mamlakati Afrika qit'asidagi bolalarning boshlang'ich ta'lim olishi uchun YUNESKoga mablag' ajratadi. Buning natijasida keyingi 20

yil ichida Afrika mamlakatlarida bolalarni boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish 20 foizga o'sdi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixini o'rganishning ahamiyati. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixini o'rganish bir necha jihatlardan muhim ahamiyatga ega. Bu jihatlarining asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Boshlang'ich ta'limga oid tarixiy tajribalarni o'rganish:*

- boshlang'ich ta'limni tashkil etish;
- boshlang'ich ta'limga o'quvchilar tanlash;
- boshlang'ich ta'limning o'quv fanlarini shakllantirish;
- boshlang'ich ta'limni tashkil etish muhiti va omillari.

2. *Boshlang'ich ta'limning nazariy tajribalarini o'zlashtirish:*

- boshlang'ich ta'lim asoslari;
- boshlang'ich ta'lim metodologiyasi;
- boshlang'ich ta'lim metodlari;
- boshlang'ich ta'lim texnologiyalari.

3. *Boshlang'ich ta'limning didaktik asoslarini o'rganish:*

- boshlang'ich ta'limda o'qitish shakllari;
- boshlang'ich ta'limda o'qitish metodlari;
- boshlang'ich ta'limda o'qitish tajribalari;
- boshlang'ich ta'limda mashg'ulotlar shakllari.

4. *Boshlang'ich ta'limda tarbiya tajribalarini o'zlashtirish:*

- o'quvchilarni axloqiy shakllantirish;
- o'quvchilarni ijtimoiy yo'naltirish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish;
- o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini monitoring qilib borish.

E'tibor berilsa, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixini o'rganishning ahamiyati nazariy-metodik jihatdan muhim hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fan tarixini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni o'rganish va o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega (4-chizma) :

- G'arb mamlakatlari boshlang'ich ta'limida o'qituvchilarning individual yondashuvi ustuvorligi;

- boshlang'ich ta'lim muammolarini standartlashtirilgan tarzda hal etish.

Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida quyidagilar muhim o'rin tutgan:

- a) ibodatxonalar huzurida boshlang'ich maktablar tashkil etish;
- b) xususiy boshlang'ich maktablarni rivojlantirish;
- v) boshlang'ich ta'limni homiylik asosida amalga oshirish;
- g) imkon qadar har bir bolani boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish.

Misol uchun, qadimgi Rossiyada boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchi Qirollik maktablari, Amakilik maktablari va Usta savodxonlik maktablari bo'lgan. Buning natijasida Rossiyada barcha maktab yoshidagi bolalar boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingan.

Yevropa mamlakatlari ichida Germaniya boshlang'ich ta'lim pedagogikasi juda boy tajribalarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatning boshlang'ich ta'limidan boshlab bolalar ongiga kiborlik tuyg'usi singdiriladi.

Fransiya boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'quvchilarni janoblik va xonimlik qadriyatlarini asosida voyaga yetkazishga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida Frantsuz xalqi Yevropa mamlakatlarining eng madaniyatli aholisi deb e'tirof etilgan.

Jahon xalqlari boshlang'ich ta'limi tajribalari bugungi kunda barcha xalqlar tomonidan e'tirof etiladi. Chunki bunga quyidagilar sabab:

- boshlang'ich ta'limga juda ko'p miqdorda moliyaviy mablag' ajratish;
- boshlang'ich ta'limga eng zamonaviy texnologiya yutuqlarini tatbiq etish;
- boshlang'ich ta'limning davlat nazoratiga olinganligi;
- boshlang'ich ta'limning dunyoviy xarakterda ekanligi.

Ayni paytda, qashshoqlik tufayli Afrika qit'asidagi bolalar boshlang'ich ta'lim olishdan mahrum. Bu masala 2000 yildan boshlab YUNESKO nazoratiga olindi. Unga ko'ra, dunyoning har bir mamlakati Afrika qit'asidagi bolalarning boshlang'ich ta'lim olishi uchun YUNESKOga mablag' ajratadi. Buning natijasida keyingi 20

yil ichida Afrika mamlakatlarida bolalarni boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish 20 foizga o'sdi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixini o'rganishning ahamiyati. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixini o'rganish bir necha jihatlardan muhim ahamiyatga ega. Bu jihatlarining asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Boshlang'ich ta'limga oid tarixiy tajribalarni o'rganish:*

- boshlang'ich ta'limni tashkil etish;
- boshlang'ich ta'limga o'quvchilar tanlash;
- boshlang'ich ta'limning o'quv fanlarini shakllantirish;
- boshlang'ich ta'limni tashkil etish muhiti va omillari.

2. *Boshlang'ich ta'limning nazariy tajribalarini o'zlashtirish:*

- boshlang'ich ta'lim asoslari;
- boshlang'ich ta'lim metodologiyasi;
- boshlang'ich ta'lim metodlari;
- boshlang'ich ta'lim texnologiyalari.

3. *Boshlang'ich ta'limning didaktik asoslarini o'rganish:*


- boshlang'ich ta'limda o'qitish shakllari;
- boshlang'ich ta'limda o'qitish metodlari;
- boshlang'ich ta'limda o'qitish tajribalari;
- boshlang'ich ta'limda mashg'ulotlar shakllari.

4. *Boshlang'ich ta'limda tarbiya tajribalarini o'zlashtirish:*

- o'quvchilarni axloqiy shakllantirish;
- o'quvchilarni ijtimoiy yo'naltirish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish;
- o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini monitoring qilib borish.

E'tibor berilsa, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tarixini o'rganishning ahamiyati nazariy-metodik jihatdan muhim hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fan tarixini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni o'rganish va o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega (4-chizma) :



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi qanday xususiyatlarga ega?
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixini o'rganishning ahamiyati nimalardan iborat?
4. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixiga oid qanday muhim ma'lumotlarni bilasiz?.

Topshiriqlar: pedagogik amaliyot

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida eng qadimgi faylasuf Demokritning (e.a. 480-307 y) qarashlari barcha mamlakatlarda qabul qilingan. Uning fikricha, har bir bola tabiiy layoqat bilan tug'ildi. Boshlang'ich ta'limning vazifasi bolalarning tug'ma layoqatini o'stirish uchun aqliy tarbiyalashdan iborat. Bunda bolaning aqli rivojlantiriladi, aqliy mashqlar amalga oshiriladi va tafakkuri shakllantiriladi.

Demokritning fikricha boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi uch yaxshilik taqdim etilishi kerak: 1) yaxshi fikrlash; 2) yaxshi so'zlashish; 3) yaxshi faoliyatda bo'lish.

Demokrit deydi: "Birorta yaxshi do'sti bo'lmagan odam munosib yashay olmaydi".

Topshiriq: Demokritning boshlang'ich ta'limga oid mazkur qarashlarini konspekt daftaringizga yozib oling.

5-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK JARAYON

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilish va tarbiya jarayoni
2. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari
3. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tajriba, tarbiya, pedagogika, konfliktologiya, bilim, ko'nikma, malaka, dastur.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilish va tarbiya jarayoni. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasida quyidagilar belgilangan:

- umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi;

- boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur huquqiy asos boshlang'ich ta'limni tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerakligini belgilaydi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor bering:

1. *Savodxonlik.* Boshlang'ich ta'limni tashkil etishdagi bu vazifaning ma'nosi shuki, 7-11 yoshli o'quvchilarda bilim olish tuyg'usini rivojlantirish va ularni ijtimoiylashtirishdan iborat. O'quvchilarda bilim olishga ishtiyoq tabiiy bo'ladi, boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi ana shu tuyg'uni rivojlantirish va o'quvchilarning instinktini ijtimoiylashtirishdan iborat. Aynan mana shu ikki vazifa boshlang'ich sinf o'qituvchisining savodxonlik masalasini hal etishdagi muvaffaqiyatlariga olib keladi.

2. *Bilim berish.* Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda 7-11 yoshli o'quvchilarga tezkor va maqbul darajadagi bilimlarni berishni nazarda tutish kerak bo'ladi. Unga ko'ra, o'quv fanlarining mavzulari va o'quv materiallari qiziqarli, aniq va tushunarli xususiyatlarga

ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bilim berishda o'quvchilarga individual yondashish va ularning ruhiy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

3. *Malaka berish.* Mazkur vazifaning mazmuni shundan iboratki, 7-11 yoshli o'quvchilarga o'qish, yozish, ijodiy fikrlash va mustaqil fikr yuritish malakalari berilishi kerak. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quv fanlari o'zaro integratsiyalashgan va bir-birini to'ldiruvchi xarakterda bo'lishi kutilgan samarani beradi. Buning uchun hozirga zamon boshlang'ich ta'lim bosqichi qulay imkoniyatlarga ega.

4. *Ko'nikma berish.* Unga ko'ra, 7-11 yoshli o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirilishi va ular oqilona muomalaga ko'niktirilishi kerak. Buning uchun boshlang'ich ta'lim jarayonida o'tkaziladigan har bir tadbir maqsadli va tarbiyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari muntazam ravishda sinf rahbarlari va o'qituvchilar tomonidan o'rganilib borilishi kerak.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda eng ilg'or o'qitish metodlari, vositalari va texnologiyalariga tayanish tavsiya etiladi. Bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining individual o'qitish uslubiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'limning o'ziga xos metodlari, vositalari va texnologiyalari shakllantirilgan. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari jahon ta'lim va milliy pedagogikamiz tajribasidan o'tgan vositalarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim- avlodlar tomonidan to'plangan bilim va milliy qadriyatlarini yosh avlodga uzatish jarayoni bo'lib, bir necha vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogik jarayon sifatida quyidagi vazifalarni bajarishini eslatib o'tish joiz:

1) boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni ilm-fan va madaniyat olamiga olib kiruvchi eng maqbul jarayonlardan biridir;

2) boshlang'ich ta'lim 7-11 yoshli shaxslarni dastlabki bosqichda ijtimoiylashtiruvchi jarayondir.;

3) boshlang'ich ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida umuminsoniy va ma'naviy ko'nikmalarni shakllantiruvchi ta'lim bosqichidir;

4) boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga yo'naltiradi;

5) boshlang'ich ta'lim ijtimoiy bilimlarni birinchi bor shaxsga beruvchi muhim tizim hisoblanadi;

6) boshlang'ich ta'lim natijasida o'quvchilar keyingi ta'limni olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda ana shu omillarga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limni tashkil etish bo'yicha chuqur nazariy bilim va kasbiy ko'nikmalarni egallashi shart.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida *tarbiya* muhim ahamiyatga ega. O'zgacha aytganda boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiya jarayoni bir-biridan ajralmas kategoriyalardir. Shu sababli 7-11 yoshli o'quvchilarni tarbiyalashda quyidagi asoslar majmuiga tayaniladi:

- 1) tarbiyaning pedagogik asoslari;
- 2) tarbiyaning psixologik asoslari;
- 3) tarbiyaning sotsiologik asoslari.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning *pedagogik asoslarini* quyidagilar tashkil qiladi:

- o'quvchilarni intellektual tuyg'usini rivojlantirish va ularni aqliy tarbiyalash;

- o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish va ularni jismoniy tarbiyalash;

- o'quvchilarni his-tuyg'ularini o'stirish va ularni estetik tarbiyalash.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning *psixologik asoslari* quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy idrokini rivojlantirish va ularni ma'naviy tarbiyalash;

- o'quvchilarning tafakkurini o'stirish va ularni sensor tarbiyasini amalga oshirish;

- o'quvchilarning xotirasini shakllantirish va ularni korreksiyalab borish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning *sotsiologik asoslari* quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning fazilatlarini shakllantirish va ularni axloqiy tarbiyalash;

- o'quvchilarni ijtimoiylashtirish va ularni ijtimoiy tarbiyalash;

- o'quvchilarni hayotga yo'naltirish va ularning muloqot madaniyatini shakllantirish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning mazkur pedagogik, psixologik va sotsiologik asoslari e'tibor berilsa, 7-11 yoshli shaxslarni aqliy-axloqiy, jismoniy, estetik, ma'naviy, ijtimoiy jihatdan tarbiyalaydi, ularning shaxsidagi illatlarni korreksiyalaydi va yordamga muhtoj o'quvchilar uchun sensor tarbiyani amalga oshiradi. Ayni paytda, unutmazlik lozimki, *bu o'rinda pedagogik tarbiya, pedagogik psixologiya va pedagogik sotsiologiya asoslariga tayaniladi*. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda pedagogik psixologiya va pedagogik sotsiologiyaning imkoniyatlaridan foydalanish kengayib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyani *jarayon* sifatida qabul qilish lozim. Bu jarayonga tabiiy muhit, jamiyat olami, qadriyatlar, oila kabi tizimlar ta'sir o'tkazadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu ta'sirlarni yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi vazifasini bajaradi.

Pedagogik olimlarning fikricha, boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy omilning ikki ko'rinishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Obyektiv tarbiyaviy omillar:

- genetik vorislik va insonning sog'lik darajasi;

- oilaning ijtimoiy va madaniy mansubligi;

- o'quvchining ijtimoiy tarjimai holi;

- jamiyatning madaniy va ijtimoiy darajasi;

- mamlakatning ehtiyojlari va davr talablari.

2. Subyektiv tarbiyaviy omillar:

- psixologik xususiyatlar, dunyoqarashning o'ziga xosligi, qadriyatlarining yo'naltiruvchanligi, tarbiyalanuvchining ichki qiziqishlari va ehtiyojlari;

- o'quvchilar munosabatlarining xossalari;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonini tashkil etish xususiyatlari.¹

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil etishda ana shu omillar hisobga olinishi taqozo etiladi. Boshlang'ich sinf o'quv-

¹ Каранг. Миронов В. Век образования.-М.: "Педагогика".1990.

chilarining tarbiyasi to'g'ri olib borilayotganligi quyidagi mezonlar asosida *baholab* boriladi:

- a) o'quvchilarda ezgulik xulq-atvori shakllanayotganligi;
- b) o'quvchilar xatti-harakati va munosabatlarida haqiqatgo'ylik paydo bo'layotganligi;
- v) o'quvchilarda go'zallikka intilish ko'nikmasi tarkib topayotganligi.

Mazkur ezgulik, haqiqatgo'ylik va go'zallik mezonlari boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida muhim pedagogik kategoriyalar hisoblanadi.

Bu o'rinda boshlang'ich ta'limda tarbiyaning quyidagi maqbul *metodlaridan* foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ishontirish;
- namuna ko'rsatish;
- maslahat berish;
- yo'naltirish;
- ko'niktirish;
- rag'batlantirish.

E'tibor berilsa, bu metodlarda bola shaxsini hurmat qilish va har bir o'quvchiga individual yondashish muhim ustuvordir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan tarbiya jarayonida jazolash metodi kutilgan samarani bermasligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonini quyidagi *texnologiyalardan* foydalanish tavsiya etiladi:

- multimediali texnologiyalar;
- kompyuterli texnologiyalar;
- innovatsion pedagogik ta'lim texnologiyalar.

Mazkur texnologiyalar tezkorligi, qiziqiligi va jalb etish xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. shuningdek, bu texnologiyalar kutilmagan murakkab tabiiy sharoitlar davrlarida ta'limning masofaviy shaklidan foydalanishda juda qo'l keladi.

Umuman bugungi kunda boshlang'ich ta'limda tarbiya deganda quyidagilar tushuniladi, unga ko'ra, o'quvchilarga:

- ijtimoiy tajribalar va madaniy yutuqlarni uzatish;
- ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;
- ularning faoliyati va hayot tarzini tashkil etish;
- ularning tarbiyachi bilan munosabatlarin yo'lga qo'yish;

- murakkab sharoitlarda ularga yordam ko'rsatish.

Mazkur ta'kidlanganlarni quyidagicha tasavvur etish mumkin (5-chizma):

Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimi o'ziga xos tarzda rivojlanib bormoqda. Bunda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini optimallashtirish;
- boshlang'ich ta'limni professional darajada amalga oshirish;
- maktab yoshidagi barcha bolalarni boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olish;
- boshlang'ich ta'limga eng so'nggi pedagogik yutuqlarni tatbiq etish;

- boshlang'ich ta'limni professional pedagoglar bilan ta'minlash.

Ayni paytda, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida quyidagi muammolar mavjud:

a) har bir bolaning iste'dodini kutilgan darajada ro'yobga chiqarishga erisha olmayotganligi;

b) pedagog olimlarning fikricha, keyingi 20 yil ichida maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi 5 foizga o'sgan va bu holat boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari va darsliklarini tezkor ravishda yangilab borishni taqozo etadi;

v) boshlang'ich ta'limni texnologiyalashtirishda yagona standartlarning yo'qligi.

O'zbekiston sharoitida mazkur muammolarni yumshatish maqsadida uzluksiz tarzda amalga oshiriluvchi "Milliy o'quv dasturi" ishlab chiqildi va u 2021-2022 o'quv yilidan boshlab amalga kiritiladi. Mazkur o'quv dasturida boshlang'ich ta'limga oid O'zbekiston va jahon xalqlari tajribalari uyg'unlashtirilgan.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish. Boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etib borishdir. Bugungi kunda ana shunday muammolardan biri va pedagogikamizda endi tadqiq etilayotgan o'quvchilarda uchraydigan *pedagogik konfliktlarni* aniqlash hamda ularni bartaraf etishdir.

Pedagogik konflikt - konfliktologiya nazariyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu masala pedagogika fanlari nomzodi M.T.Axmedova

tomonidan maxsus tadqiq etilib, uning "Pedagogik konfliktologiya" monografiyasida o'ziga xos tarzda tahlil qilib berilgan.

Bizning yondashuvimizda uning ta'rifi quyidagicha: *pedagogik konflikt* - bu ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim ishtirokchilari o'rtasida ro'y beradigan ziddiyatlar majmuidir.

Ta'kidlab o'tilganidek, "konflikt" so'zi "ziddiyat", "nizo", "ixtilof", "to'qnashish", "kelishmaslik", "o'zaro tushunmaslik" kabi ma'nolariga ega. Lekin, ular orasida pedagogik nuqtai nazardan *ziddiyat* ma'nosi maqbul hisoblanadi. Chunki, ziddiyat tushunchasini mazkur hodisaning nisbiy va o'tkinchi xususiyatga egaligi namoyon bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktologiyaning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan xususiyati ziddiyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

1) "ziddiyat" so'zi konflikt atamasining madaniy ma'nosi bo'lib, nisbatan ijobiy xususiyatga ega;

2) ziddiyat- vaqtinchalik hodisa hisoblanadi;

3) ziddiyatda dag'illik yoki kuch ishlatish ottenkasi yuq;

4) ziddiyat- bartaraf etish mumkin bo'lgan xarakterga ega bo'ladi.

Mazkur pedagogik tahlillardan kelib chiqib, biz "pedagogik konflikt" tushunchasini ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan va bartaraf etish omillariga ega bo'lgan *ziddiyatlar majmui* ma'nosida qo'llaymiz. Buning uchun pedagogik konfliktlar hodisasini umumiy Konfliktologiya fenomeni tarkibida tekshirib, uning ko'rinishlari, shakllari va turlari haqida ularning bartaraf etish texnologiyasini tadqiq etish taqoza etiladi.

Pedagogik konfliktlar siyosiy, iqtisodiy va sotsial konfliktlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'rinda mazkur xususiyatlarning eng muhimlarini ta'kidlab o'tamiz.

1. *Ta'limiy xarakterga egaligi*. Pedagogik konfliktlar eng avvalo ta'lim va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u aynan ta'lim jarayonida bilim olish, tarbiyalanish hamda odatlanish voqeligida yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik konfliktlar ta'lim tarbiya va faoliyat voqeligida yuzaga keladigan ziddiyatlar hisoblanadi.

2. *Muddatli xarakterda bo'lishi*. Pedagogik konfliktlar muddatli (vaqtga ega) xususiyatga ega bo'lib, ular kelib chiqishi va oqibatlari nuqtai nazaridan nisbatan o'tkinchi ziddiyatlardir. Chunki ularning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillar, zamon va makon ta'sirlari

bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar muayyan ko'rinishlar, shakllar va turlarga xos tarzda yuzaga keladi, vaqt va makon ta'sirida ular susayishi yoki ko'payishi mumkin.

3. *Shaxslar o'rtasida kechishi*. Pedagogik konfliktlar ta'lim ishtirokchilari- o'quvchi va o'qituvchi (murabbiy), o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va ota-ona, o'quvchi va maktab jamoasi o'rtasida kechadigan ziddiyatlardir. Shu jihatdan bu hodisa aniq obyektlarga ega bo'lib, uning ko'lami va oqibatlari shaxslarga bog'liq bo'ladi.

4. *Bartaraf etish omiliga egaligi*. Pedagogik konfliktlar ta'limiy, muddatli, shaxslar o'rtasida kelish xususiyatlariga egaligi bilan bartaraf etish faktori mavjud bo'ladi. Chunki pedagogik konfliktlarda zo'ravonlik, kuch ishlatish yoki tahdid xususiyatlari bo'lmaydi, aksincha, ularda o'qish, o'rganish, o'zlashtirish va ko'nikish xususiyatlari bo'lganligi uchun bartaraf etish imkoniyatlari mavjud.

Zero, pedagogik konfliktlar ana shunday o'ziga xos xususiyatlariga egaligi bilan siyosiy, iqtisodiy va sotsial ziddiyatlardan farqlanadi. Bunda yana quyidagi o'qitish jarayoniga oid pedagogik nizolarni ham hisobga olish lozim.

O'quv jarayonidagi nizo — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat.

Ta'lim jarayonidagi nizolar har qanday kishilar kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini, istak-xohishini pasaytiradi, guruhdagi «ruhiy iqlim»ni yomonlashtiradi, o'quvchilar qo'nimsizligini ko'paytiradi. shuning uchun bu masalalarga doimo e'tibor berish, ta'lim olayotgan guruhlarini boshqarishni, o'quvchilar turg'unligini ta'minlovchi shartlardan biridir. O'qituvchi har bir aniq vaziyatning tagiga adolat va obyektivlik bilan yetishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak.

Pedagogik — psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, «ruhiy iqlim» yaxshi bo'lgan, intizomli bo'lgan joyda faqat bilim olish yuqori emas, balki pedagogik nizolar ham anchagina kam, o'quvchilarning o'z bilimidan katta qoniqish olayotgani ko'zga tashlanib turadi.

Ta'lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan:

- ta'limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni;
- rag'batlantirishning takomillashtirilmagani;

tomonidan maxsus tadqiq etilib, uning "Pedagogik konfliktologiya" monografiyasida o'ziga xos tarzda tahlil qilib berilgan.

Bizning yondashuvimizda uning ta'rifi quyidagicha: *pedagogik konflikt* - bu ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim ishtirokchilari o'rtasida ro'y beradigan ziddiyatlar majmuidir.

Ta'kidlab o'tilganidek, "konflikt" so'zi "ziddiyat", "nizo", "ixtilof", "to'qnashish", "kelishmaslik", "o'zaro tushunmaslik" kabi ma'nolariga ega. Lekin, ular orasida pedagogik nuqtai nazardan *ziddiyat* ma'nosi maqbul hisoblanadi. Chunki, ziddiyat tushunchasini mazkur hodisaning nisbiy va o'tkinchi xususiyatga egaligi namoyon bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktologiyaning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan xususiyati ziddiyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

1) "ziddiyat" so'zi konflikt atamasining madaniy ma'nosi bo'lib, nisbatan ijobiy xususiyatga ega;

2) ziddiyat- vaqtinchalik hodisa hisoblanadi;

3) ziddiyatda dag'illik yoki kuch ishlatish ottenkasi yuq;

4) ziddiyat- bartaraf etish mumkin bo'lgan xarakterga ega bo'ladi.

Mazkur pedagogik tahlillardan kelib chiqib, biz "pedagogik konflikt" tushunchasini ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan va bartaraf etish omillariga ega bo'lgan *ziddiyatlar majmui* ma'nosida qo'llaymiz. Buning uchun pedagogik konfliktlar hodisasini umumiy Konfliktologiya fenomeni tarkibida tekshirib, uning ko'rinishlari, shakllari va turlari haqida ularning bartaraf etish texnologiyasini tadqiq etish taqoza etiladi.

Pedagogik konfliktlar siyosiy, iqtisodiy va sotsial konfliktlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'rinda mazkur xususiyatlarning eng muhimlarini ta'kidlab o'tamiz.

1. *Ta'limiy xarakterga egaligi*. Pedagogik konfliktlar eng avvalo ta'lim va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, u aynan ta'lim jarayonida bilim olish, tarbiyalanish hamda odatlanish voqeligida yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik konfliktlar ta'lim tarbiya va faoliyat voqeligida yuzaga keladigan ziddiyatlar hisoblanadi.

2. *Muddatli xarakterda bo'lishi*. Pedagogik konfliktlar muddatli (vaqtga ega) xususiyatga ega bo'lib, ular kelib chiqishi va oqibatlari nuqtai nazaridan nisbatan o'tkinchi ziddiyatlardir. Chunki ularning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillar, zamon va makon ta'sirlari

bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlar muayyan ko'rinishlar, shakllar va turlarga xos tarzda yuzaga keladi, vaqt va makon ta'sirida ular susayishi yoki ko'payishi mumkin.

3. *Shaxslar o'rtasida kechishi*. Pedagogik konfliktlar ta'lim ishtirokchilari- o'quvchi va o'qituvchi (murabbiy), o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va ota-ona, o'quvchi va maktab jamoasi o'rtasida kechadigan ziddiyatlardir. Shu jihatdan bu hodisa aniq obyektlarga ega bo'lib, uning ko'lami va oqibatlari shaxslarga bog'liq bo'ladi.

4. *Bartaraf etish omiliga egaligi*. Pedagogik konfliktlar ta'limiy, muddatli, shaxslar o'rtasida kelish xususiyatlariga egaligi bilan bartaraf etish faktori mavjud bo'ladi. Chunki pedagogik konfliktlarda zo'ravonlik, kuch ishlatish yoki tahdid xususiyatlari bo'lmaydi, aksincha, ularda o'qish, o'rganish, o'zlashtirish va ko'nikish xususiyatlari bo'lganligi uchun bartaraf etish imkoniyatlari mavjud.

Zero, pedagogik konfliktlar ana shunday o'ziga xos xususiyatlariga egaligi bilan siyosiy, iqtisodiy va sotsial ziddiyatlardan farqlanadi. Bunda yana quyidagi o'qitish jarayoniga oid pedagogik nizolarni ham hisobga olish lozim.

O'quv jarayonidagi nizo — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat.

Ta'lim jarayonidagi nizolar har qanday kishilar kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini, istak-xohishini pasaytiradi, guruhdagi «ruhiy iqlim»ni yomonlashtiradi, o'quvchilar qo'nimsizligini ko'paytiradi. shuning uchun bu masalalarga doimo e'tibor berish, ta'lim olayotgan guruhlarni boshqarishni, o'quvchilar turg'unligini ta'minlovchi shartlardan biridir. O'qituvchi har bir aniq vaziyatning tagiga adolat va obyektivlik bilan yetishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak.

Pedagogik — psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, «ruhiy iqlim» yaxshi bo'lgan, intizomli bo'lgan joyda faqat bilim olish yuqori emas, balki pedagogik nizolar ham anchagina kam, o'quvchilarning o'z bilimidan katta qoniqish olayotgani ko'zga tashlanib turadi.

Ta'lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan:

- ta'limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni;
- rag'batlantirishning takomillashtirilmagani;

- yomon ta'lim sharoitlarini;
- ta'lim to'g'risidagi qonunlarni buzishni;
- o'qituvchi saviyasining pastligi;
- o'zaro munosabatlar madaniyatining qoniqarsizligi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Pedagogik nizolarning uch turi uchrab turadi: O'qituvchi va o'quvchi orasidagi nizo bir o'quvchining o'ziga bir-biriga zid topshiriqlar berilib, o'qituvchining talabi bir-biriga mos kelmay, o'quvchi bunday holda nima qilishini bilmay xunob bo'lgan hollarda vujudga keladi. Masalan, ta'lim muassasasida o'qituvchi o'quvchiga vazifa berib, vazifani bajarilishini o'qituvchi talab qildi, deylik. Keyinroq esa o'qituvchi o'quvchidan bu vazifalarga nihoyatda ko'p vaqt sarflagani va natijada, qolgan vazifalarga tayyorlanmaganidan shikoyat qilsa, bunday talab oldingi talabga zid bo'lib chiqadi. Oqibatda o'quvchi nima qilishni bilmay xunobi oshadi.

O'qituvchi va guruh o'rtasidagi nizo ko'p hollarda ularning u yoki bu masalaga bo'lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi, O'qituvchi guruhlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, guruhlar bilan o'qituvchi o'rtasida esa ta'lim olish sharoitining qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Eng yaxshi talabaga ikki nomzod qo'yilganda ham shu turdagi nizolar kelib chiqish hollari bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi nizo hayotda keng tarqalgan nizolar. Bunday nizolar ta'lim olish jarayonida quyidagicha bo'lishi mumkin, masalan:

- ayrim talabalar vazifani bajarmasliklari;
- muntazam ravishda besabab dars qoldirishlar;
- darslarda intizom saqlamay o'qituvchig asabiga tegishlari;
- o'qituvchining bir o'quvchini boshqa o'quvchidan ustun qo'yishi va hokazo.

Yosh o'qituvchining guruh bilan to'qnashuvi ham o'qituvchi va guruh o'rtasidagi kelishmovchilik oqibatida bo'ladi. O'quv jarayonida har bir o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabati ikki tarkibiy doirada: formal (yoki rasmiy) va noformal (yoki norasmiy) doirada amalga oshadi.

Har ikkala o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabatlar doimo bir-biriga ta'sir qilib, shu jarayonda nizoli holatlar ham vujudga kelib turadi. Mavxumligiga qarab, pedagogik nizolar ochiq

yoki yopiq ko'rinishda bo'lishi mumkin.


Ochiq nizolar odatda o'qituvchi va o'quvchining ko'z oldida, to'g'ridan-to'g'ri vujudga keladi. Ular to'qnashish sodir bo'lgunga qadar to'liq etilgan bo'ladi. Bunday nizolar rahbariyat nazorati ostida turganligi sababli ta'lim jarayoni uchun unchalik xavf tug'dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi.

Yopiq nizolar bunday nizolarni asta-sekin belgilangan fursatda portlaydigan minaga o'xshatsa bo'ladi. Agar nizo hali "yetilmagan" yoki ularni boshqalar nigohidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda, nizo o'qituvchi va o'quvchi "ichida" "bo'lsa, bilingki, bu nihoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin. Yopiq nizolar ko'pincha, fitna, ig'vo, hiyla nayrang, fisq-fasod shaklida rivojlanish oqibatida vujudga keladi. Ular oraga fitna solish, buzg'unchilikka qaratilgan bo'lib, yolg'on-yashiq, uydirma, bo'hton gaplar o'quvchilar uchun asosiy qurol vazifasini bajaradi.

Xarakteriga qarab, pedagogik nizolar obyektiv yoki subyektiv nizolarga bo'linadi. *Obyektiv nizolarga* ta'limning rivojlanish jarayonida yuzaga chiqadigan real kamchiliklar va muammolar bilan bog'liq nizolar kiradi. *Subyektiv nizolarga* o'qituvchi va o'quvchilarning u yoki bu voqelikka bo'lgan shaxsiy fikrlarining turlichaligi oqibatida vujudga keladigan nizolar kiradi. Shunday qilib harqanday mahoratli o'qituvchi jamoadagi nizolardan uzoq bo'lishga harakat qilishi lozim. O'zaro munosabatlar faqat yaxshilikka yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Eslatib o'tish joizki, o'quvchi va o'zgalor orasidagi konfliktlar ziddiyat xarakteriga, o'qitish jarayonidagi konfliktlar esa nizo xarakteriga ega bo'ladi. Bunda ziddiyat va nizolarning majmui pedagogik konfliktlar omillarini o'taydi. Shu sababli bizning yondashuvimizda, pedagogik konfliktlar keng qamrovli tusga ega bo'ladi.

Shunday qilib pedagogik konflikt hodisasi mazmuni quyidagicha idrok etiladi (5-chizma):



Shunday qilib boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u "Umumiy pedagogika" fanining tarkibi sifatida idrok etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur masalaga e'tibor berishlari kerak.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilish va tarbiya jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik konfliktlar to'g'risida bilasizmi?
4. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konflikt nima?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

"Yon daftar"ingizga boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini konspekt qiling.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini dastlabki bosqichda o'rganing va ularni tahlil qiling. O'rganilgan pedagogik konfliktlarning yechimlarini izlang.

6-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

Reja:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi
2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash va ularni faoliyatga yo'naltirish
3. Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaviy tayyorgarligini oshirib borish

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, bo'lajak, sinf, o'qituvchi, qiyofa, faoliyat, yo'naltirish, shakllantirish, ko'niktirish, odatlantirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi. O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy tajriba va jahon andozalari talablariga mos ravishda tayyorlash amalga oshirilmoqda. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini(imijini) shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Pedagog olimlarning yondashuvlariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasida quyidagilar muhim hisoblanadi:

- nazariy bilimdonlik;
- kasbiy ko'nikmalik;
- kasbiy malakalik;
- kasbiy kompetensiyalik.

Bu asoslarga tayangan holda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional qiyofasi shakllantiriladi. Buning uchun quyidagi mexanizmga tayaniladi:

- pedagogik va mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarining nazariy bilimlari shakllantiriladi hamda ularning kasbiy ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi;

- majburiy va tanlov fanlarini o'qitish jarayonida esa talabalarining o'zlashtirgan nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasi (qobiliyati) shakllantiriladi;

- malakaviy va pedagogik amaliyot jarayoni vositasida talabalarning bilimdonlik, ko'nikmalik, malakalik hamda kompetensiyalik layoqatlari mustahkamlanadi.

Shu tariqa ushbu mexanizmlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini shakllantirishga erishiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasida quyidagi talablarga moslik muhim o'rin tutadi:

- ijtimoiy faollik;
- axloqiy yetuklik;
- kasbiy namunalik.

Mazkur talablar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi shakllantiriladi.

Ayni paytda, oliy ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlantirishlar jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasiga yangi talablarni qo'yib boradi. Bunda qo'yilayotgan yangi talablar oliy pedagogik ta'lim jarayonida hisobga olinadi va ularning ijrosiga e'tibor qaratiladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaroriga binoan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari o'qitishning kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasiga quyidagi yangi malaka talablari qo'yiladi:

- ta'limning kredit-modul tizimi bo'yicha bilimga ega bo'lish;
- kredit-modul tizimi bo'yicha o'qitish usullari va texnologiyalarini bilish;
- kredit-modul tizimi bo'yicha o'qitishning didaktik ta'minotini tayyorlay olish;
- kredit-modul tizimi bo'yicha o'zlashtirganlarni kredit talablari asosida baholay olish.

Bu mazkur talablar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasini shakllantirish ishiga 2021-2022 o'quv yilidan boshlab kirishilganligini eslatib o'tish joiz.

Shu tariqa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi joriy va yangi malaka talablari asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida shakllantirilib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni yanada rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi (imiji) muhim o'rin tutadi.

Xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini quyidagi yondashuv asosida shakllantirishni tavsiya etadi:

- 1) kasbiy bilimga ega bo'lish;
- 2) loyihachi bo'lish;
- 3) konstruktiv bo'lish;
- 4) maslahatchi bo'lish;
- 5) tashkilotchi bo'lish.¹

Mazkur komponentlarning ma'nosi quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-nazariy bilimni egallashi, mustaqil fikrga ega bo'lishi va mudom o'zi ustida ishlab borishi kerak; uning loyihachiligi har bir darsni o'ziga xos tarzda o'tkazishi bilan belgilanadi; konstruktivligi o'qituvchilar bilan til topisha olishi va bolaparvarligi bilan namoyon bo'ladi; maslahatchiligi ta'lim oluvchilar va ularning manfaatdor shaxslari bilan kirishimligidir; tashkilotchiligi esa yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasida quyidagilar bo'rtib turishi kerak:

- bolaparvarlik;
- o'z kasbini sevishi;
- pedagogik faol bo'lish;
- o'zi ustida doimiy ishlashi.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma

¹ Бордовская Н., Реан А. Педагогика. Учебник для ВУЗов. – СПб.: "Питер" 2001. С 142-143.

bilan qurollantirish;

v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish;

g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi Shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo'lmaydi.

Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malakalik bo'rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik vazifani qo'ya olishi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo'lishi shart;

- o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va

murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning ma-shaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

-pedagogxodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli Farmonida berilgan mazkur topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik olimlarning fikricha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi funktsional komponentlarni bilishi kerak:

- 1) o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish;
- 2) o'quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqтира olishi;
- 3) o'quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi;
- 4) muntazam ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi.¹

Mazkur yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tajribali pedagog olimlardan A.K.Markovo yondashuviga ko'ra

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rt yo'nalishdan iborat:

- 1) kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash;
- 2) kasbiy pedagogik malakani egallash;
- 3) kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash;
- 4) shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayoni o'ziga xos model ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. CHungi modellashtirish to'rt jihatga ega bo'ladi:

- model bu o'quv materiallarini tizimli taqdim etish;
- model muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;
- model ta'lim oluvchini hamisha obyekt sifatida bilish;
- model yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil 23 sentyabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur huquqiy maqomga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;
- kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

¹ Каранг. Гессен С.И. Основы педагогики. -М.,1995

- sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo'naltirilishi kerak.

Ayni paytda, mazkur Qonunda o'qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi bilan birgalikda olib borishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi;
- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi.

Mazkur majburiyatlarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida;
- maxsus kurslar vositasida;
- mustaqil ta'lim vositasida;
- ustoz-shogird an'anasi vositasida.

Bu mexanizmlarga amal qilish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish imkonini beradi. Misol uchun, mustaqil ta'lim vositasini olaylik. Pandemiya kabi murakkab sharoitlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayoni hamisha va har qanday vaziyatda mustaqil ta'limga tayyor turishi kerak.

Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaviy tayyorgarligini oshirib borish. Bugungi kunda mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinflarida professional o'qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Ular bu borada O'zbekiston

Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining (2020 yil 23 sentyabr) 5-bobida belgilangan pedagog xodimlarning huquqi, maqomi va majburiyatlariga qat'iy amal qilishi bilan faoliyat samaradorligiga erishadi.

Ayni paytda, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaviy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni ular tomonidan chuqur bilishi va amal qilishi taqozo etiladi. Bu borada hozirgi kunda ham ijroda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari"da amaliy faoliyatda bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun malakaviy talablar belgilangan.

Mazkur malakaviy talablar quyidagilardan iborat:

1. Umumiy talablar. Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagi to'rt tarkibdan iborat:

- o'qitish mahorati bo'yicha;
 - tarbiyalash mahorati bo'yicha;
 - shaxsiy sifatlar bo'yicha;
 - bilimlarni nazorat qilish va xolisona baholash bo'yicha.
- O'qitish mahorati bo'yicha* quyidagi quyidagi talablar qo'yilgan:
- kasbiy layoqat va eruditsiyaga (his-tuyg'u)ga egalik;
 - psixologik-pedagogik tayyorgarlikka egalik;
 - ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlarni olishga o'rgatish ko'nikmasiga egalik;
 - o'quv adabiyotlarining shakllari va turlarini bilish;
 - yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bilish, Internet global tarmog'idan foydalanish;
 - o'z malakasini oshirib borishni bilish;
 - ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
 - pedagogika fanining asosiy yo'nalishlarini bilish;
 - o'quv fanlararo aloqalardan foydalanishni bilish;
 - notiqlik san'ati asoslarini bilish.
- Tarbiyalash mahorati* bo'yicha qo'yiladigan talablar:
- o'qitish va tarbiyalash jarayonining bog'liqligini bilish;
 - o'quvchilarni uyg'un shakllantirishni bilish;

- tarbiya metodlari va texnologiyalarini bilish;
- o'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy va estetik fazilatlarini shakllantirishni bilish.

Shaxsiy sifatlar bo'yicha qo'yiladigan talablar:

- talabchanlik;
- haqqoniylik;
- halollik;
- mehribonlik;
- xushmuomalalik.

Bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan *nazorat va xolisona baholash* bo'yicha qo'yiladigan talablar:

- bilimlarni o'zlashtirishni baholashning prinsiplarini bilish;
- bilimlarni o'zlashtirishni baholashning metodlari va mexanizmlaridan xabardor bo'lish;
- standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqishni bilish;
- o'zlashtirishni xolisona baholashga qat'iy amal qilish.

E'tibor berilsa, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim umumiy talablar belgilangan.

2. Kasbiy talablar. Ta'kidlangan hujjatda amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun quyidagi kasbiy talablar qo'yilgan:

- oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish;
- davlat ta'lim standartlarini va o'qitilayotgan o'quv fanlari dasturlari talablarini bilish;
- umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish;
- sinflar, laboratoriyalar va to'garaklar xonalarini jihozlashni bilish;
- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash prinsiplariga amal qilish;
- o'quv fanlarining mazmuni va ularni o'qitishda izchillikka amal qilish;
- o'quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasini bilish;
- o'qitishning interaktiv(innovatsion, integratsion – Z.U.)metodlarini bilish;
- o'quvchilarni milliy g'oya asosida ma'naviy va axloqiy tarbiyalash metodologiyasini bilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar haqida tushunchalarini

shakllantirishni bilish;


- o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muomalada etika va estetika normalariga rioya qilish;
- sinfdan (darsdan) tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini bilish;
- belgilangan sanitariya-gigiyena normalarini bilish.

Diqqat qilinsa, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim kasbiy talablar belgilangan.

Eslatib o'tish joizki, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu umumiy va kasbiy talablarga rioya qilishi bilan faoliyat samaradorligiga erishadi hamda belgilangan kategoriyalarni egallaydi. Ularning mazkur talablarga rioya qilib borishi Malaka oshirish tizimida nazorat qilinadi hamda kuchaytirib boriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shu umumiy va kasbiy talablarni o'zlashtiradi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablari davlat tomonidan belgilanadi, ularni o'zlashtirish va ularga amal qilish boshlang'ich sinf o'qituvchisining professionalligini ta'minlaydi (6-chizma):



4. Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaviy tayyorgarligini oshirib borish bo'yicha nimalarni bilasiz?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Bo'lajak va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini yodlang va o'zlashtiring.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy qiyofasiga qo'yiladigan talablarni eslab qoling va ularning o'zingizda mavjud jihatlarini aniqlang.

O'qituvchining qiyofasiga (imijiga) doir pedagogik adabiyotlar bilan tanishing.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy qiyofasi uchun qanday talablar qo'yiladi?

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda va ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishda qanday malaka talablariga asoslaniladi?

3. Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablardan xabaringiz bormi?

2-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIM DIDAKTIKASI

7-MAVZU: "BOSHLANG'ICH TA'LIM DIDAKTIKASI" MAZMUNI

Reja:

1. Didaktika tushunchasi
2. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari
3. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko'nikma, samara, malaka, yondashuv, o'qitish, metod.

Didaktika tushunchasi. Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. "Didaktika" so'zi lotincha bo'lib, o'qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o'rganadi. Didaktikaning asosiy *kategoriyalari* quyidagilardan iborat:

- 1) o'qitish;
- 2) ta'lim berish;
- 3) o'qish.

Didaktikaning *o'qitish* kategoriyasi ta'limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi. Didaktikaning *ta'lim berish* kategoriyasi quyidagilarni bildiradi:

- bilim berish;
- ma'lumotlar uzatish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;
- o'quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash.

Ta'lim berish kategoriyasi o'qituvchining (pedagogning) faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Didaktikaning *o'qish* kategoriyasi quyidagilarni ifodalaydi:

- o'quvchilarning davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi;
- o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishi;
- o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va mustaqil fikrining shakllanishi.

O'qish kategoriyasi ta'lim oluvchilar faoliyati bilan amalga oshiriladi.

Didaktikaning asosiy vazifasi *o'quv faoliyatini* amalga oshirishdir. O'quv faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- bilimlar majmuini berish va egallash;
- o'quv faoliyatini turli vositalar va metodlar asosida tashkil etish;
- o'quvchilarning savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning bilish tajribasini kuchaytirish.

Didaktikaning o'quv faoliyatidagi samaradorligi ichki va tashqi mezonlar bilan belgilanadi. Bunda ichki mezon ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan iborat, tashqi mezon esa ta'limning umumiy samaradorligi bilan belgilanadi. Bu mezonlar asosida o'quv faoliyati tartibga solinib boriladi va unda sifat hamda samaradorlik darajalariga ko'ra o'quv faoliyati baholanadi.

Didaktika nazariyasi va amaliyotiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada ayniqsa chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (XVII asr) "Buyuk didaktika" asari muhim hisoblanadi. Bu asarda quyidagilar didaktikaning asosiy tamoyillari sifatida asoslab berilgan:

- a) bolaparvarlik;
- b) xalqparvarlik;
- v) insonparvarlik;
- g) bag'rikenglik.

Didaktikaning mazkur tamoyillari hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonida qabul qilingan bo'lib, ular pedagogik qonuniyatlar sifatida qaraladi. Bunday yondashuv natijasida butun dunyo ta'lim tizimida gumanizm ideal g'oya sifatida qabul qilingan. Unga ko'ra, ta'lim olish va ta'lim berishda insonning yoshi, jinsi, irqi, millati va ijtimoiy mavqei hisobga olinmaydi. Shu jihatdan keyingi 4 asr davomida pedagogika fani insonparvarlik san'ati sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

O'zbekiston sharoitida o'quv faoliyati didaktikaning qonuniyatlari

va tamoyillariga qat'iy amal qilingan holda tashkil etilgan. Shu sababli mamlakatimiz ta'lim tizimi xalqlarning ilg'or rivojlanib boruvchi ta'limi Ro'yxatiga kiritilgan.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari. O'zbekiston pedagogik fanlari tarkibida boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- 7-11 yoshli o'quvchilarni bilim olamiga olib kirish;
- mazkur yoshdagi o'quvchilarni jamiyatning talab va ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish;
- boshlang'ich ta'limda eng zamonaviy va maqbul o'quv fanlarini qo'llash.

shuningdek, boshlang'ich ta'lim didaktikasida asosiy e'tibor o'qitish va o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishiga qaratiladi. Shu sababli 2020-2021 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim davlat standartlari qayta ko'rib chiqildi va o'quv fanlari maqbullashtirildi. Misol uchun, o'zbek pedagogikasi tarixida ilk bor "Tarbiya" o'quv fani yaratildi va ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Boshlang'ich sinflarda mazkur fan o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va axloqini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asosan shakllantirishga yo'naltirilgan.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning sifat va samaradorligiga erishish bosh maqsad hisoblanadi. Shu jihatdan o'zlashtirish jarayoni quyidagi darajalar asosida baholanadi:

1) fanlarning (hodisalarning, voqelikning, faktlarning) o'quvchilar tomonidan farqlanishi va o'zlashtirilishi;

2) fanlar materiallarini tushunishi va ular asosida o'quvchilarning o'z bilimlarini boyitib borishi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qituvchilarning individual o'qitish uslublari muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'limida bir nechta fan o'qituvchilari o'quv faoliyati bilan Shug'ullanmoqda. Mazkur o'qituvchilarning har biri o'zining individual o'qitish uslubiga ega. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim davlat standartlariga muvofiq o'qituvchilarning turli o'qitish uslublari pedagogik qonuniyatlar asosida umumiy lashadi. Bunda quyidagi qonuniyatlar asosiy vazifani bajaradi:

- mavzularning tushuntirish va o'rgatish metodlari asosida

yoritilishi;

- har bir o'quvchining mavzularni o'zlashtirishga erishilishi;
- o'quvchilarning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos o'quv vositalarining tanlanishi;
- o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavakat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jamiyatda kitobxonlik qadriyati qayta tiklandi. Buning natijasida boshlang'ich ta'lim didaktikasida ham yangilanish ro'y berdi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishlari va ularni muhokama qilishlari boshlang'ich ta'lim didaktikasining tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik olimlarning oldida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishi zarur bo'lgan adabiyotlar majmuini tuzish va kitobxonlikning didaktik muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari to'g'risida aniq bilimga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'lim, kompyuterli texnologiyali ta'lim kabilar keng qo'llanilmoqda. Shu sababli bunday texnologiyali ta'lim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz quyidagicha: kompyuter kabi texnik imkoniyatlar boshlang'ich ta'limda maqsad emas, balki vosita bo'lishi kerak. Bunday yondashuv 7-11 yoshli o'quvchilarning texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) o'quv jarayonini eng yuqori talablar asosida tashkil etish;
 - b) boshlang'ich ta'limni professional o'qituvchilar bilan ta'minlash;
 - v) boshlang'ich ta'lim davlat standartlarini qat'iy bajarish.
- Mazkur mezonlarga binoan boshlang'ich ta'lim didaktikasining


samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlang'ich ta'limda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llanilayotganligi bois boshlang'ich ta'limning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan baholanmoqda. Biroq, boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo O'qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o'qituvchining asosiy maqsadi o'quv fanlarini talab darajasida o'qitish, tushuntirish va uning yo'nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak:

- boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha bilimlarni egallash;
- boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir qo'shimcha adabiyotlarni o'qish;
- "Boshlang'ich ta'lim" jurnali va "Ma'rifat" gazetalari bilan muntazam tanishib borish;
- Ustozlardan boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir maslahatlar olish.

O'zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalar boshlang'ich ta'lim didaktikasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarning bilim va ko'nikma darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'shabbusi bilan boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni bitiruvchilar ushbu ta'lim maskanlarining qaysi birida ko'p o'qishiga qarab boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda (7-chizma):



Shunday qilib hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim didaktikasi" mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o'rin tutadi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Didaktika tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligiga qanday erishiladi?
4. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining o'ziga xos xususiyatlarini bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur pedagog Mark Fabiy Kvintilianning (e.a. 35 – e. 95) quyidagi fikrlarini yon daftaringizga yozib oling.

“Farzand tug‘ilgach, ota-onaning asosiy vazifasi umid bo‘lib qoladi. Chunki har bir ota-ona o‘zining farzandini o‘qimishli bo‘lishini istaydi... Shu jihatdan ota-onalarning asosiy vazifasi o‘z farzandlariga ta’lim berishdan iborat. Boshlang‘ich ta’limda bolalar yozuvga o‘rgatilishi shart, bunda o‘yin metodiga asoslanish kerak bo‘ladi. Buning natijasida bolaning kuchli quroli xotira shakllantiriladi”.

8-MAVZU: BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASIDA O‘QITISH JARAYONI

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoni mazmuni
2. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida o‘qitish turlari
3. Boshlang‘ich ta’lim o‘qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar

Tayanch tushunchalar: ta’lim, boshlang‘ich, pedagogika, o‘qitish, qonuniyat, tur, metod, bilim, yondashuv, o‘zlashtirish, o‘rganish, ko‘nikma, malaka.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoni mazmuni. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fani boshlang‘ich sinflarda o‘qitish jarayonini mazmunli tashkil etish asoslari bilan talabalarni qurollantiradi. Bunda asosiy e’tibor boshlang‘ich ta’limni tashkil etish, uning maqsadi, mazmuni va vazifalari to‘g‘risida kasbiy bilim, ko‘nikma hamda malaka berishga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qitish jarayonining mazmunida quyidagi uch masala muhim o‘rin tutadi:

- o‘qitish;
- o‘qish;
- o‘zlashtirish.

O‘qitish – bu shaxsga zaruriy bilimlar berish jarayoni bo‘lib, uning vositasida shaxs kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi va umumpedagogik metodologiyaga muvofiq bu qonuniyatlarda o‘qitish jarayoni samaradorligini belgilaydi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish alohida komponentlarga, ya’ni o‘zining maqsadi, mazmuni, shakli, usullari, uslublari va texnologiyalari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlardan iborat bo‘ladi.

O‘qish – bu o‘z mazmuni jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yordamida o‘quvchilar davlat ta’lim standartlari asosida belgilangan muayyan bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu jihatdan o‘qish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

borliq, voqelik va hodisalar to'g'risidagi bilimi, ko'nikmalari va malakalari majmuidir. Boshlang'ich ta'limda o'qish jarayoni motivlashtirilgan belgilar asosida amalga oshiriladi.

O'zlashtirish – bu tushunish va o'rganish orqali axborotning mazmuni, undan foydalanish to'g'risida bilim, ko'nikma hamda malakalarning hosil bo'lish jarayonidir. Boshlang'ich ta'limda o'zlashtirishning darajalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- o'rgatilgan bilim va ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;
- bilimlarning ma'nosini tushunib borish va yodda saqlash;
- o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonining mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda o'qituvchilar o'qitish vazifasini, o'quvchilar esa o'qish va o'zlashtirish vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari pedagogik tajribadan o'tgan shakllarga asoslanadi. Bu o'rinda o'qitishning eng muhim turlariga e'tiboringizni tortamiz.

1. Dogmatik o'qitish. O'qitishning bu turida qat'iy belgilab olingan tamoyillarga asoslaniladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish, yozish, chizish va hisoblash ko'nikmasiga ega bo'lishi shart.

2. Rivojlantiruvchi o'qitish. O'qitishning mazkur turida o'quvchilarning ixtiyoriy ta'lim olishiga asoslaniladi. Bunda o'quvchilarning qiziqishiga qarab ma'lumotlar kengaytiriladi yoki qisqartiriladi. Asosiy maqsad o'quvchilarni fikr yuritishga o'rgatishdir.

3. TuShuntiruvchi o'qitish. O'qitishning bu turida bilimlar va ko'nikmalar tushuntiriladi, uning asosida o'quvchilar amaliy faoliyatga tayyorlanadi. Bunda o'qituvchi o'quv materiallarini erkin tanlaydi, ya'ni o'qituvchi darslikdan farqli ravishda o'quv materiali tayyorlashi mumkin.

4. Muammoli o'qitish. O'qitishning mazkur turida avvalo muammo qo'yiladi, keyin uning yechimi o'quvchilar ishtirokida topiladi. Bu tur o'quvchilarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

5. Dasturli o'qitish. O'qitishning bu turida kompyuterli texnologiyalarga asoslaniladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi kompyuter vositasida muloqotga kirishadi. Mazkur tur o'quvchilarga ma'lumot-

larni xohlagan tarzda berish, topshiriqlarga tuzatishlar kiritish, o'quv jarayonini virtual nazorat qilish imkonini beradi.

6. Modulli o'qitish. O'qitishning mazkur turida o'qituvchi va o'quvchi ma'lumotlarni modul tarzida qabul qiladi. Bunda o'quv fanlarining mavzulari muayyan tartib asosida yoritiladi va o'quvchilar modellashgan ma'lumotlarni qabul qiladi. Shu sababli modulli o'qitishda bo'limlar, mavzular va bandlar kompyuterli dasturga kiritiladi.

Pandemiya sharoitida 2019-2020 o'quv yilidan boshlab o'qitishning modul turi va uning masofaviy ta'lim shakli ta'lim jarayonida qaytadan qo'llanila boshladi. Bu hol modul o'qitish turini didaktik jihatdan takomillashtirilib borilishini ko'rsatdi. Bunday keyingi ilmiy tadqiqotlar ana shu muammoga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari o'qituvchi tomonidan erkin tanlanadi. Ayni paytda, bunda o'qitishning maqsad va vazifalariga to'liq erishish, uning samaradorligini ta'minlash talablari qo'yiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitishning barcha turlarini talab darajasida egallashi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar. Hozirgi zamon ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning o'qitish asoslariga zamonaviy yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlarning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- o'qitish jarayoniga noan'anaviy mashg'ulotlarni tatbiq etish;
- o'qitish jarayoniga innovatsion mashg'ulotlarni joriy etish;
- o'qitish jarayoniga integratsion mashg'ulotlarni kiritish.


Bunday zamonaviy yondashuvlar boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligiga erishishga olib keladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- zamonaviy yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga qanday yangilik berishini aniqlash;
- zamonaviy yondashuvlarni boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etib borish;
- oliy pedagogik ta'lim muassasalari va pedagoglarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimi orqali zamonaviy

o'qitish yondashuvlarini o'rganib borish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning o'qitish jarayoniga nisbatan zamonaviy yondashuvlari bo'yicha talabalarga nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy malaka berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish jarayoni umumpedagogika asoslarining o'ziga xos tizimiga tayanadi (8-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayoni mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning asosiy turlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar bo'yicha nimalarni bilasiz?
4. Boshlang'ich ta'limning o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish uchun nimalarga amal qilish kerak?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

“Yon daftar”ingizga boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonining mazmunini konspekt qiling.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasidagi o'qitishning asosiy turlarini yodlang.

Boshlang'ich ta'lim o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlarning asosiy shakllarini eslab qoling.

9-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QITISH ASOSLARI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish texnologiyalari

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, pedagogika, o'qitish, qonuniyat, tur, metod, bilim, yondashuv, o'zlashtirish, o'rganish, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari umum-pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi. Pedagog olimlarning fikricha, o'qitish qonuniyatlari ichki va tashqi qonuniyatlarga bo'linadi.¹ Bunda *qonuniyat* deganda o'quv jarayonining tashkiliy, uzviy, uzluksiz va maqsad- muddaolarining o'zaro bog'liqligi tushuniladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining *ichki qonuniyati* quyidagilardan iborat:

- bilish va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi muammolarni hal etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka asosida aqlini rivojlantirish;

- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi hamda u asosda o'qitish samaradorligiga erishish;

- o'quvchilarning faolligi va u asosda o'qitishning natijaviyligini ta'minlash;

- o'quvchilarning bilmaslikdan bilishga o'sib borishini tarkib toptirish.

E'tibor berilsa, o'qitishning ichki qonuniyatlari bevosita pedagogik jarayon bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning *tashqi qonuniyatlari* quyidagilardan iborat:

- o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi;

- ta'lim oluvchini rivojlantirish;

- o'qitishning hamisha nimanidir o'zlashtirishga yo'naltirilganligi;

- ta'lim oluvchilarni atrof-muhitga olib kirish.

Mazkur tashqi qonuniyatlar o'qitishning samaradorligiga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim va tarbiya jarayonida ana shu pedagogik qonuniyatlarga qat'iy amal qilishi kerak. Aks holda o'qitishning maqsad va vazifalarigi erishib bo'lmaydi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikmalarni o'zlashtirish va tarbiyalanishiga qaratilishi kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlarining asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- davlat ta'lim standartlari;

- pedagogik ilmiy tadqiqotlarning xulosalari;

- ilg'or o'qituvchilarning tajribalari.

Butun dunyo miqyosida boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning qonuniyatlari bola huquqlarining ustuvorligi, tabiiylik va ijtimoiylik tamoyillariga tayanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning qonuniyatlarini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- ma'lumotlarni uzatishda qat'iylikka amal qilish;

- bilim berish va o'qitishda tizimlilik;

- ta'lim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini tarkib toptirish;

- nazariya va amaliyot uyg'unligi;

- o'qitishning turli imkoniyatlaridan foydalanish;

- xalqchillik.

Bu tamoyillar o'qitishning qonuniyatlari negizini tashkil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning turli metodlari qo'llaniladi. Bu o'rinda ana shu metodlarni tizimlashtirib taqdim etish mumkin.

Birinchi guruh metodlar. Bu metodlar ma'lumotlarni va bilimlarni og'zaki uzatishga asoslanadi. Uning asosiy turlari quyidagilardir:

- suhbat;

¹ Каранг: Оконь В. Введение в общую дидактику. – М.: «Педагогика». 1990.

9-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QITISH ASOSLARI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish texnologiyalari

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, pedagogika, o'qitish, qonuniyat, tur, metod, bilim, yondashuv, o'zlashtirish, o'rganish, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari umum-pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi. Pedagog olimlarning fikricha, o'qitish qonuniyatlari ichki va tashqi qonuniyatlarga bo'linadi.¹ Bunda *qonuniyat* deganda o'quv jarayonining tashkiliy, uzviy, uzluksiz va maqsad- muddaolarining o'zaro bog'liqligi tushuniladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining *ichki qonuniyati* quyidagilardan iborat:

- bilish va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi muammolarni hal etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka asosida aqlini rivojlantirish;
- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi hamda u asosda o'qitish samaradorligiga erishish;
- o'quvchilarning faolligi va u asosda o'qitishning natijaviyligini ta'minlash;
- o'quvchilarning bilmaslikdan bilishga o'sib borishini tarkib toptirish.

E'tibor berilsa, o'qitishning ichki qonuniyatlari bevosita pedagogik jarayon bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning *tashqi qonuniyatlari* quyidagilardan iborat:

¹ Караг: Оконь В. Введение в общую дидактику. — М.: «Педагогика». 1990.

- o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi;

- ta'lim oluvchini rivojlantirish;

- o'qitishning hamisha nimanidir o'zlashtirishga yo'naltirilganligi;

- ta'lim oluvchilarni atrof-muhitga olib kirish.

Mazkur tashqi qonuniyatlar o'qitishning samaradorligiga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim va tarbiya jarayonida ana shu pedagogik qonuniyatlarga qat'iy amal qilishi kerak. Aks holda o'qitishning maqsad va vazifalarigi erishib bo'lmaydi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikmalarni o'zlashtirish va tarbiyalanishiga qaratilishi kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlarining asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- davlat ta'lim standartlari;
- pedagogik ilmiy tadqiqotlarning xulosalari;
- ilg'or o'qituvchilarning tajribalari.

Butun dunyo miqyosida boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning qonuniyatlari bola huquqlarining ustuvorligi, tabiiylik va ijtimoiylik tamoyillariga tayanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning qonuniyatlarini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- ma'lumotlarni uzatishda qat'iylikka amal qilish;
- bilim berish va o'qitishda tizimlilik;
- ta'lim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini tarkib toptirish;
- nazariya va amaliyot uyg'unligi;
- o'qitishning turli imkoniyatlaridan foydalanish;
- xalqchilik.

Bu tamoyillar o'qitishning qonuniyatlari negizini tashkil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning turli metodlari qo'llaniladi. Bu o'rinda ana shu metodlarni tizimlashtirib taqdim etish mumkin.

Birinchi guruh metodlar. Bu metodlar ma'lumotlarni va bilimlarni og'zaki uzatishga asoslanadi. Uning asosiy turlari quyidagilardir:

- suhbat;

- hikoya qilish;
- tushuntirish;
- ma'ruza;
- matn bilan ishlash.

O'qituvchi bu metodlardan birini ixtiyoriy tanlaydi va asosiy e'tiborni natijaga qaratadi.

Ikkinchi guruh metodlar. O'qitishning mazkur guruh metodlari amaliyotga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Uning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- mashq;
- amaliy mashg'ulot;
- laboratoriya tajribalari.

Mazkur metodlar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Uchinchi guruh metodlar. O'qitishning bu guruh metodlari nazorat va baholashga asoslanadi. Ularning asosiy turlari quyidagilardir:

- mustaqil ish;
- nazorat ishi;
- test topshiriqlari;
- loyihalar himoyasi;
- imtihonlar.

O'qitishning mazkur metodlari o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida tanlanadi. Bunda asosiy maqsad o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash va baholashdir. Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida baholashning 5 balli tizimi qaytadan joriy etildi.

Kelgusida umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'qitishning kredit-modulli tizimini joriy etish mo'ljallanmoqda. U holda boshlang'ich ta'lim tizimida baholashning kredit tizimi joriy etiladi va bu masalani keyinchalik e'tiboringizga havola qilamiz.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish metodlari ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirilib borilishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish texnologiyalari. Hozirgi zamon ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va joriy etib borish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan YUNESKO tomonidan pedagogik texnologiyalar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pedagogik texnologiyalar – bu ta'lim

berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarning barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlarni o'zlashtirishning maqbul jarayonidir".¹ Shu ma'noda boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning pedagogik va texnologik yondashuvlari integratsiyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalar ustuvor darajada qo'llaniladi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitishning quyidagi eng maqbul texnologiyalarini qo'llash kutilgan samarani beradi:

- an'anaviy o'qitish texnologiyasi;
- masofaviy o'qitish texnologiyasi;
- innovatsion va integratsion o'qitish texnologiyasi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasi amalda bo'lgan va yillar davomida tajribadan o'tgan ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar tizimiga asoslanadi. Bu tizim bugungi kunda ham nazariy – amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi virtual ta'lim berish jarayoni bo'lib, unda o'qitish turli texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi va mashg'ulotlar nazariy hamda amaliy topshiriqlar shaklida amalga oshiriladi.

Innovatsion va integratsion o'qitish texnologiyasi boshlang'ich ta'lim pedagogikasida yangiliklarni kiritib borish hamda ta'lim va amaliyotning uyg'unligini joriy etishga asoslanadi. Bunda mazkur texnologiya ta'lim oluvchini faollashtirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ta'kidlangan o'qitish texnologiyalariga asoslanish besh tamoyilga tayanadi. Ular quyidagilardan iborat:

birinchi tamoyil: o'quv fani, modul yoki muayyan mavzudan kutiladigan asosiy maqsadni shakllantirib olish;

ikkinchi tamoyil: har bir darsni modullarga bo'lib o'qitish;


uchinchi tamoyil: modullarda mavzu matni va topshiriqlarni ifodalash;

¹ Педагогика фанидан изоҳли луғат. Ж.Ҳасанбоев ва бошқ. – Т.,2009. 402-бет.

to'rtinchi tamoyil: modul asosida dars mashg'ulotlarini amalga oshirish;

beshinchi tamoyil: mashg'ulotlarda erishilgan natijalarni tahlil qilish.

Bu tamoyillar boshlang'ich ta'lim pedagogikasida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini joriy etib borishga asos bo'ladi. Shunday qilib boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish asoslari o'ziga xos xususiyatlarga



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari qanday bo'ladi?
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlarining qanday turlarini bilasiz?
4. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida qanday o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyatga ega?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: Chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) boshlang'ich ta'lim didaktikasiga oid quyidagi qarashlarini o'zlashtiring.

Komenskiy deydi: "Tarbiyaning maqsadi uchta: 1) e'tiqod va ezgulikni shakllantirish; 2) ezgu xulq-atvorni tarkib toptirish; 3) til o'rgatish".

Pedagog olimning fikricha, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqi, axloqi va tushunchalari to'g'ri shakllantirilishi kerak. Bunda bolalar quyidagilarga ko'niktirilishi lozim bo'ladi: aql bilan fikrlash, foydali xatti-harakat qilish va to'g'ri so'zlash.

10-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISH USULLARI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir yondashuvlar
2. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullari
3. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda individual usullar

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tashkil, etish, usul, yondashuv, dars, o'qituvchi, o'quvchi, bilim, ko'nikma, pedagogika, tajriba.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir yondashuvlar. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir bir talay yondashuvlar mavjud. *Usul* deganda dars mashg'ulotlarini tashkil qilishning tizimli metodlari va o'qitishning shakllari tushuniladi. Shu jihatdan xorijlik pedagogik olimlar boshlang'ich ta'limni tashkil etishga doir o'ziga xos yondashuvlarni bayon qilishgan. Bu o'rinda ana shu usullarning asosiylariga e'tiboringizni tortamiz.

1. Emotsional yondashuv. Mazkur yondashuvga ko'ra, mashg'ulotlarda o'quvchilarni qiziqtiruvchi va ularning his-hayajonini qo'zg'atuvchi usullar qo'llanilishi kerak. Bunda o'quvchilar o'quv materiallarini qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qiladi. shuningdek, mashg'ulotlar ko'rgazmali vositalarga boy bo'lishi va ular o'quvchilarda munosabat uyg'otishi lozim. Bu borada o'quv qurollarining ham estetik talablarga javob berishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishga doir emotsional yondashuv dunyo mamlakatlarining juda ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston boshlang'ich ta'limida ham mashg'ulotlarni emotsional yondashuv asosida tashkil etilishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

2. Muhokamali yondashuv. Bu yondashuvga ko'ra, o'quv materiallari o'quvchilarning muhokama qilishiga va fikr yuritishiga yo'naltiriladi. Mazkur yondashuvda o'quv-tarbiyaviy ishlar o'qituvchi ishtirokidagi muhokama vositasida amalga oshiriladi va unda

o'quvchilarning faolligi yuzaga keladi.

Boshlang'ich ta'limni muhokamali yondashuv asosida tashkil etish o'qituvchidan maxsus tayyorgarlikni va o'quvchilarning yoshi, jismoniy hamda ruhiy xususiyatlariga mos o'quv materiallariga tayyorlashni taqozo etadi. O'zbekiston sharoitida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limni muhokamali yondashuv asosida tashkil etadi.

3. Texnologik yondashuv. Mazkur yondashuvga ko'ra, boshlang'ich ta'lim zamonaviy texnik imkoniyatlardan foydalangan holda tashkil etiladi. Bugungi kunda bu yondashuvda kompyuterli texnologiya asosida o'qitish ommaviylashib bormoqda. Ushbu yondashuvda "o'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" tizimi amal qiladi.

Boshlang'ich ta'limni texnologik yondashuv asosida tashkil etishda o'qituvchi o'quv materiallarini avvaldan modul asosida kompyuter dasturiga joylashtiradi. O'quvchilar ana shu dastur asosida mavzularni sinfda yoki masofadan turib o'zlashtiradi. Bu yondashuvda o'qituvchi va o'quvchilar virtual munosabatga kirishadi. 2019-2020 o'quv yilida pandemiya sharoiti tufayli O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni texnologik yondashuv asosida tashkil etish o'ziga xos tajribadan o'tkazildi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limni tashkil etishning ana shu uch yondashuvi e'tirof etilgan. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu yondashuvlarni chuqur o'zlashtirishlari kerak. Chunki kelgusi faoliyatda mazkur yondashuvlar o'qituvchi uchun amaliy baza bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limni tashkil etish bo'yicha turli yondashuvlarni kuzatib borishi maqsadga muvofiqdir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limni tashkil etish bo'yicha individual yondashuvga ega bo'lishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullari. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishga doir o'ziga xos pedagogik usullar mavjud. E'tiboringizni bunday usullarning eng muhimlariga tortamiz.

1. O'qitishning reproduktiv (mahsuldor) usuli. O'qitishning reproduktiv usulida keng bilimlar berish nazarda tutiladi. Unga ko'ra, o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha juda ko'p ma'lumotlarni taqdim qiladi va o'quvchilar ularni o'zlashtirishi kerak. O'qitishning bu usuli

boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'proq bilimlar berishi bilan ijobiy xususiyatga ega.

O'qitishning reproduktiv usulida salbiy jihat ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, o'quvchilar berilgan ma'lumotlarni kutilgan darajada o'zlashtirmasliklari mumkin. shuningdek, bu usulda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi cheklanib qoladi, chunki o'quvchilar berilgan ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirishi bilan band bo'ladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra o'qituvchi tomonidan kezi bilan o'qitishning reproduktiv usuli qo'llanilgani ma'qul. Chunki bu bilan muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilarga chuqur bilim berishga erishiladi.

2.O'qitishning ijodiy usuli. O'qitishning ijodiy usulida o'quvchilarni faollashtirish, ularni ijod qilish va fikrlashga yo'naltirish amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi, o'quvchi esa ijod qiluvchi ta'lim ishtirokchisiga aylanadi. Mazkur usul ayniqsa, boshlang'ich sinflarda kutilgan samarani beradi. Chunki 7-11 yoshli o'quvchilar nimanidir yasashga, yaratishga va qurishga juda qiziqishadi. Shu sababli ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda o'qitishning ijodiy usulini qo'llashga harakat qilishadi.

O'qitishning ijodiy usuli qo'llanilganida o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi shart:

- o'quv-bilish materiallarini qiziqarli, muhokamaga mos va fikr yuritishga imkon beradigan darajada tayyorlash;
- yangi bilimlar beruvchi, muammolarni turli variantlarda yechimini topishga yo'naltiruvchi o'quv materiallari tayyorlash;
- o'quvchilarning fikrlarini va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

O'qitishning ijodiy usuli ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan maqbul ko'riladi. Chunki bu usullar o'quvchini har tomonlama faollashtirish imkoniyatlari mavjud.

3.O'qitishning qadriyatli usuli. O'qitishning bu usulida o'quvchilarni ma'naviy va estetik jihatdan rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan o'quv-bilish materiallari o'quvchilarning ma'naviy tushunchalarini, his-tuyg'ularini va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan tarzda tayyorlanadi.

Rus san'atshunos va pedagog olimi A.Suxomlinskiyning fikricha, o'qitishning qadriyatli usulida o'quvchilar quyidagilarni o'zlashtirishi

kerak:

- insoniyat erishgan ilmiy va texnik yutuqlarni o'zlashtirish;
- inson faoliyati asoslarini o'rganish;
- san'at yutuqlarini o'zlashtirish;
- o'z iqtidorini namoyon qilishni o'rganish.

Sh-u jihatdan boshlang'ich ta'limda o'qitishning ijodiy usulidan ham oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida bu usulning keng qo'llanilayotganini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda individual usullar. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limini tashkil etishda tajribali va mahoratli o'qituvchilarning individual usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kuzatishlar va o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ko'pgina boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining individual ta'lim usullariga ega. Bunday individual usullarga quyidagi umumiy xususiyatlar xos:

1. Ijodiylik. Tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini tashkil etishda ijodiy yondashadi. Bunday ijodiylik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- har bir mavzuni yangicha o'tish;
- darslikdagi matnlarni ijodiy tahlil qilish orqali tushuntirish;
- har bir mashg'ulotlar uchun original ko'rgazmali jihozlar tayyorlash;
- maktab sharoitidan oqilona foydalanish.

Buning natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual ta'lim uslubida ijodiylik ilk rejaga chiqadi.

2. Individual ishlash. Bunga ko'ra tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchi bilan individual Shug'ullanadi. Bunday shug'ullanish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ilg'or o'quvchilarni yanada faollashtirish;
- o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarni faollashtirish;
- murakkab axloqqa ega o'quvchilar bilan alohida shug'ullanish;
- o'quvchilarning uy topshiriqlarini bajarishida metodik tavsiyalar berish.

Buning natijasida tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limni amalga oshirishida individual ishlash tajribasi

yuzaga kelgan.

3. *Samaradorlik*. Bunga ko'ra tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars va tarbiyaviy mashg'ulotlarda kutilgan samaraga erishadi. Bunday samaralar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- sinf o'quvchilarining ko'pchiligini a'lochi va faol o'quvchilar tashkil etishi;

- o'quvchilarda bilim olishga intilish va tashabbuskorlikning yaqqol ko'rinib turishi;


- o'quvchilar o'rtasida pedagogik konfliktlarning kuzatilmasligi;

- maktab tadbirlarida mazkur sinflarning asos sifatida ishtirok etishi.

Buning natijasida tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual ta'lim usulida samaradorlik komponenti tarkib topgan.

Bugungi oliy pedagogik ta'lim jarayonida tajribali va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual ta'lim usullarini o'rganib borish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib hozirgi zamon boshlang'ich ta'limini tashkil etish usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Diqqat qiling (10-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir yondashuvlar deganda nimalar nazarda tutiladi?

2. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullarini bilasizmi?

3. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda qanday individual usullar ahamiyatga ega?

4. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda individual usullar qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur ingliz pedagog-faylasufi Jon Lokkning (1632-1704) quyidagi boshlang'ich ta'limda tarbiyaga doir qarashlarini o'zlashtiring.

Jon Lokk deydi: "Sog'lom tanda – sog'lom ruh. Men shunday fikrdaman. Shu sababli tarbiya jarayonida o'quvchilar quyidagi jihatdan sog'lom tarbiyalanishi kerak: jismoniy sog'lomlik (bu talab quyidagilar asosida amalga oshiriladi: bola organizmini iliq tutish, uni toza havo bilan ta'minlash, ohorlik kiyim kiydirish, foydali ovqat berish, vaqtida uxlatish, toza choyshablar bilan o'stirish, uning injiqlikliklariga sabr qilish), xarakter jihatdan sog'lomlik (bunda quyidagilarga asoslaniladi: bolaning qiziqishini rivojlantirish, yaxshi odatlarini o'stirish, ehtiyojlarini qoniqtirish, yoshiga mos o'yinchoqlar bilan ta'minlash)". E'tibor berilsa Jon Lokk o'z g'oyasini boshlang'ich ta'limda amalga oshirishda ko'radi.

11-MAVZU: DARS-BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

Reja:

1. Dars mashg'ulotning xususiyatlari va tarixi
2. Dars – boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida
3. Boshlang'ich ta'limda darsning zamonaviy turlari

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich, ta'lim, dars, mashg'ulot, tarix, xususiyat, shakl, zamonaviylik, bilim, ko'nikma, malaka, tushunish, o'zlashtirish.

Dars mashg'ulotning xususiyatlari va tarixi. Ta'lim tizimida jumladan, boshlang'ich ta'limda amal qilib kelinayotgan dars tizimi mashg'ulotlarning asosiy xususiyatlarini o'ziga qamrab olgan majmua hisoblanadi.¹

Dars mashg'ulotiga quyidagi xususiyatlar xos, dars:

- o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat jarayon;
- o'qituvchi rahbarligida ta'lim oluvchilar guruhi bilan olib boriladi;
- o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli va markaziy qismidir;
- ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantiradi;
- uning sinf va amaliy tajriba shakllari mavjud;
- samaraga erishishda o'qituvchi va o'quvchilarning teng faolligiga tayaniladi.

Dars mashg'ulotiga xos bo'lgan bu xususiyatlar asrlar davomida ta'lim tajribasida shakllanib kelgan va amaliy sinovlardan o'tgan.

Sharq va G'arb pedagogikasi tarixida dars mashg'ulotining o'ziga xos tarixi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Misol uchun, Sharq pedagogik merosida dars tizimining kelib chiqishi ota va farzandlarning o'zaro munosabatlari shakliga bog'lanadi. Unga

ko'ra, farzandlar turmush va hayotga oid bilmaganlarini otadan so'rab o'rganishgan. Oiladagi bu jarayon keyinchalik ta'lim tizimida Ustoz va shogirdlarning munosabatlariga o'tgan. Buning natijasida Ustoz ta'lim beruvchi asosiy shaxsga va shogird esa ta'lim oluvchi individga aylangan. Shu tariqa dars jarayonining shakli, muddati va tizimlari tarkib topgan.

shuningdek, Sharq pedagogik manbalarida dars atamasining quyidagi ma'nosi ta'kidlanadi:

D – davomat, ya'ni ta'lim oluvchilarning ishtiroki;

A – aziyat, ya'ni ta'limni amalga oshirish jarayonida chekiladigan zahmatlar;

R – riyozat, ya'ni dars jarayonini hisob-kitob qilib borish;

S – sa'y, ya'ni ta'lim oluvchilarni rejali harakatlantirish.

E'tibor berilsa, dars tushunchasi aniq reja, tizim va kutiladigan samaralarni anglatuvchi ma'noga tayanadi. Bunda dars jarayonining asrlar davomida aqliy, ruhiy va ma'naviy mehnatdan iborat bo'lib kelganligiga duch kelamiz.

Dars - boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning shakl va usullari ko'p. Ayni paytda, asrlar davomida o'qitishning *sinf-dars* usuli qulayligi, maqbulligi va qiziqarliligi bilan asosiy shakl bo'lib kelmoqda.

Boshlang'ich ta'lim didaktikasida dars asosiy shakl sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

a) dars o'qitishning majmui (ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash) vazifasini bajaradi;

b) dars quyidagi qat'iy didaktik tizimga ega:

- darsning boshlanishi va topshirig'ining aniq qo'yilishi;

- uyga topshiriq orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmasini kuchaytirish;

- yangi o'quv materiallarini tushuntirish;

- takrorlash orqali o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash;

- o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash;

- har bir darsning yakunlash xususiyatga egaligi;

- albatta uy vazifasining berilishi.

v) darsning mazmuni har bir o'quv faniga qo'yiladigan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va dasturlariga mos bo'ladi;

¹ Педагогика фанидан изоҳли луғат. Ж.Ҳасанбоев ва бошқ. – Т.,2009. 112-бет.

g) har bir dars mashg'ulotlar tizimining uzviy qismi hisoblanadi;
d) har bir darsda o'qituvchining ixtiyoriy metodlar va vositalar tanlash imkoni mavjud.

Dars mana shu xususiyatlari bilan o'qitishning muhim shakli hisoblanadi va u hozirgi zamon dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'limida keng qo'llanilib kelinmoqda. Chunki dars jarayonida o'ziga xos mantiqiy izchillik va intizom mavjud.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida darsning bir necha *tiplari* farqlanadi. Bunday tiplarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Kombinatsiyali dars*. Bunday dars tipi keng ommalashgan bo'lib, u quyidagi qismlarga bo'linadi: tashkiliy qism (1-2 daqiqa); uy vazifasining bajarilganligini tekshirish (10-12 daqiqa); yangi mavzuni o'zlashtirish (15-20 daqiqa); o'zlashtirganlarini mustahkamlash (10-15 daqiqa); darsni yakunlash (5 daqiqa); uy vazifasi berish (2-3 daqiqa).

2. *Yangi o'quv materialini o'zlashtirish darsi*. Mazkur dars tipida yangi o'quv materiallari o'zlashtiriladi va uning doirasida nostandart darslar ham tashkil qilinishi mumkin. Masalan muammoli dars, tadqiqotli dars, anjumanli dars kabilar shular jumlasidandir. Bunday nostandart darslar yangi o'quv materiallarini kutilgan darajada o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish imkonini beradi.

3. *Mustahkamlash darsi*. Ushbu dars tipida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunda amaliy seminarlar, ekskursiyalar, mustaqil topshiriqlarni bajarish va laboratoriya ishlari kabi shakllardan foydalanish mumkin. Bu dars tipi ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maqbul shakllardan hisoblanadi.

4. *Umumlashtirish darsi*. Bu dars tipida o'quv fanlarining mavzulari muayyan bloklar asosida umumlashtiriladi va yakun yasaladi. Bu dars tipi orqali o'quvchilarga yangi ma'lumotlar, topshiriqlar va mashqlar taqdim etiladi. Buning natijasida o'quvchilarda ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, umumlashtiruvchi dars tipida boshlang'ich ta'limda oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. *Nazorat darsi*. Mazkur dars tipida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikmasi va malakasi korreksiya qilinadi, uning natijasida o'quvchilarning o'zlashtirishi nazoratga olinadi. Bu dars

tipi har bir o'quvchini nazoratga olish imkonini beradi, u yozma yoki og'zaki so'rovnoma, diktant, bayon va mustaqil ish yozdirish shakllarida tashkil etiladi. Bu dars tipi har bir o'quv fanining biror mavzusi yoki bo'limi yakunlangandan keyin o'tkaziladi. Ushbu dars tipining natijalariga ko'ra, keyingi darslar tiplari tanlanadi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda eng mashhur ana shu dars tiplaridan foydalanish tavsiya etiladi. shuningdek, boshlang'ich ta'limda qo'llanishi mumkin bo'lgan quyidagi ommaviy dars tiplari ham mavjudligini eslatib o'tish joiz:

- musobaqa darsi;
- maslahat darsi;
- o'zaro hamkorlik darsi;
- o'quv fanlari aro o'yin darsi va h.k.

Ushbu nostandart dars tiplaridan imkoniyatlarga qarab foydalanish ham tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limda darsning zamonaviy turlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida darsning bir necha zamonaviy turlari shakllantirilgan. Lekin ularning negizida an'anaviy dars tizimi asoslari saqlanib qolgan. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda darsning quyidagi zamonaviy turlari kuzatiladi:

- texnologik dars, bunda kompyuter kabi texnikalarning imkoniyatlaridan foydalanib an'anaviy va noan'anaviy shakllarda dars o'tiladi;

- tajribaviy dars, bunda rivojlangan davlatlar masofadan turib ikkinchi bir davlatning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars o'tkazadi;


- evristik dars, bunda boshlang'ich ta'limning biror o'quv fani bo'yicha yangi bilimlarni tajriba – sinovdan o'tkazish darsi amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda darsning bunday zamonaviy turlari dars tizimini yangilash, uning sifatini kuchaytirish va boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida darsning zamonaviy turlarini shakllantirish va ularni tajriba –sinov ishlaridan o'tkazish jarayoni kechmoqda. Misol uchun, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarga joriy etilgan yangi fan "Tarbiya" o'quv predmetining dars mashg'ulotlari o'quvchilarda fazilatlarini

amaliy shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunda o'quv fanining asoslari bo'yicha qisqacha nazariy tushunchalar beriladi, asosiy e'tibor o'quvchilarni tarbiyalashning amaliy jihatlariga qaratiladi.

Shunday qilib dars – boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida muhim ahamiyatga ega. E'tibor bering (11-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Dars mashg'ulotning xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Dars mashg'ulotining tarixi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Dars – boshlang'ich ta'limning qanday shakli hisoblanadi?
4. Boshlang'ich ta'limda darsning qanday zamonaviy turlarini bilasiz?

Topshiriq: pedagogik amaliyot.

Dars mashg'ulotining xususiyatlarini "Yon daftar"ingizga konspekt qiling.

Dars mashg'ulotining tarixini eslab qoling.

Boshlang'ich ta'limda darsning zamonaviy turlari bo'yicha izlanishlar olib boring.

12-MAVZU: O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRGAN BILIM NATIJALARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH

Reja:

1. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish asoslari
2. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish mexanizmlari
3. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash metodologiyasi.

Tayanch tushunchalar: bilim, o'qitish, ta'lim, o'quvchilar, o'zlashtirish, tekshirish, asos, mexanizm, baholash, daraja, ko'nikma, malaka.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish asoslari. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berish, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va mustaqil fikrlash tarzini tarkib toptirish asosiy vazifalar hisoblanadi. Bunda *bilim* tushunchasi insoniyat erishgan jamiki ilmiy, amaliy va texnologik yutuqlarni o'quvchilarning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari doirasida o'zlashtirishini anglatadi. shuningdek, islom dinida ham bilim masalasi Iymon tushunchasining negizini tashkil qiladi va Qur'oni Karimning ham birinchi oyati "Iqra", ya'ni o'qi, bilim ol va uni tarqatuvchisi bo'l degan mazmunda nozil bo'lgan. Hozirgi zamon pedagog olimlari bu konsepsiyani insonni bilimli qilishning tayanchi sifatida baholashadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirgan bilimlarini baholash va uning asoslarini o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini *tekshirish* deganda ularning tushuncha, bilim va dunyoqarash darajasini aniqlash nazarda tutiladi. Bunday tekshirishning asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'lim davlat standartlari;
- boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan davlat talablari;
- o'quv rejasida belgilangan ko'rsatmalar;

- o'quv fanlari dasturlarining mazmuni.

Mana shu asoslardan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirgan bilim darajasi tekshiriladi va bu tekshirish natijasida yutuqlar belgilanib, kamchiliklar aniqlanadi. Shu sababli choraklik tekshiruvlari hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimida ustuvor yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilim darajasini tekshirishda pedagogik ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan metodologik asoslarga ham tayanilmoqda. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi ikki shaklda tekshiriladi:

- 1) har bir o'quvchining o'zlashtirgan bilim darajasi;
- 2) har bir sinf o'quvchilarining o'zlashtirgan bilim darajasi.

Mazkur tekshirish shakllari hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning aqliy darajasini rivojlantirishga qaratiladi. Shu sababli zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning aqliy koeffisienti ishlab chiqilgan. Bu formula quyidagicha xalqaro miqyosda qabul qilingan.

- a) IQ- yoshga nisbatan aqliy rivojlanish darajasi (ARD);
- b) YoD – yoshga nisbatan aql darajasi (YoDA).

Bu formulaning ko'rinishi quyidagicha:

$$\frac{IQ}{YODA} * 100\% = IQ$$

Mazkur formulaga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi (IQ) ularning yoshiga nisbatan aqliy darajasiga (YoDA) bo'linadi va natija ongli ravishda 100 foizga ko'paytiriladi. Buning natijasida har bir o'quvchining bilim darajasi yoki har bir sinfning aqliy rivojlanish darajasi kelib chiqadi. Bu formula ko'p hollarda ilmiy pedagog ekspertlari yordamida amaliyotda qo'llaniladi va bunda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda uni baholash obyektiv tarzda amalga oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini tekshirishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan asoslarga qat'iy amal qilish lozim. Bunda asosiy maqsad o'quvchilarning bilish yoki bilmasligini aniqlash emas, aksincha, ularning bilish darajasini rivojlantirishdir. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini tekshirish asoslari va

uning ko'rsatib o'tilgan formulasini chuqur o'zlashtirishi lozim.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish mexanizmlari. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishga doir bir necha mexanizmlar amal qilmoqda. Avvalo, bu mexanizm 5 balli tizimda baholash asosiy tayanch hisoblanadi. shuningdek, ushbu mexanizmlarning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) testlar asosida;
- 2) diktant asosida;
- 3) bayon asosida;
- 4) insho asosida;
- 5) mustaqil ish bajarish asosida.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilimlarni tekshirishning bu mexanizmlari ommaviy va qulay hisoblanadi. Ayni paytda, dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimi *intellekt testlar* asosida baholanayotganligini eslatib o'tish joiz.

“Test” tushunchasi inglizcha bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlar tizimini va aqliy rivojlanish darajasini tekshirish ma'nosini anglatadi. Shu jihatdan keyingi paytlarda pedagog va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan Intellekt testdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini tekshirish mexanizmi sifatida foydalanilmoqda. Bunday test quyidagi xususiyatlarga ega:

- har bir mavzu bo'yicha ko'p variantli savollar tuziladi;
- har bir savolga ko'p variantli javoblar taqdim etiladi;
- javoblar variantidan bittasi to'g'ri hisoblanadi;
- ba'zi savollarning javoblari ochiq qoldiriladi va unda o'quvchilar yozgan javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi;
- savollar darslikda berilgan o'quv materiallariga asoslanishi shart.

Ushbu test vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirgan bilim darajasi aniqlanadi va ularning aqliy rivojlanishi baholanadi. Shu sababli mazkur testning uch turi mavjudligini eslatib o'tish joiz:

- 1) harakatli test (suhbat);
- 2) yozma test;
- 3) og'zaki test.

Intellekt testning mazkur turlaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ixtiyoriy yondashuviga qoldiriladi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda *noan'anaviy* mexanizmlarga ham amal qilinmoqda. Bu mexanizm quyidagilardan iborat:

a) bir o'quv fanidan o'quvchilarning bilim darajasini o'qituvchilar guruh bo'lib tekshirishi;

b) o'quvchilarning bilim darajasini tekshirishda ota-onalar yoki mutaxassislarning ishtirok etishi;

v) o'qituvchilarning o'zga sinf o'quvchilari bilim darajasini tekshirishi;

g) o'quvchilarning bilim darajasini tekshirishda ochiq imtihonlar shaklidan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini tekshirish mexanizmlari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bunda asosiy maqsad tekshirishni aniq va xolis tekshirishni amalga oshirishdan iborat.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash metodologiyasi. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash metodologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu metodologiyaning asolarini quyidagilar tashkil etadi:

- o'quv fanlarida berilgan mavzular matnlarining va ma'lumotlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasi;

- o'quvchilarning bilish darajasi;

- o'quvchilar tafakkurining darajasi;

- o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabati.

Mazkur metodologiyaga asosan hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish darajasi baholanib kelmoqda. Ayni paytda, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim darajasini baholashda turli metodologik asoslardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday metodologiyalardan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:


a) o'quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish va ular yaratgan ishlanmalarning ilmiyligini baholash;

b) o'quv fanlarining muayyan mavzulari bo'yicha o'quvchilar seminarlari o'tkazish;

v) o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va intilishiga qarab baholash;

g) tashqi taklif etilgan o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning bilim darajasi baholanishi.

Shunday qilib o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim natijalarini tekshirish va baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega. E'tibor bering (12-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish asoslari nimalardan iborat?
2. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish mexanizmlarini nimalar tashkil etadi?
3. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash metodologiyasi qanday bo'ladi?
4. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishning asosiy mexanizmlarini bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur fransuz faylasuf-pedagogi Jan Jak Russoning (1712-1778) quyidagi pedagogik qarashlarini o'zlashtiring.

Russoning fikriga ko'ra, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari rivolantirilishi kerak. Buning uchun ta'lim tizimi o'quvchilarning xarakterini tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Pedagogning fikricha o'quvchilarning bilim darajasini tekshirishda ularning mustaqil fikrlashi, har bir masalaga qiziqish bilan munosabatda bo'lishi va o'rgatilganlarning o'zlashtirishiga qarash maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-MODUL.BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA NAZARIYASI

13-MAVZU: TARBIYA JARAYONINING MAZMUNI, TAMOYILLARI VA METODLARI

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mazmuni
2. Tarbiya jarayoni tamoyillari
3. Tarbiya jarayoni metodlari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tarbiya, jarayon, mazmun, tamoyil, metod, yondashuv, tarbiyaviylik, bilim, ko'nikma, tajriba.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Shaxsga ta'lim berishdan asosiy maqsad uni o'qitish va tarbiyalashdir. Shu jihatdan tarbiya masalasi pedagogik fanlarning eng muhim qismlaridan hisoblanadi.

Tarbiya jarayonining *mazmuni* inson insonni ijtimoiy shaxs sifatida shakllantirish bilan belgilanadi. Mazkur masala asrlar davomida Pedagogika fanining obyekt sifatida sayqallanib, ilmiy-metodik va amaliy tajribadan o'tgan. Shu ma'noda shaxsni ijtimoiylashtirish asosida uning tarbiyasi amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonining mazmuni ikki xususiyatga ega bo'ladi:

1) tarbiya asoslarini tashkil etadigan ijtimoiy kontekst umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi;

2) har bir jamiyatning ehtiyojlari tarbiya mazmunida aks etadi.

Bunday xususiyat tarbiyaning asrlar davomida har bir shaxs, millat, xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonning hozirgi sharoitida tarbiya jarayonini uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida amalga oshirish belgilangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini

tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaga asosan Pedagogika fanida shaxsni aqliy, jismoniy, ruhiy-ma'naviy, mehnat va estetik tarbiyasini *Ma'naviy tarbiya* tushunchasi asosida amalga oshirish belgilandi. Bu hodisa ta'lim jarayonida uzluksiz tarzda amalga oshirilib, Pedagogika fanida yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu jihatdan O'zbekiston ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan tarbiya mazmunining asosiy xususiyatlarini quyidagilar tashkil etadi:

birinchi bosqich - oilalarda amalga oshiriladi va unda quyidagi ikki davrga e'tibor qaratiladi:

1) homilalik davri (bunda homilali ayollar ma'naviy jihatdan muhofaza qilinadi, chunki bolaning ma'naviy olami homila davrida rivojlanishi ma'lum);

2) bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr (bunda 3 yoshgacha bola turli ruhiy zo'riqishlardan, tahdidlardan, illatlardan himoya etiladi);

ikkinchi bosqich – maktabgacha bo'lgan ta'lim (3-6,5 yoshgacha bo'lgan) davr (bunda mazkur yoshdagi bolalarda dastlabki ma'naviy tushunchalar, axloqiy fazilatlar, o'zgalarga munosabatlar negizlari shakllantiriladi, bir so'z bilan aytganda bola ma'naviy tarbiyaga tayyorlanadi);

uchinchi bosqich – umumiy o'rta ta'lim davri, bu bosqich ham quyidagi ikki davrga asosan amalga oshiriladi:

1) boshlang'ich sinf davri (7-11 yoshlilarning ma'naviy tarbiyasi) – (bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy olami, ruhiy kechinmalari va axloqiy sifatlari shakllantiriladi);

2) o'rta va yuqori sinflar davri (7-17 yoshlilarning ma'naviy tarbiyasi) – (bunda mazkur yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va axloqiy xatti-harakatlari to'liq shakllantiriladi);

to'rtinchi bosqich – o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar orasida amalga oshiriladi, mazkur bosqich ham quyidagi ikki davrga bo'linadi:

1) o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan hamda ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar (17-30 yoshlilar) ma'naviy tarbiyasi (bunda ushbu toifadagi va yoshdagi shaxslarning jamoatchilik asosida hamda turli tadbirlar

vositasida ma'naviy dunyoqarashi, ongi va fazilatlarini korreksiya qilinib boriladi);

2) o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi – talabalari (15-24 yoshlilarning) ma'naviy tarbiyasi (bunda o'quvchilar va talabalarining ma'naviy ongi, qarashlari, munosabatlari va xatti-harakatlari maqsadli takomillashtiriladi).

E'tibor berilsa, O'zbekistonda amalga kiritilgan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi shaxsni ta'lim va tadbirlar vositasida homilalik davridan 30 yoshgacha *har tomonlama* tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu sababli mazkur yondashuv hozirgi zamon jamiyatimiz tarbiya jarayoni mazmunining negizini tashkil etadi.

Tarbiya jarayoni tamoyillari. Pedagogik tarbiya jarayonida o'ziga xos tamoyillar ishlab chiqilgan va ular insoniyatning ijtimoiy tajribasidan o'tganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bunda tamoyillar deganda tarbiyalanuvchini yo'naltiruvchi asosiy maqsad-muddaolar va yo'naltirishlar nazarda tutiladi. Pedagog olimlar tarbiya jarayonida quyidagi asosiy tamoyillarga qat'iy amal qilishni alohida ta'kidlashadi:

1. *Idealizm.* Bu tamoyillga ko'ra, ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchi shaxs eng oliy, ezgu va foydali ideal maqsadlar hamda g'oyalar asosida tarbiyalanishi kerak. Bu borada G'arb faylasuflari Aflotun, Aristotel, Sitseron va Sharq faylasuflaridan Abu Nasr Farobiy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy kabilar ideal g'oyalar va maqsadlarni insonni to'g'ri tarbiyalovchi asoslar deb bilishgan. Misol uchun, Aflotunning g'oyasiga ko'ra har bir shaxs Ezgulik idealiga asosan tarbiyalanishi kerak yoki Abu Nasr Farobiyning qarashlariga ko'ra har bir shaxs Fazilatli idealiga binoan tarbiyalanishi lozim. Shu jihatdan pedagogik tarbiya jarayonida shaxsni tarbiyalashning ideal g'oyalari sifatida Ezgulik, Insonparvarlik va Komillik asrlar davomida yashovchan bo'lib kelmoqda, ayni paytda, Yovuzlik, Xudbinlik va Nomukammallik ideallikning ziddi sifatida qabul qilingan.

2. *Realizm.* Tarbiya jarayonining mazkur tamoyili asosiy negizlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, tarbiyalanuvchi shaxsga haqiqiy bilimlar va tajribalar uzatilishi, uning ongi va axloqida amaliy hayot hamda faoliyatida qo'l keluvchi haqiqatlar va qadriyatlar berilishi kerak. E'tibor berilsa, bu borada haqiqiy bilim, tajriba, haqiqat va qadriyat tarbiya jarayonining reallik tamoyili asosini tashkil etadi.

Buning ma'nosi shuki, shaxs tarbiya jarayonida nafaqat ijtimoiy shakllantiriladi, balki u hayot va faoliyatga tayyorlantiriladi.

Hozirgi zamon texnologik rivojlanish jarayonida tarbiyaning reallik tamoyiliga nisbatan shubhalar mavjud, unga ko'ra, faqat realizmga asoslanish inson qalbi va ongini qotiradi, deb hisoblanadi. Shu sababli XXI asr pedagogikasida reallik tamoyili negizlariga ideallik tamoyillarining tushunchalarini singdirish jarayoni kechmoqda. Masalan, realizmda Xudoga bo'lgan ishonch isbotsiz deb qaraladi, idealizmda esa Xudoga bo'lgan ishonch tarbiyaning oliy g'oyasi sifatida qabul qilinadi. Bunday yondashuv natijasida bugungi tarbiya jarayonining reallik tamoyilida ideallik tamoyilining E'tiqod tushunchasi qabul qilingan.

3. *Pragmatizm tamoyili.* Tarbiya jarayonining mazkur tamoyili aniqlik va real imkoniyatlardan kelib chiqishga asoslanadi. Unga ko'ra, tarbiyalanuvchi shaxs bugungi kun va kelajakdagi faoliyatga moslashtirilib voyaga yetkaziladi. Unda tarbiyalanuvchi shaxs hayotiy muammolarning yechimini mustaqil topa oluvchi kishi sifatida voyaga yetkaziladi va u har qanday murakkab vaziyat, holat hamda davrlarga tayyor shaxs sifatida tarbiyalanadi. Mana shu jihati bilan tarbiya jarayonining pragmatizm tamoyili hozirgi zamon pedagogikasida umidbaxsh tamoyillardan hisoblanadi.

Zero tarbiya jarayonining ana shu uch tamoyili asosiy maqsad va vosita hisoblanadi. Ayni paytda, mamlakatimiz Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida (2019 yil 31 dekabr) tarbiya jarayonining *eng muhim* tamoyillari sifatida quyidagilar belgilangan:

- 1) uzluksizlik;
- 2) tadrijiylik;
- 3) ilmiylik;
- 4) ijtimoiylik.

Bunda *uzluksizlik* tamoyili shaxsga 30 yoshga qadar izchil tarbiya berishni, *tadrijiylik* tamoyili tarbiya jarayonida shaxsning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga asoslanishini, *ilmiylik* tamoyili pedagogik tajribaga tayanishni hamda *ijtimoiylik* tamoyili esa shaxsni jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tarbiyalashni anglatadi.

Tarbiya jarayoni metodlari. Tarbiya jarayonida pedagogik tajribadan o'tgan o'ziga xos metodlar qo'llaniladi. Mazkur metodlarning eng asosiylari quyidagilardir:

- 1) ishontirish;
- 2) maslahat;
- 3) da'vat qilish;
- 4) munosabat bildirish.


Tarbiya jarayonining *ishontirish metodi* shaxsni o'zligi, o'zgalarga va atrof-muhitga ishonch bilan qarashni ifodalaydi. Unga ko'ra, shaxs haqiqiy fazilatlar va xatti-harakatlar ko'nikmasi bilan qurollantiriladi. Shu jihatdan tarbiya oluvchi shaxs o'zligi, atrofidagi o'zgalarga va albatta, baxtli bo'lishga ishonch ruhi bilan voyaga yetishi kerak. Bunda tarbiya beruvchi shaxs ishontirish vazifasini bajaradi.

Maslahat metodi tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsga pedagogik, psixologik va sotsiologik yordam berishga asoslanadi. Chunki tarbiya jarayonida shaxs turli murakkab vaziyatlar, holatlar va munosabatlarga duch keladi. Shunda unga tarbiya beruvchi shaxs tomonidan muammoning yechimi va uning eng oqilona yo'li ko'rsatiladi.

Tarbiya jarayonining *da'vat qilish metodi* tarbiya oluvchini ideal g'oyalar, fazilatlar va munosabatlarga undashni ifodalaydi. Hozirgi zamon tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchini ezgulik, insoniylik va axloqiylik kabi ideal maqsad-muddaolarga izchil da'vat qilib borish dolzarb bo'lib turibdi.

Munosabat bildirish metodi tarbiya jarayonida shaxs o'zlashtirayotgan qarashlar, fazilatlar va xatti-harakatlarni kuzatib borishni anglatadi. Bu metodga ko'ra tarbiyalanuvchi shaxs muayyan yoshda o'zining tarbiya ko'rganlik darajasini namoyon qilish kerak. Agar uning tarbiyalanganlik darajasi talabga javob bersa tarbiya jarayoni davom ettiriladi, mabodo qo'yilgan talablarga javob bermasa uni tarbiyalash tayanchlari korreksiyalanadi.

Rossiyalik olim Yu. Babanskiyning tarbiya metodlarini quyidagicha turkumlashtirib berganligi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan:¹(13-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Tarbiya jarayonining mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiya jarayoni tamoyillari nimalardan iborat?
3. Tarbiya jarayoni metodlarining asosiy larini nimalar tashkil qiladi.
4. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" da o'z ifodasini topgan tarbiya jarayoni tamoyillarini bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur shvetsiya pedagogi Iogann Genrix Pestalot-sining (1746-1827) quyidagi pedagogik qarashlarini o'zlashtiring.

Pestalotstsi birinchi bo'lib hamma uchun boshlang'ich ta'limning shart ekanligini ilmiy asoslab bergan. Aynan u boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqi, hisoblash sabog'i va o'lchash ko'nikmalarini shakllantirish kerakligini pedagogik jihatdan asoslab bergan.

Pestalotstsining yondashuviga ko'ra, o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, oila a'zolarining osudaligi va o'qituvchilarning bolalar-ni sevishiga bog'liq. U pedagoglarni o'qitish va tarbiya jarayonida psixologik jihatlarga qat'iy e'tibor berishga chaqirgan.

¹ Умарова М. Теория и история педагогики. –Т.: "Чўлпон". 2018.-с 202

14-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA JARAYON SIFATIDA

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya vositalari
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya turlari

Tayanch tushunchalar: ta'lim, tarbiya, boshlang'ich, jarayon, mazmun, vosita, tur, bilim, ko'nikma, yondashuv, malaka, tajriba, nazariya, amaliyot.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya jarayoni uzluksiz va uzviy bo'ladi. Bunda *jarayon* deganda mudom amalga oshiriladigan pedagogik tadbirlar nazarda tutiladi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni eng muhim va ko'p omilli hodisa hisoblanadi. Chunki 7-11 yoshli o'quvchilar shaxsini har tomonlama tarbiyalash Pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoniga quyidagilar birlamchi ta'sir ko'rsatadi:

- a) atrof-muhit ta'siri;
- b) hayotiy ehtiyojlar ta'siri;
- v) jamiyatning muhim qadriyatlari ta'siri;
- g) oila ta'siri;
- d) jamoatchilik ta'siri;
- e) bolalar guruhlarining ta'siri;
- yo) san'at ta'siri;
- j) ommaviy axborot vositalarining ta'siri.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayoniga bunday keng ko'lamli ta'sirlar ijobiy va salbiy xarakterga ega bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylari mazkur omillarning ijobiy ta'sirini nazorat qilib borishi va ularning salbiy ta'sirini yumshatishi taqozo etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilariga *atrof-muhit* ta'siri aslida ijobiy xususiyatga

ega bo'ladi, biroq o'quvchilarning atrof-muhitni noto'g'ri qabul qilishi natijasida uning ta'siri salbiylik tus oladi. Xuddi shuningdek, yuqorida ta'kidlangan ta'sir omillari nazorat qilib borilishi kerak. Masalan, O'zbekiston sharoitida tarbiya jarayoniga *oilaning* ta'siri ustuvor darajada ko'zga tashlanadi. Keyingi rivojlanish jarayonida va xususiyl mulkchilikning tarkib topish natijasida oilaning boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasiga bo'lgan ta'sirida salbiy xususiyatlar bo'rtib bormoqda. Bolaning mulkga qiziqishi, ota-onasining boyligi bilan g'ururlanishi, o'zini o'rtoqlari orasida kibarli tutishi shular jumlasidandir. Shu sababli biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayonida oilaning ta'sirini korreksiyalab borish tarafdorimiz. Bunda namunali oilalar ta'siri ijobiy va notinch oilalar ta'siri salbiy xususiyatlar sifatida qabul qilinishi muhimdir.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi jarayonida o'qituvchilar va maktab jamoasining ta'siri ustuvor darajada qabul qilinishi kerak. Chunki bu guruh tarbiyaga bo'lgan jamiyatning talab va ehtiyojlarini amalga oshirida. Shu ma'noda *boshlang'ich ta'limda tarbiya mazmuni* 7-11 yoshli shaxslarni maqsadli ijtimoiy voyaga yetkazishni ifodalaydi. Bunda har qanday ta'sir tarbiyaning maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni mazmuni 7-11 yoshli shaxslarni jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik jihatdan sog'lom voyaga yetkazish bilan belgilanadi. Shu sababli bu jarayonning maqsadi shakllanib kelayotgan shaxsni ijtimoiy o'zgartirish va turli tarbiyaviy vositalarni qo'llashdan iborat. Bunda ideal g'oyalar, oliy qadriyatlar va ezgu maqsad-muddaolarga asoslaniladi. Bu masala ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari tarbiyasida muhimdir. shunisi aniqki, har bir ota-ona yoki jamiyat har bir farzandning tarbiyalangan shaxs sifatida voyaga yetishini orzu qiladi. Biroq, tarbiya vositalari, tadbirlari va omillarining noto'g'ri qo'llanishi natijasida har bir bola kutilgan darajadagi shaxs sifatida voyaga yetmaydi. Shu jihatdan biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonining kutilgan natijasiga erishish yo'lini ikki hodisada ko'ramiz: *birinchidan*, 7-11 yoshli o'quvchilar tarbiyasida maktab jamoasining huquq va majburiyatlari ustuvor bo'lishi kerak; *ikkinchidan*, demokratik jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuz foiz tarbiyali shaxslar sifatida voyaga yetkazishning imkoni yo'q, bunday

sharoitda 80-85 foiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kutilgan darajada tarbiyalanganligiga erishish yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni "tirik" hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya vositalari. Pedagogik tajribada o'quvchilarni aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash qat'iy qabul qilingan. Bugungi kunda bu tarbiya jarayoniga ekologik tarbiya, san'at tarbiyasi va diniy tarbiya kabilar ham qo'shilmogda. Tarbiya ko'lamining keng bo'lishidan qat'iy nazar asosiy masala tarbiya vositalarining maqbulligi va ularni to'g'ri qo'llashdadir. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya vositalarining ko'pligi e'tiborni tortadi. Tarbiya vositalarining ko'pligi bizning yondashuvimizga ko'ra, tarbiyaviy maqsaddan chalg'itadi va tarbiyaning samarasini susaytiradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida eng maqbul va samarali tarbiya vositalarini tanlash kerak. Bu o'rinda bunday tarbiya vositalarining eng maqbullarini eslatib o'tamiz:

- a) o'quv fanlarini o'qitish vositasida tarbiyalash;
- b) "Tarbiya" fani vositasida o'quvchilarni maqsadli va muddaoli tarbiyalash;
- v) ma'naviy tadbirlar vositasi tarbiyalash;
- g) san'at va adabiyot vositasida tarbiyalash;
- d) o'tmish va mutafakkirlarni ibratli qilib ko'rsatish vositasida tarbiyalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda bu tarbiyaviy vositalarning o'rni va ahamiyati kattadir.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, yangi O'zbekiston sharoitida tarbiya jarayonini "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ga asosan amalga oshirish belgilangan. Shu ma'noda mazkur Konsepsiyaga asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida quyidagi fazilatlariga asoslanish vazifasi qo'yilgan:

- a) o'quvchilarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish;
- b) o'quvchilarda halol tadbirkorlik ruhini tarkib toptirish;
- v) o'quvchilarda irodalik fazilatini rivojlantirish;
- g) o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- d) o'quvchilarda mehr-oqibatlik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- e) o'quvchilarda mas'uliyatlikni shakllantirish;

- yo) o'quvchilarda tolerantlik ko'nikmasini tarkib toptirish;
- j) o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirish;
- z) o'quvchilarni innovatsion fikrlashga o'rgatish;
- i) o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida 10 sifat, fazilat va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Bularning barchasi tarbiya jarayonida real sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib tarbiya vositalarini qo'llashni taqozo etiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarini maqsadli tarbiyalashda *madaniy sayohat* vositasining ijobiy ta'siri yaqqol ko'zga tashlanmogda. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari eng qadimiy obidalarimiz, shaharlarimiz va urf-odatlarimiz bilan ekskursiya tarzida tanishtirilmogda. Bunday tarbiya vositasi natijasida o'quvchilarda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy g'urur, sadoqat kabi ko'nikmalarining kutilgan darajada shakllanishi ko'zga tashlanmogda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari qulay, oson va keng imkoniyatlarga egalik xususiyatlariga boy bo'lishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya turlari. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiladigan tarbiya turlarining ko'pligi sizga ma'lum. Ayni paytda, yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limda quyidagi tarbiya turlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi:

1. Fuqarolik tarbiyasi. Bu tarbiyaga ko'ra, 7-11 yoshli o'quvchilar o'z oilasiga, Vataniga, milliy qadriyatlariga, xalqiga va umuminsoniyatga sadoqat ruhida tarbiyalanishi kerak. Fuqarolik tarbiyasida O'zbekiston sharoitida shaxsning konstitutsion va xususiy huquqlariga uyg'un munosabatda bo'linadi. Bo'lajak fuqaro sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari fuqarolik huquqlari, vazifalari va majburiyatlari to'g'risida tushunchasiga ega bo'lishi kerak.


2. Iqtisodiy tarbiya. Mazkur tarbiyaga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslar ongida halol mehnatsevarlik tuyg'usi shakllantirilishi va aynan mana shu ko'nikma asosida oila, jamiyat, davlat hamda mamlakatni boy va farovon qilish mumkinligi shakllantirilishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida tejamkorlik, o'z mehnati evasiga biror narsaga erishish, sabr-toqat kabi sifatning shakllantirilishi va ularda isrofgarchilik, dangasalik, tayyorga ayyorlik singari illatlar-

ning mavjud bo'lmisligiga e'tibor berish lozim bo'ladi. Bunda mamlakatimizda yangi hisoblanmish "Tarbiya" fani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

3. *Ekologik tarbiya.* Bu tarbiya turiga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslarda tabiatsevarlik fazilatini shakllantirish va ularda tabiat hodisalariga mehr-oqibatlik bilan munosabatda bo'lish tarkib toptirilishi lozim. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonot va o'simlik dunyosi bilan keng tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. *Huquqiy tarbiya.* Mazkur tarbiya turiga ko'ra, 7-11 yoshli shaxslarda o'z huquqlari, burchlari va majburiyatlari to'g'risida tushuncha beriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari "Men"lik tuyg'usiga tayanib o'z huquqlarini juda erta anglashadi, biroq mazkur huquqning uzviy qismi bo'lgan burch va majburiyatni anglashi qiyin kechadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchilarga shaxsning huquq, burch va majburiyatlarini uyg'un o'rgatishdan iborat.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda tarbiya muhim amaliy jarayon hisoblanadi. Diqqat qiling (14-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya vositalarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya turlarining eng muhimlari qaysilar?
4. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya turlarini o'zlashtiring.

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur germaniyalik pedagog Iogann Bergard Bazedovning (1723-1790) quyidagi filantropiya g'oyasini o'zlashtiring.

Bazedovning fikricha, ta'limning asosiy maqsadi yoshlarni amaliy faoliyatga tayyorlashdir. Bu filantropiya, ya'ni insonsevarlik deb ataladi.

Pedagogning yondashuviga binoan insonsevarlik bolaning psixologiyasini o'rganish va uning tug'ma layoqatlarini ro'yobga chiqarish asosida amalga oshadi.

Boshlang'ich ta'limning negizi sifatida Bazedov mashqni ko'radi. Unga ko'ra, o'quvchilar har bir tushunchani mashq vositasida o'zlashtirishi kerak.

15-MAVZU: BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MILLIY TARBIYA ASOSLARI

Reja:

1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati
2. Boshlang‘ich ta‘limda milliy tarbiya asoslari
3. Boshlang‘ich ta‘limda milliy tarbiyaning samaradorligi

Tayanch tushunchalar: tarbiya, milliylik, o‘quvchi, shaxs, g‘oya, fazilat, ong, qalb, axloq, dunyoqarash, faollik, jarayon, boshlang‘ich, ta‘lim, asos.

Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Boshlang‘ich ta‘lim tajribasida tarbiyaning bir necha turlari amal qilib kelmoqda. Ana Shunday tarbiya turlaridan biri milliy tarbiyadir.¹

Milliy tarbiya – bu yosh avlodni muayyan millatning mentaliteti, turmush tarzi va hayotiy tajribasidan o‘tgan g‘oyalarga asosan voyaga yetkazish jarayonidir. Bunda muayyan millatning hayoti davomida amal qilib kelinayotgan milliy qadriyatlar tizimiga asoslaniladi. Milliy tarbiyaning negizini milliy g‘oya tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy entsiklopediyasida ta‘kidlanganidek, *milliy g‘oya* – bu biror millat hayotiga mazmun baxsh etadigan va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir; u millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalaydi (5-jild, 666-bet). Shu jihatdan o‘zbek millati o‘zining asrlar davomida shakllangan milliy g‘oyasi va unga tayangan milliy tarbiya tajribasiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil yanvar oyida mamlakatimizning quyidagi g‘oyalarga asoslangan *yangi* milliy g‘oyasini e‘lon qildi:

- 1) insonparvarlik;
- 2) ezgulik;

3) bunyodkorlik.¹

Bu mutlaqo yangi asosdagi milliy g‘oya bo‘lib, uning ma‘nosini quyidagilar tashkil etadi:

Insonparvarlik – insonni qadrlash, uning sha‘ni, g‘ururi va huquqlarini ro‘yobga chiqarish, insonga munosib yashash turmush sharoiti yaratib berish va davlat hamda jamiyatning faoliyatini inson omili asosiga qurish;

Ezgulik – insonda va jamiyatda eng yaxshi hamda ideal g‘oyalarni tarkib toptirish, inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, “Avesto”da ta‘kidlanganidek inson va jamiyatda ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amalni tarkib toptirish;

Bunyodkorlik – inson va jamiyatda bunyodkorlik hissi hamda harakatini paydo qilish, davlatning siyosatida bunyodkorlikga olib boruvchi adolga tayanish, erkin va farovon hayot barpo etish.

E‘tibor berilsa, O‘zbekistonning yangi milliy g‘oyasida milliy va umuminsoniy g‘oyalar hamda qadriyatlar uyg‘un o‘z ifodasini topgan. Chunki dunyodagi har bir xalq va mamlakat insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik g‘oyalarini birlamchi biladi.

Mamlakatimizning yangi milliy g‘oyasi quyidagi *bosh g‘oya* asosida birlashadi: “Milliy tiklanishdan – ilmiy yuksalish sari”. Bu bosh g‘oyaning mazmuni xalq hayotini, inson faoliyatini va davlat siyosatini milliy manfaatlar asosida yuksaltirishdan iborat.

Shu tariqa hozirgi zamon O‘zbekiston ta‘lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati yangi milliy g‘oyaga asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlariga asoslangan quyidagi omillarga tayanadi:

- tarbiyaning maqbul va samarali metodlariga;
- tarbiyaning tajribadan o‘tgan va zamonaviy texnologiyalariga;
- tarbiyaning individual uslublariga.

Bunday yondashuv milliy tarbiyaning boshqa tarbiya turlaridan farqlantirib turadi. shuni ta‘kidlash lozimki, milliy tarbiyada quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- imkon qadar pedagogik jazo turlaridan chekinish;

¹ Qarang: Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: “Маънавият”. 2006.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Т.: “Tasvir”. 2021.

- tarbiyalanganlik darajasini rag'batlantirish;
- tarbiya jarayonini jamoaviy amalga oshirish;
- tarbiyaga oid eng so'nggi yutuqlarga tayanish;

Bu tamoyillar milliy tarbiyani kutilgan darajada amalga oshirish imkonini beradi. Bularning barchasi milliy tarbiyaning o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya asoslari. Boshlang'ich ta'limdagi milliy tarbiya jarayoni umumiy milliy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga (7-11 yoshli shaxslarga) dastlabki bosqichda milliy tarbiya berish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy ruhi, milliy ongi va milliy axloqini milliy g'oyaning Insonparvarlik, Ezgulik hamda Bunyodkorlik g'oyalari asosida shakllantirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlabki bosqichda milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini keyingi bosqichda amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoniga tayyorlash.

Mazkur xususiyatlar boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning asoslari negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" kitobida milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiyaning quyidagi asoslarini ta'kidlab ko'rsatadi:

- 1) fikr tarbiyasi;
- 2) milliy qadriyatlar tarbiyasi;
- 3) umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi.

Bu metodologiya boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirish asoslarini tashkil etadi. Unga ko'ra, milliy tarbiya quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, bunda milliy g'oyamizning Ezgulik g'oyasi va uning ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu amal tamoyillariga asoslaniladi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish, unda milliy g'oyamizning Insonparvarlik g'oyasi

va uning insonni qadrlash, insonni tushunish hamda insonga yordam berish tamoyillariga tayaniladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida rivojlantirish, bunda milliy g'oyamizning Bunyodkorlik g'oyasi va uning mehnatsevarlik, tashabbuskorlik hamda bag'rikenglik tamoyillariga suyaniladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning o'ziga xos asoslari mavjud.

Milliy g'oyaga asoslangan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish bir necha muhitlarga tayanadi. Bunday muhitning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) mikro muhit (ta'lim maskani va oila);
- 2) mezo muhit (turli to'garaklar va mahalla);
- 3) makro muhit (o'quvchilarning yirik guruhlari va jamoatchilik joylari).

Bu muhitlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashda muhim o'rni bor. Jumladan, mikro muhitda milliy tarbiya jarayoni nazariy – amaliy jihatdan amalga oshiriladi; mezo muhitda mazkur toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash ijtimoiy va yo'naltirish jihatidan amalga oshiriladi; makro muhitda ushbu toifa o'quvchilarini milliy tarbiyalash odatlantirish va ko'niktirish jihatdan amalga oshiriladi. Shu sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashda mazkur muhitlarning o'rni beqiyosdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida milliy tarbiyalashda vositalar muhim o'rin tutadi. Bunday vositalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning ahamiyatini tushuntirish;
 - ezgu axloq qoidalari va fazilatlariga ko'niktirish;
 - ijtimoiy faollik va amaliy natijadorlikka yo'naltirish.
- Mazkur vositalardan oqilona foydalanish taqoza etiladi.

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi. Boshlang'ich ta'limda milliy g'oyaga asoslangan milliy tarbiya samaradorligiga erishish muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagilar milliy tarbiyani amalga oshiruvchi mas'ullar sifatida belgilanadi.

- 1) Sinf rahbari: milliy tarbiyani tashkil etish, uning uchun shart-sharoitlar yaratish va milliy tarbiya jarayonini nazorat qilib boruvchi mas'ul;

2) "Tarbiya" fani o'qituvchisi: o'quvchilarni milliy tarbiyalash, ularda milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini tarkib toptirish, o'quvchilarni milliy ruhda voyaga yetkazish uchun mas'ul;

3) O'qituvchilar guruhi: o'z fanlarining asoslarini milliy g'oya asosida tushuntirish, o'quvchilarni milliy tarbiyalashda yordam berish va o'quvchilar bilan individual ishlash uchun mas'ul;

4) Maktab psixologi: o'quvchilarda milliy ruhni shakllantirish, ularning ongida milliy g'oyaning tarkib toprishi va o'quvchilarda milliy fazilatlarining shakllanib borishini kuzatib borish uchun mas'ul;

5) Maktab jamoasi: o'quvchilarni milliy tarbiyalash sharoitlarini yaratish, milliy tarbiyaga oid muammolarni jamoaviy hal qilib borish va milliy tarbiya samarasini baholovchi mas'ul.

Mazkur mas'ullar tizimi boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi mas'ullardir.

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya samaradorligi quyidagi indikadorlar asosida baholanadi:

- o'quvchilar shaxsining insoniy talablar asosida shakllanayotganligi;

- o'quvchilar guruhida o'zaro ahillik va totuvlikning mavjudligi;

- tarbiyasi og'ir o'quvchilar miqdorining kamligi;


- o'quvchilararo pedagogik konfliktlarning pastligi;

- o'quvchilarning ijtimoiyligi.

Bu indikadorlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyalanganlik darajasi choraklik, yillik va yakuniy bosqichlarda baholanib boradi. Uning nazorati Sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi masalasi metodologik jihatdan to'liq ishlab chiqilgan emas. Shu sababli bu borada fundamental, nazariy, amaliy va innovatsion tatqiqotlar majmuini amalga oshirish taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. E'tibor bering (15-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati deganda nimalar tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiya asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligi qanday indikadorlar asosida baholanadi?
4. Milliy tarbiyaning samaradorligini aniqlash va baholash qanday mas'ullar tomonidan amalga oshiriladi.

Topshiriq: pedagogik amaliyot.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir" (Toshkent, 2021) kitobini o'qib chiqing va mazmunini o'zlashtiring.

O'zbekistonning yangi milliy g'oyasini o'rganing va yod oling.

Yangi milliy g'oya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalash asoslarini o'zlashtiring.

Boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyaning samaradorligini aniqlash mas'ullari va uning indikatorlarini eslab qoling.

16-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINI INSONPARVARLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish zaruriyati
2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tarbiya, jarayon, kuchaytirish, zaruriyat, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish zaruriyati. Yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini turli yondashuvlar, g'oyalari va konsepsiyalar asosida kuchaytirish vazifasi qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida quyidagi yangi vazifalar belgilangan:

- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini modernizatsiya qilib borish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuksak fazilatlar egalari qilib voyaga yetkazish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari tug'ma qobiliyatlarini rivojlantirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida namunali shaxsiy sifatlarni shakllantirish.

Bu vazifalar ijrosi jarayonida boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirishga erishiladi. Buning tarbiya jarayonini *bir necha darajalarga* bo'lib tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagogik tajribalarda quyidagi tarbiya darajalari amaliy sinovdan o'tgan:

1. *Ijtimoiy daraja.* Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda tarbiya

jarayoni jamiyatimizning ijtimoiy talablari asosida amalga oshirilishi kerak. Buning natijasida tarbiya jarayonini kutilgan darajada kuchaytirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

2. *Institutsional daraja.* Mazkur tarbiya darajasiga ko'ra, tarbiya jarayoni oila, mahalla va ta'lim tizimi vositasida tashkiliy amalga oshirilishi kerak. Bu vositalardan tashqari, bizning jamiyatimizda kattalar ibrat, ajdodlar namunasi va madaniyat taraqqiyoti kabi notuzilmaviy tizimlar ham mavjud. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini kuchaytirishda bunday tizimlarga asoslanish muhim hisoblanadi.

3. *Ijtimoiy-psixologik daraja.* Tarbiya jarayonining bu darajasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik vakillari va maktab jamoasi yordami asosida tashkil etilishi kerak. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan kuchaytirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

4. *Shaxslararo daraja.* Tarbiya jarayonini tashkil etishning bu darajasiga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kuchli hamkorlik hamda bog'lanish bo'lishi kerak, bunda o'qituvchi va o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga daxl qilinmaydi. Mazkur shaxslararo daraja boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini rejali kuchaytirish imkonini beradi.

Zero, boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish uchun ana shunday yondashuvlarga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda (2020 yil 23 sentyabr) mamlakatimizning ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri sifatida "*ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi*" belgilab qo'yilgan (4-modda). Pedagog olimlarning fikricha, insonparvarlik – bu insonning qadri, erkinligi, baxti, teng huquqligi to'g'risidagi va insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish g'amxo'rligidir.¹ E'tibor berilsa, lotinchada *gumanizm* tushunchasi bilan ifodalanuvchi insonparvarlik prinsipi boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

a) o'quvchilarni qadrlash;

- b) o'quvchilarning erkinligini ta'minlash;
- v) o'quvchilarning huquqlarini teng ro'yobga chiqarish;
- g) o'quvchilarni baxtli bo'lishga yo'naltirish;
- d) o'quvchilarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish.

Mazkur prinsipning ushbu ma'no - mazmuni boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish *asoslarini* ifodalaydi. Bu asoslar quyidagilardan iborat:

- tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini qadrlash va erkinlikka o'rgatish;
- tarbiya jarayonida o'quvchilarda o'z shaxsiy huquqlarini o'z g'alar huquqlariga uyg'unlashtirishga ko'niktirish;
- o'quvchilarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish bilan ularni baxtli bo'lishga yo'naltirish.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish o'quvchi shaxsini ilk rejaga qo'yishga asoslanadi. Bu borada boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida muhim qarashlar mavjud. Misol uchun, qadimgi mutafakkirlardan *Demokrit* Shunday deydi: "Yaxshi odam bo'lish uchun mashqlarga va inson tabiatiga e'tibor berish kerak, shu jihatdan tarbiya insonni qayta paydo qiladi". *Demokrit* har bir o'quvchining yaxshi inson bo'lishini alohida ta'kidlaydi va bu vazifani tarbiya amalga oshiradi. *Aristotel* esa deydi: "Tarbiyachilar ota-onalarga nisbatan ko'proq hurmatga sazovor, chunki ota-onalar bolaga hayot baxshida qilgan va tarbiyachilar esa bolaga munosib hayot baxshida qiladi". Demak, tarbiyachilar eng ideal darajadagi insoniylik fazilatlariga ega bo'lishi kerak va shundagina boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kutilgan darajada insonparvarlashtirishga erishish mumkin bo'ladi. shuningdek, G'arb mutafakkirlaridan *Seneka* deydi: "Qo'ying, o'quvchi o'z bilganini gapirsin va uning xotirasi gapirmasin". Bu fikrning ma'nosi shuki, o'quvchi bilganini gapirganida mustaqil fikrlaydi va u muayyan darajada xotirasiga suyanib gapirsa o'qituvchidan o'rganganini so'zlaydi.

Bizning milliy pedagogikamizda boshlang'ich ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalarini amaliyotga birinchi bo'lib Abu Ali Ibn Sino tatbiq etgan. U "Shifo" asarida "insoniylikdan xoli odamning tarbiya ishi bilan shug'ullanishiga haqqi yo'q" deydi. O'tgan asrning birinchi yarmida Ibn Sinoning mazkur insonparvarlik g'oyasi jidd

¹ Педагогик атамалар луғати. Р.Жўраев ва бошқ. – Т. "Фан". 2008.49-бет

jarayoni jamiyatimizning ijtimoiy talablari asosida amalga oshirilishi kerak. Buning natijasida tarbiya jarayonini kutilgan darajada kuchaytirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

2. *Institutsional daraja.* Mazkur tarbiya darajasiga ko'ra, tarbiya jarayoni oila, mahalla va ta'lim tizimi vositasida tashkiliy amalga oshirilishi kerak. Bu vositalardan tashqari, bizning jamiyatimizda kattalar ibрати, ajdodlar namunasi va madaniyat taraqqiyoti kabi notuzilmaviy tizimlar ham mavjud. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini kuchaytirishda bunday tizimlarga asoslanish muhim hisoblanadi.

3. *Ijtimoiy-psixologik daraja.* Tarbiya jarayonining bu darajasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasi ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik vakillari va maktab jamoasi yordami asosida tashkil etilishi kerak. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan kuchaytirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

4. *Shaxslararo daraja.* Tarbiya jarayonini tashkil etishning bu darajasiga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kuchli hamkorlik hamda bog'lanish bo'lishi kerak, bunda o'qituvchi va o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga daxl qilinmaydi. Mazkur shaxslararo daraja boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayonini rejali kuchaytirish imkonini beradi.

Zero, boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish uchun ana shunday yondashuvlarga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda (2020 yil 23 sentyabr) mamlakatimizning ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri sifatida "*ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi*" belgilab qo'yilgan (4-modda). Pedagog olimlarning fikricha, insonparvarlik – bu insonning qadri, erkinligi, baxti, teng huquqligi to'g'risidagi va insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish g'amxo'rligidir.¹ E'tibor berilsa, lotinchada *gumanizm* tushunchasi bilan ifodalanuvchi insonparvarlik prinsipi boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

a) o'quvchilarni qadrlash;

- b) o'quvchilarning erkinligini ta'minlash;
- v) o'quvchilarning huquqlarini teng ro'yobga chiqarish;
- g) o'quvchilarni baxtli bo'lishga yo'naltirish;
- d) o'quvchilarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish.

Mazkur prinsipning ushbu ma'no - mazmuni boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish *asoslarini* ifodalaydi. Bu asoslar quyidagilardan iborat:

- tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini qadrlash va erkinlikka o'rgatish;
- tarbiya jarayonida o'quvchilarda o'z shaxsiy huquqlarini o'zgalar huquqlariga uyg'unlashtirishga ko'niktirish;
- o'quvchilarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish bilan ularni baxtli bo'lishga yo'naltirish.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish o'quvchi shaxsini ilk rejaga qo'yishga asoslanadi. Bu borada boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixida muhim qarashlar mavjud. Misol uchun, qadimgi mutafakkirlardan *Demokrit* Shunday deydi: "Yaxshi odam bo'lish uchun mashqlarga va inson tabiatiga e'tibor berish kerak, shu jihatdan tarbiya insonni qayta paydo qiladi". Demokrit har bir o'quvchining yaxshi inson bo'lishini alohida ta'kidlaydi va bu vazifani tarbiya amalga oshiradi. *Aristotel* esa deydi: "Tarbiyachilar ota-onalarga nisbatan ko'proq hurmatga sazovor, chunki ota-onalar bolaga hayot baxshida qilgan va tarbiyachilar esa bolaga munosib hayot baxshida qiladi". Demak, tarbiyachilar eng ideal darajadagi insoniylik fazilatlariga ega bo'lishi kerak va shundagina boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kutilgan darajada insonparvarlashtirishga erishish mumkin bo'ladi. shuningdek, G'arb mutafakkirlaridan *Seneka* deydi: "Qo'ying, o'quvchi o'z bilganini gapirsin va uning xotirasi gapirmsin". Bu fikrning ma'nosi shuki, o'quvchi bilganini gapirganida mustaqil fikrlaydi va u muayyan darajada xotirasiga suyanib gapirsa o'qituvchidan o'rganganini so'zlaydi.

Bizning milliy pedagogikamizda boshlang'ich ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalarini amaliyotga birinchi bo'lib Abu Ali Ibn Sino tatbiq etgan. U "Shifo" asarida "insoniylikdan xoli odamning tarbiya ishi bilan shug'ullanishiga haqqi yo'q" deydi. O'tgan asrning birinchi yarmida Ibn Sinoning mazkur insonparvarlik g'oyasi jadid

¹ Педагогик атамалар луғати. Р.Жўраев ва бошқ. – Т. "Фан". 2008.49-бет

ma'rifatparvarlari tomonidan boshlang'ich ta'limga qat'iy tatbiq etildi. Misol uchun, ular tomonidan o'g'il bolalar va qizlarning bir sinfda o'qishini joriy etilishi ta'limdagi insonparvarlikning aniq ko'rinishidir.

XX asrning 50-60-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlarida "Insonparvarlik pedagogikasi" yo'nalishi paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asosiy vazifasi ta'lim tizimiga erkin va barkamol inson shaxsini shakllantirish g'oyasini tatbiq etish bo'lgan. Shu tariqa hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida tarbiya jarayonining insonparvarlashtirish g'oyasi o'quvchi shaxsini erkin va barkamol voyaga yetkazishga asoslanadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish. Lotincha "demokratiya"so'zi xalqchillik, oshkoralik va tenglik ma'nolarini anglatadi. XX asrdan boshlab ta'limda ana shu ma'nolarni ifodalovchi demokratizm tushunchasi va g'oyasi keng qo'llanilib kelinmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunimizda ham ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida "*ta'lim va tarbiyaning demokratik xususiyatga ega*"ligi belgilab qo'yilgan (4-modda). Mazkur prinsip boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirib borish vazifasini qo'yadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining xalqchillikka asoslanishi;

b) boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining oshkoralikka tayanishi;

v) boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining tenglik g'oyasiga mos bo'lishi.

Aynan mana shu xalqchillik, oshkoralik va tenglik g'oyalari boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini mudom demokratlashtirib borishga asos bo'lishi kerak. Buning ma'nosi shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi oddiy, oson va oshkora amalga oshirilishi kerak. Bu holni bir so'z bilan tarbiya jarayonini tabiiylik asosida tashkil etish deb atash mumkin.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirib borish tarbiyaning *demokratik usuliga* asoslanadi. Unga ko'ra, tarbiya jarayonida demokratik usul tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro teng huquqli hamkorligiga asoslanadi. Bunda o'quvchining fikri,

qiziqishlari va imkoniyatlari bilan hisoblashiladi, o'qituvchi o'zining fikri va qarashlarini o'quvchiga majburan singdirishdan tiyiladi. Tarbiya jarayonining demokratik usuli oshkoraligi va ochiqligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi yoki murabbiy tarbiyalanuvchiga iltimos, tavsiya, maslahat berish va yo'naltirish bilan cheklanadi.

Ayni paytda, tarbiya jarayonining demokratik usulida murakkabliklar mavjud bo'lib, ular asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsiga mos bo'lgan erkalik, injiqlik va to'g'ri tushunmaslik oqibatlarida salbiy holatlar kelib chiqadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi yoki murabbiy demokratik g'oyaga mos ravishda sabr-toqatlik va bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishi kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish sharoitida O'qituvchilar zimmasiga asosiy vazifani yuklaydi. Mazkur murakkabliklarni hisobga olib 2020-2021 o'quv yilidan boshlab o'qituvchilarning faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan samaradorlik nuqtai nazaridan maosh to'lash joriy etildi. Mazkur iqtisodiy omil boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirishning negizi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish ikki variantda amalga oshiriladi:

Birinchi variant - "Tenglar ichida teng" tamoyiliga asoslanadi. Bunda o'qituvchining va o'quvchining qiziqishlari, manfaatlari va majburiyatlari hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi variant - "Tenglar ichida birinchi" tamoyiliga tayanadi. Bunda o'qituvchi demokratik qadriyatlarga mos rivojlanayotgan va o'z imkoniyatlarini namoyon etayotgan ilg'or o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirishda ana shu ikki variantdan ham foydalanish mumkin.

Hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"da tarbiya jarayonini demokratlashtirishda pedagogik jazolarning qo'llanishi bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Unga ko'ra, tarbiyaning demokratik usuli pedagogik jazoni xush ko'rmaydi, ayni paytda, tarbiyaning samaradorligi uchun pedagogik jazoning ahamiyati ham mavjud. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, tarbiya jarayonining demokratik usulida O'qituvchi qat'iyatlik tamoyiliga

amal qilish shart.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan konsepsiyalardir.

Mustaqil ta'lim uchun savollar va topshiriq:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish zaruriyati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish omillarini nimalar tashkil qiladi.
4. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asoslarini o'zlashtiring.

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Topshiriq: mashhur fransuz pedagogi Iogann Fridrix Oberlinning (1740-1826) "Yon daftar"ingizga ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish negizi bo'lgan quyidagi metodologiyasini yozib oling va o'rganing.

Oberlin har bir shaxsning 16 yoshga qadar ta'lim olishini qat'iyatli yondashuv deb hisoblaydi. U maktab faoliyatini quyidagi uch darajaga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) boshlang'ich ta'lim – 7-9 yoshlilar;
- 2) o'rta ta'lim – 9-12 yoshlilar;
- 3) yuqori ta'lim – 12-16 yoshlilar.

Pedagog mazkur yondashuvini metodik jihatdan asoslab bergan va XIX asrda Yevropaning juda ko'p mamlakatlari maktab ta'limini aynan Oberlinning metodikasi asosida tashkil etgan.

17-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Reja:

1. Ijtimoiy murakkab (pandemiya kabi) sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil etish
2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy omillari
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligini tashxislash.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tarbiya, jarayon, zamonaviylik, tendensiya, yondashuv, murakkablik, o'ziga xoslik, muammo, yechim.

Ijtimoiy murakkab (pandemiya kabi) sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil etish. Jahon boshlang'ich ta'lim tizimida turli davrlarda har xil tarbiya jarayoni amalga oshirilgan. Bunda turli ijtimoiy murakkab davrlar ham kechganligi va bunday davrlarda boshlang'ich ta'limda o'ziga xos tarbiya jarayoni amalga oshirilganligini eslatib o'tish joiz.

2019 yil so'nggi choragidan boshlab jahonda COVID-19 pandemiya sharoiti kechib, barcha sohalar qatorida ta'lim jumladan, boshlang'ich ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu salbiy ta'sirning yaqqol ko'rinishlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- keskin karantin sharoiti tufayli o'quvchilar maktab ta'limidan cheklandi;
 - o'quvchilarning amalga oshirilayotgan ilmiy – metodik tarbiya jarayonida uzulish ro'y berdi;
 - o'quvchilarning oila sharoitida uzoq muddatda qolib ketishi va oila a'zolarining ularga nisbatan turli munosabatda bo'lishi natijasida amaliy tarbiya jarayoni susaydi;
 - o'quvchilarning tarbiyalanish jarayonini to'ldiruvchi muqobil resurslarning mavjud emasligi ma'lum bo'ldi;
 - bularning natijasida o'quvchilarning axloqi, xarakteri va munosabatlarida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi.
- Bunday ijtimoiy murakkab sharoit ayni shakllanish va rivojlanish

bosqichida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli bu tajriba ijtimoiy turakkab sharoitlarda tarbiya jarayonini amalga oshirishning metodologik asoslarini yaratishni taqoza etdi.

Ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirishning metodologik asoslarini biz quyidagicha tasavvur qilamiz:

a) ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash Dasturini ishlab chiqish;

b) ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalovchi mas'ullar va ularning vazifa hamda majburiyatlarini mazkur Dasturda belgilab qo'yish;

v) ushbu Dasturda ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash tizimi asoslari, metodlari texnologiyalari aniq belgilab qo'yish;

g) mazkur Dasturda ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbichlanganlik darajasini aniqlash indikatorlarini va uni baholash asoslarini aniq ko'rsatish.

Bunday yondashuv kutilmagan sharoitlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash ishini amalga oshirish imkonini beradi. Chunki ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanish jarayoni, ona tabiatning kutilmagan hodisalari ro'yo berishini hamda ularning ayanchli oqibatlarini idrok etish taqoza etiladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy omillari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy omillari mavjud bo'lib, ularni quyidagi ikki turda tasavvur qilish mumkin:

1) an'naviy sharoitlarda tarbiya jarayonini amalga oshirish;

2) ijtimoiy murakkab sharoitlarda tarbiya jarayonini amalga oshirish.

Bu omillar boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni taqoza qiladi. Shu sababli bizningcha, tarbiya jarayonining zamonaviy omillarini belgilashda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- real sharoitlar va imkoniyatlarni hisobga olish;
- tarbiya jarayonini amalga oshirish resurslarini aniqlash;
- tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi mas'ullarni belgilash;

- tarbiya jarayoni samaradorligini monitoring qilib borish tizimini yo'lga qo'yish.

Mazkur jarayon boshlang'ich ta'limni milliy va jahon ta'limi standartlari asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy omillari metodologiyasini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'limning majburiyligi;
- shaxs va jamiyatning boshlang'ich ta'limdan manfaatdorligi;
- ta'lim tarixida boshlang'ich ta'lim tajribaga ega ekanligi;
- boshlang'ich ta'limning jahon ta'lim tizimida muhim o'rin tutishi.

Bu omillar boshlang'ich ta'lim vositasida 7-11 yoshli shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni quyidagi zamonaviy faktorlarga tayanadi:

- bolaning aqlini rivojlantirish va ruhiy ulg'aytirish;
- bolani jismoniy o'stirish va estetik ongini shakllantirish;
- bolani ijtimoiylashtirish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tayyorlash;

- bola tarbiyasida oilaga pedagogik-metodologik yordam ko'rsatish.

Mazkur omillar vositasida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar dastlabki bosqichda tarbiyalanadi. Bu o'rinda dastlabki bosqich tushunchasini tarbiya jarayoniga kirish, uni keyingi ta'lim jarayonida davom ettirish va umumiy o'rta ta'lim yakunida tarbiyaning to'liq samaradorligiga erishi ma'nosida tushunish lozim. Shu sababli boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonini eng muhim bosqichlardan biri sifatida qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligini tashxislash. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligini tashxislash bu jarayonda erishilgan yutuqlarni baholash va kamchiliklarni aniqlashga asoslanadi. Ayni paytda, shaxsning tarbiyalanganlik darajasini to'liq tashxislash imkoniyati yo'q, chunki eng yetuk shaxsda ham muayyan darajada salbiy xususiyatlar kuzatiladi. Shu sababli bu o'rinda boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonining samaradorligini tashxislash deganda nisbatan erishilgan yutuqlarni aniqlash tushuniladi.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya samaradorligini tashxislash mezonlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'limda tarbiyaning maqsadli va to'g'ri tashkil qilinganligi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanganligi;

- boshlang'ich ta'lim yakunida 11 yoshli shaxslarning ijtimoiylashganligi;

- boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni konkret modelga ega ekanligi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida boshlang'ich ta'limda amalga oshirilgan tarbiyaning samaradorligi baholanadi. Bunday baholashda mutaxassislar, o'qituvchilar va maktab jamoasi teng ishtirok etadi.

Jahon boshlang'ich ta'limida tarbiyani amalga oshirishning samaradorligini baholashga doir yagona yondashuv yo'q. Chunki har bir mamlakat va xalq o'z maqsad- muddolaridan kelib chiqib tarbiya asoslarini belgilaydi. Shu sababli xalqaro ta'lim dasturlarida boshlang'ich ta'lim berish darajasini baholashga ustuvor ahamiyat beriladi. Ayni paytda boshlang'ich ta'limda amalga oshirilgan tarbiya samaradorligi tashxislanmaydi. Misol uchun, 2021 yildan boshlab xalqaro ta'lim dasturida PIRLS dasturi asosida 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini baholash amalga oshirilib kelinmoqda. Biroq mazkur dasturda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini baholash o'z aksini topmagan.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida tarbiya samaradorligini baholash metodologiyasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bizningcha bu metodologiyada quyidagilarning aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) boshlang'ich ta'lim bitiruvchisining ijtimoiylashganligi;

2) boshlang'ich ta'lim bitiruvchisida axloqiy fazilatlarining tarkib topganligi;


3) boshlang'ich ta'limda tarbiyaning maqsadli dastur asosida amalga oshirilganligi;

4) boshlang'ich ta'lim tarbiya jarayonida manfaatdor tizimlarning hamkorlik qilganligi.

Bunday metodologiyaga asosan boshlang'ich ta'limda amalga oshirilgan tarbiya samaradorligini tashxislash va baholash kutilgan

samarani beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur metodologik yondashuvlardan xabardor bo'lishi taqozo etiladi.

Shunday qilib hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida tarbiya jarayonining zamonaviy tendensiyalari an'anaviy, o'zgaruvchan va takomillashib boruvchi xususiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. E'tibor bering (16-chizma):



Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Ijtimoiy murakkab (pandemiya kabi) sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil etish deganda nimani tushunasiz?

2. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining zamonaviy omillari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligini tashxislash qanday amalga oshiriladi?

4. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni zamonaviy tendensiyalarini bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil etish asoslarini o'rganing.

Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy murakkab sharoitlarda tarbiya jarayonini amalga oshirishning zamonaviy omillarini o'zlashtiring.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligini tashxislash metodologiyasini yod oling.

“Yon daftar”ingizga ijtimoiy murakkab sharoitlarda boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini tashkil qilish asoslarini konspekt qiling.

4-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA

18-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA MAZMUNI

Reja:

1. Innovatsiya tushunchasining mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya
3. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish tajribalari

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, tarbiya, innovatsiya, mazmun, bilim, shakl, tushuncha, ko'nikma, malaka, yondashuv.

Innovatsiya tushunchasining mazmuni. “Innovatsiya” so'zi lotincha bo'lib, *yangidan* kiritilgan tushunchalar, tartib – qoidalar, texnologiyalar va yangiliklarni anglatadi.¹ Ta'limda innovatsiya atamasi an'anaviy va ommaviy amaliyotdagi o'qitish hamda tarbiya jarayoniga kiritilgan yangiliklarni bildiradi, innovatsiya ko'rsatkichi aynan ana shu yangiliklar ko'lami bilan belgilanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsiya quyidagi tushunchalarni qamrab oladi:

Innovatsion vaziyat – bu pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan vaziyat;

Innovatsion muhit – pedagogik yangiliklarning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi;

Innovatsion pedagogik loyiha – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan yangi pedagogik g'oyalar hamda fikrlar;

Innovatsion pedagogik reja – tasdiqlangan yangicha asosdagi o'quv loyihasi;

Innovatsion pedagogik g'oya - tizimlashtirilgan yangi o'quv jarayoni prognozikasi va ma'lumotlar majmui;

Innovatsion ta'lim - ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan

¹ Қаранг: Педагогик атамалар лугати. Тузувчилар Р.Жўраев ва бошқ. – Т.:“Фан”.2008.48-бет

yangiliklar hamda yangilangan ta'lim jarayoni;

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan yangi tashkiliy faollik vositalari, usullari va metodlari;

Innovatsion o'qitish – yangicha o'qitish tizimi hamda o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni.

Mazkur tushunchalarning majmui ta'limda innovatsiya hodisasini ifodalaydi. Ayni paytda ta'lim tizimida quyidagilarga o'zgartirishlar kiritilsa innovatsiya hisoblanadi:

- ta'limni va ta'lim boshqaruvining maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari hamda texnologiyalariga kiritilsa;

- o'quv-bilish jarayoni va pedagogik usullarga kiritilsa;

- ta'lim darajasini baholash va nazorat qilishga kiritilsa;

- ta'limni moliyalashga kiritilsa;

- o'quv – metodik ta'minotga kiritilsa;

- tarbiyaviy ishlar tizimiga kiritilsa;

- o'quv rejasi va dasturlarga kiritilsa;

- o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga kiritilsa.

Mazkur o'zgartirishlar kiritish jarayoni ta'limda innovatsiya mazmunini ifodalaydi. Ayni paytda, innovatsiya rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, ba'zi innovatsion yondashuvlar vaqtinchalik va ba'zilar esa doimiy xususiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan *innovatsion texnologiyalarni* o'zgarib va yangilanib boruvchi vositalar majmui sifatida tasavvur qilishi kerak. Bularning barchasi ta'lim tizimida innovatsiyalarning quyidagi uch shaklga ega ekanligini ko'rsatadi:

1) mutlaq yangiliklar;

2) nisbiy yangiliklar;

3) vaqtinchalik yangiliklar.

Shu sababli ta'lim tizimiga kiritilayotgan innovatsion yondashuvlar, g'oyalar, fikrlar, usullar va texnologiyalarni aniqlashda ularning ana shu mezonlariga e'tibor berish kerak.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga innovatsiyalarni tatbiq etish jarayoni 2017 yildan boshlab kuchaytirildi. Bundan maqsad boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligiga tezkor erishishdir. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limga innovatsiyani kiritishda uning tajribadan o'tgan *tiplariga* asoslanish maqsadga

muvofiq bo'ladi. Hozirgi zamon jahon pedagogikasida quyidagi innovatsion tiplarning tajribadan o'tganligi e'tirof etiladi:

Birinchi tip. Bu tipga binoan boshlang'ich ta'limning quyidagi jihatlariga yangilik kiritilishi kerak:

- boshlang'ich ta'limning maqsadi va mazmuniga;

- boshlang'ich ta'limning vositalari, metodlari va texnologiyalariga;

- boshlang'ich ta'limning o'qitish va tarbiyalash jarayoni shakllari va vositalariga;

- o'quvchilarning, o'qituvchilarning va maktab ma'muriyatining faoliyatiga.

Ikkinchi tip. Mazkur tipga ko'ra, boshlang'ich ta'limning quyidagi jihatlariga yangiliklar kiritilishi kerak:

- joylardagi va markazlardagi boshlang'ich ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalarini bog'lash;

- boshlang'ich ta'limdagi barcha faoliyatni (o'qitish, tarbiyalash va h.k.) yagonalashtirish;

- boshlang'ich ta'lim tizimini yagona va tipik modulga aylantirish;

Uchinchi tip. Bu tipga ko'ra, boshlang'ich ta'limda quyidagilarga yangiliklar kiritilishi kerak:

- an'anaviy boshlang'ich ta'lim mazmunini butunlay o'zgartirish;

- boshlang'ich ta'limga turli xorijiy tajribalarni kiritish;

- boshlang'ich ta'limning asoslarni o'zgartirish.

To'rtinchi tip. Bu tipga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayoniga quyidagi omillar hisobga olinib yangiliklar kiritilishi kerak:

- mamlakat, hududlar, shaharlar, tumanlar va qishloqlarning ehtiyojlarini ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilish;

- ta'limga oid yangi me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi;

- ilm-fanning inson to'g'risida yangi yutuqlariga erishganda;

- o'qituvchilarning ijodiy yangiliklari asosida.

Mazkur tiplarning amaliyotda qo'llanishi o'qituvchilar va ilmiy pedagog olimlarning tavsiyalariga binoan amalga oshadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni joriy etishning turli tiplarini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun quyidagi

omillar mavjud bo'lishi kerak:

a) boshlang'ich ta'limga davlat moliyaviy xarajatlarining ko'p bo'lishi;

b) boshlang'ich ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud bo'lishi;

v) innovatsion fikrlovchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylarining yetarli darajada bo'lishi;

g) boshlang'ich ta'limni eng zamonaviy texnik jihozlar bilan jihozlanishi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyani amalga oshirish ko'p hollarda O'qituvchilarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion bilim, ko'nikma va malakalarini kuchaytirish maqsadida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti viloyatdagi maktablarda "Maktab-laboratoriya" innovatsion tizimini yo'lga qo'ydi. Mazkur tajriba keyingi yillarda butun Respublikamiz bo'ylab ommalashmoqda.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish tajribalari. XX asrning 2-yarmidan boshlab dunyo mamlakatlari boshlang'ich ta'lim tizimida yangi innovatsion muassasalarni shakllantirish tajribalari yuzaga keldi. Bu o'rinda ana shu tajribalarning eng muhimlariga e'tiboringizni tortamiz.

1. *Erkin boshlang'ich ta'lim maktabi.* Bu innovatsion maktab Germaniyada tashkil etilgan bo'lib, u internat ko'rinishida faoliyat yuritiladi. Mazkur maktabda o'quvchilar erkinlik tamoyillari va fuqarolarning o'zaro hamkorligi natijasida o'qitiladi. Unda fanlar emas, predmetlar kurslarga bo'linib o'qitiladi.

2. *Mehnat boshlang'ich ta'lim maktabi.* Mazkur innovatsion maktab Shveysariya, Avstriya va Rossiyada tashkil etilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor o'quvchilarda mehnat ko'nikmasini shakllantirishga va ularni jahon xalqlari madaniyatlari bilan tanishtirishga qaratiladi. Maktabda o'quvchilarning ixtiyoriyligi ustuvor hisoblanadi.

3. *Ochiq boshlang'ich ta'lim maktabi.* Bu innovatsion maktab Buyuk Britaniyada tashkil etilgan bo'lib, unda o'quv rejaları va dasturlari o'qituvchilar tomonidan individual ishlab chiqiladi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga qaratiladi.

4. *Yillik yangi boshlang'ich ta'lim maktabi.* Mazkur innovatsion maktab AQSHda tashkil etilgan bo'lib, u butun yil davomida faoliyat

yuritadi. Ayni paytda, o'quvchilar har 45 kundan keyin 2 hafta ta'tilga chiqishadi. Shu tariqa o'quvchilar butun yil davomida an'anaviy maktablardagidek soatlar hajmida sinfda bo'lishadi.

E'tibor berilsa, dunyoning har bir mamlakati o'z ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etgan.

O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- jamiyat talablaridan kelib chiqib boshlang'ich ta'lim asoslariga o'zgartirishlar kiritish;

- innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'lamini kengaytirish;

- boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etishni qat'iy monitoring qilib borish.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda innovatsiya mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Innovatsiya tushunchasining mazmuni nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish tajribalaridan qaysilarini bilasiz?
4. Boshlang'ich ta'limga innovatsiyalarni tatbiq etish asoslarini bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Ingliz pedagogi Samuil Uilderspinning (1792-1866) quyidagi pedagogik qarashlarini o'zlashtiring.

Pedagog hozirgi zamon innovatsion ta'limning negizlaridan biri bo'lgan *hamkorlikda o'qitish* metodini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilariga birlashtiriladi va ular bilan doimiy hamda muntazam ravishda mashg'ulot olib boradi, uy vazifalarini bajarishda ko'maklashadi. Yuqori sinflarning bunday faoliyati pedagog tomonidan *monitor* deb atalgan. Monitor o'quvchilar o'zlari birlashtirilgan o'quvchilarning savodxon o'qishi va yozuvi uchun mas'ul hisoblangan. Bu jarayonda o'qituvchi

maslahatchi vazifasini bajaradi.

shuningdek, pedagog tomonidan o'qituvchilar uchun quyidagi qoidalarga amal qilish ishlab chiqilgan:

- 1) hech qachon o'quvchini gunohkorlikda ayblamaslik;
- 2) boladan hech narsani tortib olmaslik;
- 3) hech qachon bolaga berilgan va'dani buzmaslik;
- 4) har doim bolaning yutuq va kamchiliklarini nazardan qochirmaslik;
- 5) hamisha bolaga namuna bo'lishga intilish.

19-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATI

Reja:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasi
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion intilishlari
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash

Tayanich tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, sinf, o'qituvchi, innovatsiya, ko'nikma, faoliyat, intilish, baholash, tizim, bilim, tajriba.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasi. Oliy pedagogik ta'lim jaryonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida tayyorlash zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion *ko'nikmasini* shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada tajribadan o'tgan yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:

1. *Innovatsion bilim berish.* Bunday bilim berish quyidagilarga asoslanadi:

- eng asosiy kasbiy-nazariy bilimlarni berish;
- innovatsion texnologiyalar va tajribalar bilan qurollantirish;
- oliy ta'lim muddatini optimallashtirish.

2. *Innovatsion fikrlashga o'rgatish.* Mazkur yondashuvga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga quyidagilar o'rgatilishi kerak:

- innovatsiyalarni aniqlash va o'zlashtirish;
- yangicha va ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- yangiliklar va ixtirolar qilishga ko'niktirish.

3. *Innovatsion metodologiya bilan qurollantirish.* Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilar bilan qurollantirilishi lozim:

- dars (mashg'ulotlarni) innovatsion loyihalash;
- o'qitishning yangi usul va vositalari bilan ishlay olish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini topish va qo'llash.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shunday yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Bu borada me'yoriy-huquqiy hujjatlar shakllantirilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab quyidagi ta'lim yo'nalishlarida innovatsion tarzda pedagoglar tayyorlash maqsadida bakalavriat bosqichi 3 yil qilib belgilandi:

1. Musiqa ta'limi yo'nalishi;
2. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi;
3. Texnologik ta'lim yo'nalishi;
4. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi;
5. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi.

Bu bilan bo'lajak o'qituvchilarning ko'nikmasini innovatsion shakllantirish tizimiga o'tish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasini shakllantirishda xalqaro loyihalar va dasturlarga asoslanish ham kutilgan samarani beradi. Misol uchun, bunday xalqaro loyihalar va dasturlarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

ERAZMUS – bu xalqaro dasturga muvofiq Yevropa Ittifoqiga kiruvchi barcha mamlakatlarning o'qituvchilari yagona o'quv dasturi asosida tayyorlanishi kerak. Biz uchun mazkur dasturning innovatsion texnologiyalar bo'limi muhim ahamiyatga ega.

LINGVA - mazkur xalqaro loyihaga ko'ra, barcha shaxslar boshlang'ich sinfdan boshlab xorijiy tillarni o'rganishga kirishishi kerak. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida mazkur xalqaro loyiha qabul qilingan va shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bitta xorijiy tilni bilishi kerakligi taqozo etiladi.

EVRIKA – bu xalqaro dasturga muvofiq Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ta'lim tizimi muvofiqlashtirib boriladi. Biz uchun bu dasturning mintaqaviy ta'lim birligi bo'limi muhimdir.

ESPRIT – bu xalqaro loyiha Yevropa universitetlarida amal qilmoqda va u ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqotlar muas-

asalari uchun yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadi. Biz uchun mazkur xalqaro loyihaning yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

TEMPUS – mazkur xalqaro o'quv dasturi Yevropa mintaqasida amal qiladi, u oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini amalga oshiradi. Biz uchun ushbu xalqaro o'quv dasturining ta'lim muassasalari o'zaro aloqalari bo'limi amaliy kasb etadi.

Zero, ana shunday tajribadan o'tgan xalqaro ta'lim loyihalari va dasturlaridan unumli foydalanib oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion intilishlari. Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga da'vat qilish hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion *intilishlarini* rag'batlantirib borish kerak bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, quyidagilarga amal qilish samarali hisoblanadi:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida muntazam ravishda innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilim berib borish;

- innovatsion-kasbiy faoliyatga intiluvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini aniqlash va ularga metodologik yordam berish;

- innovatsion faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajribalarini ommalashtirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion intilishlarini va faoliyatini tartibga solish imkonini beradi.

E'tibor berilsa, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan ko'pchilik o'qituvchilarning intilishlarida innovatsiya majud. Misol uchun, "Tasviriy san'at", "Musiqa", "Texnologik ta'lim", "Jismoniy madaniyat" kabi o'quv fanlarining o'qituvchilari dars faoliyatida hamisha yangi yondashuvlarni, vositalarni va metodlarni qo'llaydi. Shu jihatdan "Matematika", "Ona tili va o'qish", "Tarbiya" kabi o'quv fanlarining o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga yo'naltirish dolzarb hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimimizda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning *individual tajribalari* ham innovatsion faoliyat turiga kiradi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'qituvchi va

murabbiylar kuniga bag'ishlangan marosimdagi Murojaat nutqida (2020 yil 30 sentyabr) ana shunday innovatsion faoliyat yuritayotgan Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi maktablardan birining o'qituvchisi To'xtamurod Jumayevning ana shunday individual tajribasi to'g'risida alohida to'xtaldi va uning faoliyatini innovatsiya tarzida taqdim qildi: "Mana, bugungi kunimizning haqiqiy ma'rifatparvari va davrimizning Avloniysi, Behbudiy domlasi, Munavvarqorisi". Chunki mazur maktab bitiruvchilarining har yili 95 foizidan ortig'i oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmoqda. Bu ko'rsatkichda ushbu maktabda amalga oshirilgan boshlang'ich ta'limning hissasi ham mavjud. Mana shunday individual pedagogik tajribalarni innovatsion faoliyat sifatida qabul qilish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday baholashning asoslarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'qituvchining yangicha fikrlashi va mudom yangiliklarga intilishi;

- o'qituvchining axborot texnologiyalaridan xabardorligi va ularni qo'llay olishi;

- o'qituvchining dars va tarbiyaviy mashg'ulotlarni butunlay yangicha o'tishi;

- o'qituvchining yangicha yondashuvlari maktab jamoasi tomonidan e'tirof etilishi.

Mazkur mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik tajribalarda o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash bo'yicha bir necha mezonlar shakllantirilgan. Ularning asoslari quyidagilardan iborat:

1. *Boshlang'ich ta'limga yangiliklarning kiritilish ko'lam.* Bu mezonga ko'ra, boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoni butunlay yangicha asoslarda tashkil etilishi kerak, uning samaradorligi an'anaviy tashkil etishlardan farqlanib turishi lozim.

2. *Boshlang'ich ta'limga kiritilgan yangiliklar darajasi.* Mazkur mezonga binoan boshlang'ich ta'limning o'quv fanlari va ularning mavzulari maqsadli ravishda yangilanib va takomillashtirilib borilishi kerak. Ayni paytda, bunday yangilanishlar boshlang'ich ta'lim davlat standartlari doirasida amalga oshirilishi darkor.

3. *Boshlang'ich ta'limga kiritilgan yangilikning vaqti.* Mazkur mezonga ko'ra, boshlang'ich ta'limga kiritilgan yangiliklar "aralashgan", "eskilarini yangilash" va "mutloq yangi" xususiyatlarga ega bo'lishi hamda ularning qisqa (bir martalik), o'rta (choraklik) va doimiy (yillik) muddatlarga ega bo'lishi kerak.

Zero, ushbu xalqaro mezonlarga muvofiq boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbi faoliyati baholanadi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyati va ularni baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasini shakllantirish asoslari nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion intilishlari qanday bo'ladi?

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholashda nimalarga asoslaniladi?

4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholashga doir xalqaro tajribalarni bilasizmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Germaniyalik mashhur pedagoglardan biri Fridrix Frebelning (1782-1852) quyidagi pedagogik qarashlarini o'zlashtiring.

Frebel pedagogika tarixida birinchi bo'lib maktabgacha ta'limning zaruriyatini asoslab bergan. Uning fikricha, maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning birinchi qadamidir va bunda u bolalarni ijodiy fazilatlarini maktabgacha ta'limda shakllantirishni ilk rejaga qo'yadi. Uning yondashuviga binoan maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bir-birini to'ldirishi kerak. Mazkur ta'limlarda quyidagilar umumiy tarzda amalga oshiriladi: bolalarning ijodiy xususiyatlarini rivojlantirish, ularda bilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish, tarbiyaviy ahamiyatga ega o'yinlar ishlab chiqish va ayniqsa, nutqida nuqsoni bor bolalar bilan alohida ishlash.

20-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNING KREDIT-MODUL TIZIMI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul jarayoni
3. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul samaradorligini baholash

Tayanch tushunchalar: ta'lim, kredit, boshlang'ich, modul, yangi, tizim, mazmun, o'qitish, jarayon, samara, baholash, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi mazmuni. Kredit-modul tizimi – bu o'qitishning innovatsion shakli bo'lib, u 1869 yildan buyon Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimiga tatbiq etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da mamlakat oliy ta'lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilangan. Shu sababli 2020-2021 o'quv yilidan boshlab Respublikaning 33 yirik oliy ta'lim muassasasi ECTS (Yevropa kreditlarni ko'chirish va jamg'arib borish tizimi) kredit-modul tizimiga o'tdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida oliy pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unda mamlakat oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul

tizimiga o'tkazilishi belgilandi va bu boradagi Nizom tasdiqlandi.

"Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalaridan tashqari barcha oliy o'quv yurtlari ECTS kredit-modul tizimiga o'tdi. Bu tizim ta'limning Yevropa tizimi bo'lib, unda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi.

GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{GPA} = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 + \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}, \text{ bunda:}$$

K — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U — har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

akademik mobillik — oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit — ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta'lim muassasasi — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish — talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash — ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim traektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim traektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi — bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lim dasturi katalogi — oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o'qish yuklamasi — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta'lim elementlari — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim

olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

E'tibor berilsa, mazkur kredit-modul tizimi mamlakatimiz ta'lim jarayoni uchun butunlay yangi bo'lib, uni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul jarayoni. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi o'ziga xos bo'lib, unda oliy ta'limni amalga oshirishning xalqaro standartlariga mos yo'l tutiladi. Shu jihatdan mazkur jarayonning yuqorida keltirilgan Nizomga asosan asosiy jihatlariga diqqatingizni tortamiz.

Mazkur tizimga asosan o'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Ta'lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

Talabalarning ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkin.

Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun oliy ta'lim muassasasining tegishli bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul boshqarma yoki bo'limi, guruh murabbiyi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida

talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shart.

Ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi.

Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi lozim.

Diqqat qilinsa, o'qitishning kredit-modul jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega va u oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida ham xuddi shunday amal qiladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul samaradorligini baholash. O'qitishning kredit-modul tizimida samaradorlik va uni baholash muhim o'rin tutadi. Yuqorida ta'kidlangan Nizomga binoan, o'qitishning kredit-modul samaradorligini baholash xususiyatlari quyidagicha: o'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishi bo'yicha o'tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakil-

lari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

namunaviy o'quv rejasi va fanlar katalogini ilg'or xorijiy ta'lim tajribasi asosida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar iste'molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo'shimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo'yicha namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish;

fanlarning ishchi dasturini (sillabusni) ishlab chiqish;

o'quv rejasi va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda guruh mu-rabbiyi yordamida o'quv-metodik bo'lim (boshqarma) va fakultet dekani nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirish;

ishchi o'quv rejalarini tuzish;

o'quv jarayoni jadvalini tuzish;

akademik guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish.

Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta'lim traektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

O'quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo'lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O'quv yili davomiyligi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'z-gacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy

amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

Akademik qarzdor talabalarining tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr oliy ta'lim muassasasi tomonidan odatda ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar

bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar oliy ta'lim muassasasi o'quv-metodik bo'limi (boshqarmasi)ga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi;

oliy ta'lim muassasasi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

O'qitishning mazkur kredit-modul samaradorligini baholash jarayoni oliy boshlang'ich ta'lim jarayonida ham amal qiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi O'zbekiston oliy ta'lim jarayonining sifat va samaradorligiga erishish, bu tizimni xalqaro ta'lim standartlariga mos rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni beradi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul jarayoni qanday bo'ladi?
3. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul samaradorligini baholash nimalarga asoslanadi?
4. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning kredit-modul tizimi vositasida bir fan bo'yicha talaba bakalavr ta'lim yo'nalishida necha kredit to'plashi kerak?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

O'qitishning kredit-modul tizimi asoslarini o'zlashtiring. Mazkur tizim asosida bakalavr ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligida o'quv jarayonini amalga oshirish xususiyatlarini o'rganing.

O'qitishning kredit-modul tizimida bakalavr ta'lim yo'nalishida to'planishi lozim bo'lgan kreditlar majmuini yod oling.

21-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL QILISH

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mexanizmlari
3. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini baholash

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, kredit, modul, tizim, tarbiya, jarayon, baholash, yondashuv, bilim, ko'nikma, samara.

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mazmuni. O'zbekiston oliy ta'lim jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan o'qitishning ECTS kredit-modul tizimi amal qilmoqda. Bu tizimda asosiy e'tibor bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, unda *tarbiya* jarayonini amalga oshirish asoslari nazarda tutilmagan. Shu sababli o'qitishning kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini amalga oshirish metodologiyasi hozircha ishlab chiqilgan emas. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning umumiy jihatlariga tortamiz.

O'qitishning kredit-modul tizimida o'quv fanlari majburiy va tanlov fanlariga bo'linadi. Bunda kasbiy fanlar majburiy va kasbiy mahoratni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan fanlar tanlov fanlari hisoblanadi. Shu ma'noda *tanlov fanlari* vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya jarayoni asoslari bilan tanishtirishning imkoniyatlari mavjud. Bunda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida shaxsni tarbiyalashga

yo'naltirilgan ijtimoiy-gumanitar fanlarni (etika, estetika, sotsiologiya, politologiya kabilarni) tanlov fanlari tarkibiga kiritish;

- tanlov fanlarining negizida shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan asoslarni belgilash;

- tanlov fanlarining mavzulari va modullarini o'qitishda nazariya hamda amaliyot uyg'unligiga rioya qilish.

Shu jihatdan o'qitishning kredit-modul tizimida tanlov fanlari vositasida tarbiya jarayonini tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Savol tug'iladi: talaba tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan tanlov fanlarini tanlaydimi? Buning uchun tanlov fanlari bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- tanlov fanlarining mavzulari va modullari bo'yicha o'quv materiallarini qiziqarli, o'ziga jalb qiluvchi va yo'naltiruvchi xususiyatlarga ega tarzida tayyorlash;

- mavzular va modullar bo'yicha o'quv materiallarining 30 foizini nazariy va 70 foizini amaliy qismlar asosida tayyorlash;

- o'quv materiallarida topshiriqlar, mustaqil ta'lim kombinatsiyalari, animatsiyalar va multimediali tasvirlarning bo'lishiga erishish;

- o'quv materiallarini tayyorlashda talabalarning takliflari va fikr-mulohazalarini hisobga olish.

Shu jihatdan tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan tanlov fanlarining o'quv materiallarini mukammal tayyorlash ularning talabalar tomonidan kutilgan darajada tanlashga erishish imkonini beradi.

O'qitishning kredit-modul tizimida tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan tanlov fanlarini targ'ibot qilib borish ham kutilgan samarani beradi. Misol uchun, talabalarga Etika fani shaxsning axloqiy ongi, fazilatlarini va munosabatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutishi, shu jihatdan bu fan pedagogik kasbda ahamiyatga ega ekanligi tushuntirilishi kerak. Ayni paytda, mazkur fanning pedagogik Etika xususiyatlariga oliy pedagogik ta'lim jarayonida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mexanizmlari. O'qitishning kredit-modul tizimi amaliy jihatlariga yo'naltirilganligi bilan muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan mazkur tizim asosida tarbiya jarayonini tashkil qilishning mexanizmlari masalasi ishlab chiqilgan emas. Bu o'rinda ana shu

masalaning muayyan jihatlari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

O'qitishning kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish bo'yicha quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

- majburiy va tanlov fanlarini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyalab borish masalasiga e'tibor berish;
- mazkur fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya asoslari, metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirib borish;
- ushbu fanlarning o'quv materiallarida tarbiya asoslariga doir amaliy va mustaqil ta'lim topshiriqlarining berilishiga e'tibor berish;
- talabalarning malakaviy va pedagogik amaliyoti jarayonida ularning tarbiya asoslari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy tajriba-sinovdan o'tkazish;
- mustaqil ta'lim vositasida talabalarning tarbiya asoslari bo'yicha ko'nikmalarini maxsus testlar vositasida aniqlab borish.

Bu mexanizmlar o'qitishning kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

O'qitishning kredit-modul tizimi asosida talabalarning tarbiya muammolariga doir ilmiy-amaliy anjumanlarini, tanlovlarini va festivallarini o'tkazib borish muhim mexanizmlardan hisoblanadi. Bunda talabalarning tarbiya masalasiga doir tushunchalarini boyitish, fikr-mulohazalarini bilish va ular asosida tarbiya jarayonining yangi yo'nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil etish mexanizmlaridan yana biri Ustoz-shogird an'anasidir. Unga ko'ra, har bir talaba Ustozga biriktirib qo'yiladi, Ustoz talabaning tarbiyalanish jarayoni bilan shug'ullanadi va bu ish Sinf murabbiyi tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini baholash. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholab borish ikki xususiyatga ega:

- 1) talabalarning tarbiyalanganlik darajasini baholash;
- 2) talabalarda shaxsni tarbiyalash ko'nikmasining shakllanganligini baholash.

Shu sababli o'qitishning kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyalanganlik darajasini baholashda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabalarda axloqiy ong, fazilat va munosabatning shakllanganlik darajasi;

- talabalarning tarbiya bo'yicha ko'nikmasi va malakasining shakllanganlik darajasi;

- talabalarda tarbiya bo'yicha o'zlashtirilgan kompetensiyalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatining shakllanganlik darajasi;

- talabalarda tarbiya bo'yicha nazariya va amaliyotning uyg'un shakllanganlik darajasi.

Bunday yondashuv o'qitishning kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi.

O'qitishning kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini baholashda talaba jam'argan kreditlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda fanlar bo'yicha belgilangan kreditlar asosida baholash samarali hisoblanadi. Misol uchun, Etika tanlov fani bo'yicha 60 kredit belgilangan. Talaba mazkur kreditni jam'arsa uning tarbiyalanganlik darajasini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki tarbiyaga yo'naltirilgan fanlarning asoslaridan xabardor bo'lish tarbiyalanganlik mezonlari uchun asos hisoblanadi.

O'qitishning kredit-modul tizimida tarbiyalanganlik darajasi bo'yicha yagona muammo talabalar shaxsida tarbiya bo'yicha mavjud murakkabliklarni aniqlab bo'lmazligidir. Chunki talaba kredit-modul tizimida kreditlar to'plash bilan o'z imkoniyatlarini namoyon qiladi, bunda ularning tarbiyaviy xususiyatlari to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababli bu borada maxsus tuzilgan Testlar o'tkazish va ularning tahlili asosida tarbiyalanganlik darajasini baholash kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u butunlay yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu sababli bu borada kelgusida fundamental, ilmiy-nazariy, innovatsion va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etiladi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mazmuni deganda nimani tushunasiz?

2. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilish mexanizmlari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini baholash qanday bo'ladi?

4. Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy xususiyatlarini nimalar tashkil etadi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot:

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilishning asoslarini o'rganing.

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiya jarayonini tashkil qilishning mexanizmlarini o'zlashtiring va uni amaliyotda sinovdan o'tkazing.

Boshlang'ich ta'limda kredit-modul tizimi asosida tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslarini yod oling.

22-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda elektron-modulli o'qitish texnologiyasi
3. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish natijalarini baholash.

Tayanich tushunchalar: ta'lim, oliy, boshlang'ich, masofaviy, o'qitish, texnologiya, bilim, yondashuv, ko'nikma, malaka, tajriba.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi mazmuni. Boshlang'ich ta'limni amalga oshirish va mazkur ta'lim turi bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos o'qitish texnologiyalari mavjud. Ana Shunday yangi va samarali texnologiyalardan biri *masofaviy ta'lim texnologiyasidir.*

Masofaviy ta'lim – bu masofaviy ta'lim uslublariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim xizmatlari majmuidir.¹ Bu ta'lim texnologiyasida o'quv adabiyotlarining almashinish vositalariga (yer sun'iy yo'ldoshi, televideniye, radio, kompyuter va boshqalarga) tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan turib ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi. Ushbu texnologiya an'anaviy va ijtimoiy murakkab sharoitlarda qo'llash imkoniyatiga ega ekanligi bilan ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- masofaviy ta'lim o'qish va o'qitish jarayoniga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;
- pedagogik jarayonning maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga aniq yo'nalish beradi;
- metodologik va nazariy bilimlarni kutilgan darajada egallash

¹ Педагогика фанидан изоҳли луғат. Ж.Ҳасанбоев ва бошқ. –Т.: “Фан ва технология”. 2009. 262-бет.

imkoniyatlarini yaratadi;

- bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish sharoitlarini beradi;
- ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi bunday imkoniyatlar bilan boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli masofaviy ta'limning o'quv materiallarini tayyorlash bir necha bloklarga bo'linadi:

- kommunikativ blok (o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan tarzda tayyorlash);
- nazoratni amalga oshiruvchi blok (ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilib boruvchi manba);
- axborotli blok (o'quv materiallarini tayyorlashda nazariy, didaktik, amaliy va tasvirli tarzda tayyorlash);
- ta'limni boshqaruvchi blok (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning muloqotini ta'minlovchi manba);
- o'qitish blok (masofadan turib mavzu va modullarni tushuntirish, ular bo'yicha ta'lim oluvchilarning ko'nikmasini shakllantiruvchi manba).

Mazkur bloklar asosida masofaviy ta'limning o'quv materiallari tayyorlanadi va ularni o'qitish masofadan turib amalga oshiriladi.

Masofaviy ta'lim texnologiyasida axborot-kommunikatsion vositalardan keng foydalaniladi, uni amalga oshirishda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi faol ishtirok etadi.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish ikki shaklga ega:

1) oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash;

2) boshlang'ich ta'limni amalga oshirish.

Bu shakllar o'zaro uyg'un bo'lib, ular bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tegishli kompetensiya beriladi.

Masofaviy ta'lim texnologiyasining ildizlari 1932 yilda ta'lim bo'yicha Xalqaro kengashning sirtqi ta'lim yo'nalishida foydalanishiga borib taqaladi. 1982 yilda masofaviy ta'lim bo'yicha London shahrida Xalqaro kengash tuzilgan.

O'zbekistonla masofaviy ta'lim texnologiyasi 1980 yillardan

boshlab qo'llanilgan. Bunda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Kibernetika institutida BESM-6 rusumli elektron hisoblash texnikasi foydalanilgan, Jizzax va Nukus shaharlarida oftalmologiya shifoxonalarida teletayp apparati yordamida Toshkent shahridan turib bemorlarga amaliy tibbiy yordam ko'rsatilgan. Mustaqillik yillarida masofaviy ta'lim texnologiyasi oliy ta'lim jarayonida keng qo'llanila boshlandi.

Boshlang'ich ta'limda elektron-modulli o'qitish texnologiyasi. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasining asosiy shakllaridan biri *elektron-modulli* didaktik ta'minotdir.

Elektron – modulli o'qitish texnologiyasi kompyuter kabi texniko'quv jihozlardan foydalangan holda ta'lim berish majmuidir. Bunda elektron darsliklar, o'quv adabiyotlari va qo'llanmalari muhim o'rin tutadi. Unda elektron ta'lim resurslaridan oqilona foydalaniladi.

O'qitishning bir necha elektron-modulli texnologiyalari mavjud. Bu o'rinda e'tiboringizga *namuna* sifatida pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Q.Mardonov tomonidan ishlab chiqilgan "Virtual amaliy mashg'ulot" ishlanmasiga tortamiz. Mazkur ishlanma masofaviy o'qitish texnologiyasining asoslarini o'zida mujassam etgan.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish natijalarini baholash. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish natijalarini baholash bir necha vositalarga ega. Mazkur baholashda quyidagi o'quv –texnik jihozlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- kompyuter texnik vositasida ishlab chiqilgan baholash dasturiga asosan;

- xalqaro baholash dasturlariga asosan;

- maxsus tuzilgan testli dasturlarga asosan.

Ushbu baholash yondashuvlari masofaviy ta'lim vositasida o'zlashtirilganlarni xolis nazorat qilish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitish natijalarini baholashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

- talabalarning (o'quvchilarning) muayyan mavzu yoki modul bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini baholash;

- muayyan mavzu yoki modul bo'yicha ko'nikma va malakalarni baholash;

- muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilgan kompetensiyalarni baholash;

- o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini baholash.

Mazkur baholash mezonlari pedagogika ayni paytda, boshlang'ich ta'lim tajribasidan o'tgan. Shu sababli baholashning bu an'anaviy mezonlari ko'pgina rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tizimida qabul qilingan.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, mavjud ehtiyojlar va talablar asosida masofaviy ta'lim natijalarini baholash takomillashtirilib boriladi. Misol uchun, O'zbekiston ta'lim tizimiga 2020-2021 o'quv yilidan boshlab o'qitishning kredit-modul tizimi joriy etila boshlandi. Shu sababli yaqin kelajakda boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda mazkur modul asosida baholash amalga kiritiladi. O'qitishning kredit-modul tizimida masofaviy ta'lim natijalarini baholash talabalar (o'quvchilar) tomonidan to'plangan kreditlar asosida amalga oshiriladi. Shu jihatdan bu tizim vositasida masofaviy ta'lim natijalarini quyidagicha baholash imkoniyatlariga ega bo'linadi:

- o'quv fanini o'zlashtirishni kredit asosida baholash;

- o'quv fanining muayyan modulini o'zlashtirishni kredit asosida baholash;

- o'quv fanini o'zlashtirish natijasida erishilgan kompetensiyani kredit asosida baholash.

Eslatib o'tish joizki, bunday baholash tizimida har bir o'quv fanining o'z kredit o'lchovi bo'ladi. Misol uchun, "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining krediti 180 o'lchovli, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" o'quv fanining krediti esa 240 o'lchovli bo'lishi mumkin. Biroq, o'quv fanlarining turli kredit o'lchovlarga ega bo'lishi ularning kasbiy fanlarda tutgan o'rniga daxl qilmaydi. Shu jihatdan o'quv fanlarini masofaviy o'qitishning natijalarini kredit-modul tizimi asosida baholash ularni o'zlashtirganlik darajasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi didaktik yangilanib borish, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biridir.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi mazmuni deganda nimani tushunasiz?

2. Boshlang'ich ta'limda elektron-modulli o'qitish texnologiyasi asoslari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish natijalarini baholash qanday omillarga tayanadi?

4. Professor Sh.Q.Mardonov tomonidan masofaviy o'qitishning qanday elektron-modulli didkatik ta'minoti ishlab chiqilgan?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyasi asoslarini o'rganing.

Professor Sh.Q.Mardonov tomonidan shakllantirilgan elektron – modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtiring.

Boshlang'ich ta'limda masofaviy o'qitish natijalarini baholash omillarini konspekt qiling.

23-MAVZU: RIVOJLANGAN DAVLATLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlar
2. Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limning zamonaviy texnologiyalari
3. Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga doir zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: rivojlanish, davlatlar, ta'lim, boshlang'ich, innovatsiya, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlar. Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga doir innovatsion yondashuvlari pedagog olimlarning e'tiborini tortmoqda. Bu o'rinda avvalo, asosiy tushunchalarning mazmunini aniqlab olish lozim bo'ladi.

Rivojlangan davlatlar deganda quyidagi mezonlarga javob beruvchi mamlakatlar tushuniladi:

- bozor iqtisodiyotiga asoslangan barqaror ishlab chiqarishga egalik;
- davlat siyosatida ijtimoiy yo'nalishning ustuvor bo'lishi;
- tipik va innovatsion ta'lim tizimiga egalik;
- ijtimoiy rivojlanishda milliy modulga egalik va h.k

Mazkur mezonlar asosida rivojlanayotgan davlatlar Yevropa qit'asida ko'pchilikni, Osiyoda esa nisbatan kamchilikni tashkil etadi. O'zbekiston ham 2019 yildan boshlab rivojlangan davlatlar tarkibiga kiritilgan.

Boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuv deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- boshlang'ich ta'limning barcha uchun majburiyligi va bepulligi;
- boshlang'ich ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalarining

takomillashtirib borilishi;

- boshlang'ich ta'lim standartlari, o'quv rejaları, dasturlari va darsliklarining muntazam optimallashtirib borish imkoniyatlariga ega ekanligi;

- boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuvlarni joriy qilish mumkin bo'lgan tarzda ochiq bo'lishi;

- boshlang'ich ta'lim yutuqlarining universal xarakterga ega ekanligi;

- boshlang'ich ta'limning har bir davlat siyosatida ustuvor o'rin tutishi.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlarning asoslarini tashkil etadi.

Hozirgi zamon rivojlangan davlatlarida ehtiyoj va talablardan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limga nisbatan individual innovatsion yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Misol uchun, Finlandiya respublikasining boshlang'ich ta'limida quyidagi individual innovatsion yondashuvlar mavjud:

- a) boshlang'ich ta'limni xususiy sektor sifatida rivojlantirish;

- b) boshlang'ich ta'limga bir necha namunaviy o'quv dasturlarini tatbiq etish;

- v) boshlang'ich ta'lim yutuqlarini xalqaro miqyosda targ'ibot qilish;

- g) boshlang'ich ta'limda kam o'quv fanlari bilan ko'p bilim berish.

Bu innovatsion yondashuv Finlandiyaning ijtimoiy taraqqiyotiga mos bo'lsada, undan boshlang'ich ta'limda innovatsiya asosida rivojlantirishda foydalanish mumkin. Masalan, bu tajribadagi boshlang'ich ta'limni xususiy sektor sifatida rivojlantirish innovatsion omilga ega. Shu sababli mamalakatimiz O'zbekistonda ham davlat-sheriklik shaklidagi boshlang'ich ta'lim tizimini yo'lga qo'yish jarayoni kechmoqda.

Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limning zamonaviy texnologiyalari. Hozirgi zamon Yevropa va Amerika qit'asida rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy texnologiyalarning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'limni individual asosda amalga oshirish, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining miqdorini keskin kamaytirish va

har bir o'quvchi bilan individual Shug'ullanish;

- boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asosan amalga oshirish, ya'ni boshlang'ich ta'limda axborot-ta'lim tizimini yo'lga qo'yish;

- boshlang'ich ta'limda o'qituvchi avtoritetini kamaytirish, ya'ni kompyuter kabi o'quv-texnik jihozlar vositasida amalga oshirish va bunda o'qituvchining boshqaruvchilik rolini yo'naltiruvchilikka aylantirish;

- boshlang'ich ta'limda minimal fanlarni o'qitish, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakasini shakllantiruvchi asosiy fanlarni cheklanish.

Mazkur asosiy texnologiyalar Yevropa mamlakatlaridan Finlandiya, Germaniya, Avstriya kabi davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarning asosiy maqsadi 7-11 yoshli o'quvchilarni o'rinsiz o'quv yuklamalaridan ozod qilishdir.

Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga oid zamonaviy texnologiyalari asoslarida quyidagilar turadi:

- texnik taraqqiyotning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish;
- boshlang'ich ta'limni yuksak darajada moliyalashtirish va bundan manfaatdorlik;
- mudom boshlang'ich ta'lim mazmunini yangilab borish;
- boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchilarni maksimal darajada rag'batlantirish.

Bularning barchasi rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'lim texnologiyalarining rivojlanib borishiga va ularning xalqaro miqyosda ommalashuviga asos bo'lmoqda.

Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim texnologiyalarida har bir davlatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari va strategik mo'ljallari aks etishini eslatib o'tish joiz.

Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga doir zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish. Hozirgi zamon rivojlangan davlatlarida boshlang'ich ta'limga oid zamonaviy texnologiyalar ommaviyligi bilan e'tiborni tortadi. Bunday texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- texnologiyaning mamlakat milliy manfaatlariga va ehtiyojlariga mos tushishi;

- mavjud boshlang'ich ta'lim jarayonini kuchaytirishga xizmat qilishi;

- boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda oz mablag' va kam vaqt talab qilishi;

- tanlangan texnologiyaning milliy boshlang'ich ta'lim modelini yanada rivojlantirishi.

Mazkur asoslarga ko'ra, boshlang'ich ta'lim texnologiyalarini tanlash va foydalanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, rivojlangan davlatlardan Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limda ustuvor darajada amal qilinuvchi quyidagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich ta'limni ko'p tilli shaklda amalga oshirish (bunda boshlang'ich ta'limda ona tili va xorijiy tillar teng ishtirok etadi);

- boshlang'ich ta'limni eng so'ngi axborot texnologiyalari asosida amalga oshirish (kompyuter, mobil aloqa, videoanjuman, masofaviy ta'lim kabi shakllardan keng foydalanish);

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini optimallashtirib borish (bunda o'quv fanlarini gumanitar, tabiiy va amaliy turkumlarga bo'lib o'qitish);

- boshlang'ich ta'limga turli o'qitish texnologiyalarini joriy etish (an'anaviy va noan'anaviy o'qitish texnologiyalarini keng qo'llash).

Bunday optimal texnologiyalardan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalari zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlar deganda nimani tushunasiz?
2. Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limning zamonaviy texnologiyalarini nimalar tashkil qiladi?
3. Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga doir zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
4. Finlandiya va Rossiya davlatlarining boshlang'ich ta'lim texnologiyalari qanday xususiyatlarga ega?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga bo'lgan innovatsion yondashuvlarni o'rganing.

Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga doir zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtiring.

Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga oid zamonaviy texnologiyalarini pedagogik amaliyot davrida amaliyotda qo'llab ko'ring.

5-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYA

24-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYA MOHIYATI

Reja

1. Integratsiya tushunchasi
2. Boshlang'ich ta'limda integratsiya mazmuni
3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining integratsion faoliyat asoslari

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, integratsiya, tushuncha, mazmun, asos, bilim, yondashuv, dars, mashg'ulot, ko'nikma, tajriba.

Integratsiya tushunchasi. "Integratsiya" tushunchasi lotincha bo'lib, to'liq, yaxlit va bir butunlik ma'nolarini anglatadi. Atama sifatida integratsiya so'zi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini;
- 2) o'qitish jarayonining boshqa turdosh faoliyatlar bilan aloqadorligini.

XX asr oxirlarida butun dunyoda davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlari boshlandi. Buning natijasida ta'lim va ilm-fanda ham integratsion jarayonlari yuzaga kelib, unda g'oyaviy bog'liqlik, mavzuli aloqadorlik va ilmiy-metodik samaradorlik masalalarga alohida e'tibor berila boshlandi. Pedagogik nuqtai nazardan integratsiyaning quyidagi afzalliklari mavjud:

- o'quv rejalari, dasturlari va adabiyotlarini turdosh fanlar bilan aloqadorlikda tuzish, buning natijasida fanlar mavzularida takroriylikning yuzaga kelmasligi;
- ta'lim va tarbiya ishlarini turdosh fanlarning o'zaro bog'liqligida amalga oshirish;
- ta'lim muassasasining hamkorlik ko'lamining kengayishi;
- ta'lim beruvchilarning professional hamkasblari bilan o'zaro

aloqaga kirishishi;

- ilmiy ishlanmalarning amaliy xususiyatlari kuchayishi.

Integratsiyaning mazkur yutuqlari ta'lim va tarbiya tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, ularning xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini belgilash hamda ta'limning sifat samaradorligiga erishishda qo'l keladi.

Pedagogik integratsiyani yuzaga keltirish uchun bir necha talablar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalariga teng shart-sharoit yaratish va ularni bir xil texnologik jihozlash;

- fanlarning muammolarini hamkorlikda hal etish;

- ta'lim va tarbiya jarayonining texnologiyalari, metodlari va vositalarini manfaatdor muassasalar bilan birgalikda yaratish;

- ta'lim va tarbiya ishtirokchilarining nazariy bilimi, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borish.

Mazkur talablar pedagogik integratsiyaning mazmunini tashkil qiladi. Shu jihatdan integratsion jarayonlarni ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar, yondashuvlar hamda konsepsiyalarni yaxlit organizm sifatida tushunish kerak.

2018 yildan boshlab Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida integratsiyaning innovatsion pedagogik ta'lim klasteri joriy etila boshlandi.¹ Unga ko'ra, klaster usuli innovatsion pedagogik integratsiyaning asoslaridan biri sifatida qabul qilindi va mazkur innovatsion integratsiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- o'quv jarayoni va amaliyotning uyg'unligini birlamchi bilish;

- kafedralarning mahalliy va xalqaro hamkorligini qat'iy kuchaytirish;

- institutning Toshkent viloyati ta'lim muassasalari bilan nazariy va amaliy hamkorligini amalga oshirish;

- viloyatning ta'limga oid muammolarini barcha manfaatdorlar bilan birgalikda hal etish;

- pedagog kadrlarni tayyorlashda ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish;

- "Maktab-laboratoriya"lar tashkil etish.

Buning natijasida Institut va Toshkent viloyati ta'lim muassasalari o'rtasida o'ziga xos integratsion jarayonlar yuzaga keldi. Natijada institutning ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari amaliyot bilan bog'lana boshlandi, shuningdek, viloyat ta'lim muassasalarining muammolarini institut bilan hamkorlikda ilmiy, pedagogik va psixologik jihatdan hal etish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Pedagogik integratsiyada ta'lim beruvchilar va ta'limdan manfaatdorlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka asosiy e'tibor qaratiladi. Shu sababli hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim va tarbiyaning sifat samaradorligiga erishishda integratsiya jarayonlari innovatsion yondashuvlar bilan birgalikda muhim o'rin tutmoqda.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya mazmuni. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida keyingi yillarda integratsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda integratsiya muammolarini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan hal etilmaganligi mazkur jarayonni idrok etish ishlari qiyin kechmoqda. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga binoan boshlang'ich ta'limda integratsiya asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- o'quv rejaları va dasturlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda tuzilishi;

- o'quv adabiyotlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda yaratilishi va bunda mavzularning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bilan aloqadorlikda amalga oshirish;

- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoniga turdosh fanlar tajribasidan o'tgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;

- boshlang'ich ta'lim muammolarini pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan hamkorlikda ilmiy tatqiq etish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining optimal va uzviylik tamoyillariga asosan bog'liqligini ta'minlash;

- boshlang'ich ta'limning tajribaviy yutuqlarini boshqa ta'lim turlari va fanlariga taqdim etib borish.

Mazkur yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda integratsiyani tarkib toptirish mumkin. Aslida ta'limda integratsiya muayyan ta'lim

¹ Мухамедов Ф., Ходжамкулов У. Инновацион педагогик таълим кластери: таъриф, тасниф, таркиб. - Чирчик.: "Университет". 2018.

yoki o'quv fanining yutuqlarini ommalashtirish va o'zgalarning yutuqlarini o'zlashtirishdan iborat. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda integratsiya quyidagi mexanizmlarga asoslanadi:

- o'quv fanlarini turdosh ta'lim bosqichlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda o'qitish;

- o'quv adabiyotlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlikda yaratish;

- boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchilarning faoliyatini manfaatli hamkorlik asosida tashkil etish.

Ushbu mexanizmlarga asosan boshlang'ich ta'limda integratsiya jarayonini yuzaga keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida boshlang'ich ta'limda integratsiyani tarkib toptirish uchun quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- o'zaro uzviy bog'liq o'quv fanlarini birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish;

- o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish;

- fanlararo o'zaro aloqadorlikni qat'iy ta'minlash;

- yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish hamda nashr etish.

Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash natijasida O'zbekiston boshlang'ich ta'limida o'ziga xos integratsiya yuzaga keladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur asoslarni kutilgan darajada o'zlashtirishi va boshlang'ich ta'lim integratsiyasi muammolariga doir yaratilayotgan ilmiy ishlanmalardan xabardor bo'lib borishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining integratsion faoliyat asoslari. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (murabbiylari) hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida integratsion shaklda faoliyat yuritishi kerak. Bunday faoliyatning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

- o'quv dasturlarini hamkor o'qituvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish;

- murakkab mavzularni imkon qadar mutaxassislar ishtirokida

o'qitish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ta'limiy va tarbiyaviy maslahatlarga ega bo'lish;

- o'qituvchi kitobi bilan va imkon bo'lsa uning mualliflari bilan ishlash;

- maktab jamoasi va hududiy xalq ta'limi bo'limlariga o'z faoliyati bo'yicha ma'lumotlar taqdim qilib borish;

- o'zining individual ish uslubiga ega bo'lish.

Bu asoslarga tayangan holda faoliyat yuritish o'qituvchining fanlararo va faoliyat doirasida integratsiya ish yuritish hisoblanadi. Aslida boshlang'ich sinf o'qituvchilari deyarli barcha asosiy fanlar bo'yicha mutaxassislar sifatida maslahatchi maqomida turadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsion faoliyatga tayyorlash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- mutaxassislik va pedagogik fanlarni integratsion tarzda o'qitish;

- pedagogik integratsiya bo'yicha maxsus yoki fakultativ kurslar o'tish;

- fanlararo bog'lanishni tushuntirish;

- oliy ta'lim muassasasidan tashqari ta'lim muassasalari bilan bog'lanish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik integratsiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan ham tanishtirilishi kerak, afsuski, pedagogik integratsiya muammolariga doir mamlakatimizda ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli boshlang'ich ta'limga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, Farmonlari va Qarorlariga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlatimiz rahbarining konsepsiyasiga ko'ra, integratsiya – jamiyat tuzilmalarining barcha bo'g'inlarida tarkib topishi kerak, bundan maqsad yagona tizim va jarayonga ega bo'lishdir. Shu sababli yangidan yaratilgan "Milliy o'quv dasturi"da boshlang'ich sinf fanlarining o'zaro bog'liqlik jihatlari asosiy e'tibor qaratilgan. Misol uchun, Husnixat predmeti Ona tili va o'qish predmeti bilan yagona reja va dasturga ega. Bunda Ona tilining Husnixat va O'qish predmetlarini integratsiya qilib borishiga duch kelamiz.

Ayni paytda, fanlarning g'oyaviy bog'liqligi ularning individualligiga daxl qilmasligi kerak. Chunki har bir o'quv fanining

o'z obyekti va subyekti bor. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining integratsion faoliyati deganda ko'p hollarda uning turdosh fanlar mazmunidan xabardor bo'lishi tushuniladi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Integratsiya tushunchasi nimani anglatadi?
2. Boshlang'ich ta'limda integratsiya mazmuni deganda nimani tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining integratsion faoliyat asoslari nimalardan iborat?
4. Boshlang'ich ta'limda integratsiya mazmunini o'zlashtirish mumkinmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Ingliz pedagogi Robert Ouenning (1771-1858) quyidagi pedagogik g'oyalarini o'rganing.

Robert Ouen birinchi bo'lib pedagogik nazariya va pedagogik tajribani uyg'unlashtirib, pedagogik muammolarni hal etish uchun tajriba-sinov ishlari o'tkazishni ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, ta'lim qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar ta'lim oluvchining qiziqishlari va ehtiyojlarini qoniqtirishi lozim.

Pedagogning o'tkazgan amaliy tajribalariga ko'ra, o'quvchilarning xatolarini to'g'rilash imkoniyati mavjud. Buning uchun amaliy tajribalar o'tkazib, muammolarning yechimi topilishi kerak.

Robert Ouen deydi: "Ta'limda motivlar asosiy o'rin tutadi, unga ko'ra, insonni tarbiyalash—bu motivlar asosida uning xarakterini shakllantirishdir".

G'arb pedagogikasida Robert Ouenning "Pedagogik amaliyot" asari juda mashhur. U bu asarida jumladan Shunday deydi: "Bolalarning tarbiyasida sinfning qulayligi muhim ahamiyatga ega".

25-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSION DARSLAR

Reja:

1. Integratsion dars tushunchasi
2. Integratsion darslar turlari
3. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari

Tayanch tushunchalari: ta'lim, integratsiya, tushuncha, didaktika, o'qitish, dars, bilim, ko'nikma, o'qituvchi, boshlang'ich, sinf, samara.

Integratsion dars tushunchasi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ta'limning yanada samarali yo'llarini topish jarayoni kechmoqda. Pedagogik integratsiya ana shunday yo'llardan biri bo'lib, uning asoslaridan biri integratsion darslardir.

Integratsion dars—bu mavzularni va mashg'ulotlarni hamkorlikda, mutaxassislar ishtirokida va o'quvchilar faolligida o'tish jarayonidir. Integratsion darslarning maqsad—muddaosi quyidagilarga qaratiladi:

a) o'quvchilarning aqliy va emotsional qobiliyatlarini mutaxassislar ishtirokida rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab psixologining ishtiroki muhim hisoblanadi);

b) o'quvchilarning irodasini rivojlantirish va ularni stesslardan muhofaza qilish (misol uchun, bu borada maktab shifokorining yordami ahamiyatli hisoblanadi);

v) o'quvchilarning o'ziga ishonchini rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisining yordami muhimdir);

g) o'quvchilarning individual xarakterini rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisining yordami ahamiyatga ega).

E'tibor berilsa integratsion darslar o'z kasbining ustalari va mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf Matematika fanini o'qitishda maktab matematika fani o'qituvchilarining va ilmiy matematik olimlarning o'zaro hamkorligiga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu sababli integratsion

25-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSION DARSLAR

Reja:

1. Integratsion dars tushunchasi
2. Integratsion darslar turlari
3. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari

Tayanch tushunchalari: ta'lim, integratsiya, tushuncha, didaktika, o'qitish, dars, bilim, ko'nikma, o'qituvchi, boshlang'ich, sinf, samara.

Integratsion dars tushunchasi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ta'limning yanada samarali yo'llarini topish jarayoni kechmoqda. Pedagogik integratsiya ana shunday yo'llardan biri bo'lib, uning asoslaridan biri integratsion darslardir.

Integratsion dars – bu mavzularni va mashg'ulotlarni hamkorlikda, mutaxassislar ishtirokida va o'quvchilar faolligida o'tish jarayonidir. Integratsion darslarning maqsad – muddaosi quyidagilarga qaratiladi:

a) o'quvchilarning aqliy va emotsional qobiliyatlarini mutaxassislar ishtirokida rivojlantirish (misol uchun, bu borada maktab psixologining ishtiroki muhim hisoblanadi);

b) o'quvchilarning irodasini rivojlantirish va ularni stesslardan muhofaza qilish (misol uchun, bu borada maktab shifokorining yordami ahamiyatli hisoblanadi):

darslarni tashkil qilishda maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Bunday darslar har bir o'quv fanining 10-15 foiz mavzularini qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki integratsion darslar vositasida o'quvchilarga ko'p ma'lumotlar va tushunchalar berish imkoniyati mavjud.

Integratsion darslarning didaktik asoslari quyidagilardan iborat:

- darsda aniq muammoni qo'yish va dars oxirida muammoning yechimiga erishish;

- darsda har bir berilayotgan bilim va tushunchalarning ta'rifi hamda misollari keltiriladi;

- yangi mavzuni tushuntirishda imkon qadar mutaxassis yordamiga tayaniladi;

- dars davomida o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni savollar berish bilan tekshirib boriladi;

- darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarning bilimi va tushunchasi darhol baholanadi;

- dars yakunida beriladigan uy vazifalarini katta yoshlilar bilan hamkorlikda yechish nazarda tutiladi.

Bunday didaktik asoslarga ega bo'lgan mashg'ulotlar integratsion dars deb yuritiladi. Bu tipdagi darslarda muayyan mavzu bo'yicha o'quvchilarga keng tushunchalar, bilimlar va ko'nikmalar berish nazarda tutiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan integratsion darslarda o'tilishi lozim bo'lgan mavzular tanlanadi.

Integratsion darslar turlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida integratsion darslar turlari shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Shu sababli bu o'rinda e'tiboringizni integratsion darslarning quyidagi turlariga tortamiz:

1. Auktsion dars. Mazkur integratsion dars turi auktsion tarzda o'tkaziladi. Unga ko'ra, muayyan mavzular bo'yicha qisqacha tushuntirish berilib, o'quvchilarning fikri o'rganiladi va ular mutaxassis tomonidan baholab boriladi. Bunday darsda o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va guruh a'zolari qo'yilgan mavzular bo'yicha fikrlar taqdimotini o'tkazadi. Qaysi guruhning fikri mavzuni keng yoritib bersa, Shu guruh g'olib hisoblanadi va guruh a'zolarining har bir teng baholanadi. Auktsion dars yakunida uy vazifasi berilmaydi.

2. Hamkorlik darsi. Integratsion darsning bu turi muayyan mavzularni mutaxassislarning ishtirokida o'tkazishga asoslanadi. Unda

mutaxassis mavzuni ma'ruza tarzida tushuntiradi va dars yakunida o'quvchilarning savollariga javob beradi. Hamkorlik darsining amaliy mashg'uloti bo'lib, u maxsus dars sifatida o'tiladi. Unda mutaxassis ma'ruzasi muhokama qilinadi va o'quvchilarning mavzuni qanday tushunganligi hamda o'zlashtirganligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning muhokamada ishtirok etishiga tayanib ularning bilimini baholaydi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida har chorakda bir marta hamkorlik darsi o'tkazish tavsiya etiladi.

3. Innovatsion dars. Integratsion darsning bu turida ko'p hollarda kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Unga ko'ra, o'qituvchi tomonidan mavzu va uning matni kompyuter dasturiga joylashtiriladi. Dars jarayoni ham kompyuter vositasida o'tiladi va taklif qilingan mutaxassis yoki o'qituvchilar masofadan turib kompyuter vositasida dars jarayonini kuzatib boradi. Darsning yakunida bu kuzatuvchilar darsga nisbatan o'z munosabatini bildiradi va uning yangilik darajasini baholaydi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida innovatsion darslarni tashkil qilish o'qituvchining mahorat darajasi sifatida baholanmoqda.

Integratsion darslarning boshlang'ich ta'limdagi yangiligi mashg'ulotlarning mutaxassislarning ishtiroki va ularning yordamida o'tish bilan belgilanadi.

Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasida integratsion darslar maqsadga erishishning yo'llaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Integratsion darslarning samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining muayyan fan doirasida to'liq bajarilishi;

- har bir dars o'zaro tizimli bog'liqlikka ega bo'ladi;

- har bir dars o'qitishning ko'p variantli tamoyillariga asoslanadi va bunda o'qituvchi boshqaruvchi vazifasini bajaradi;

- har bir darsda imkoniyat doirasidagi texnik vositalar, metodlar va taklif etilgan o'qituvchi-mutaxassislarning yordamidan foydalaniladi;

- har bir dars o'quvchilarning faolligi asosida o'tkaziladi.

Integratsion darslarning bunday samaradorlik xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- innovatsion yondashuvlardan foydalanish;

- mavzularning o'zaro bog'liqligiga erishish;

- tushuntirish va o'zlashtirishning uyg'unlashuvi;
- o'quvchilarning faolligi.

Mazkur samaradorlik xususiyatlari hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki unda darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilmiy mutaxassislar yordamiga tayanib o'tish kutilgan samarani bermoqda. Bunday darslar ayniqsa, yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun juda qo'l keladi.

Integratsion darslarga qo'yiladigan talab mavzularni davlat ta'lim standartlari asosida yoritishdir. Shu sababli keyingi paytlarda integratsion darslarning didaktik asoslariga bo'lgan talab kuchayib bormoqda.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsion darslar asoslaridan xabardor bo'lishi taqozo etiladi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Integratsion dars tushunchasi qanday ma'noga ega?
2. Integratsion darslar turlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Integratsion darslarning asosiy turlarini o'rganish mumkinmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Mashhur amerikalik faylasuf-pedagog Djon Dyuning (1859-1952) quyidagi pedagogik g'oyalarni o'zlashtiring.

Pedagogning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi – insonni hayotga moslashtirish va amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Buning uchun bolalarni imkon qadar har biri mustaqil tarbiyalanishi va voyaga yetkazilishi kerak.

Pedagog olimning qarashlariga binoan bolalarning xususiyatlari quyidagi to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) har bir bolada ijtimoiy instinkt mavjud;
- 2) bolalardagi instinktlar rivojlanish xususiyatiga ega bo'ladi;
- 3) aynan instinktlar rivojlanib bolada quvvatga aylanadi;
- 4) bolalarni instinktini rivojlantirish bilan to'g'ri tarbiyalashga erishish mumkin.

26-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNING KLASSTER USULI

Reja:

1. O'qitishning klaster usuli mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli
3. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlari.

Tayanich tushunchalar: integratsiya, ta'lim, boshlang'ich, o'qitish, klaster, usul, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, o'rganish, o'zlashtirish.

O'qitishning klaster usuli mazmuni. *Klaster* tushunchasi G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarish aloqalarini yo'lga qo'yish mazmunida qo'llaniladi. O'qitishning klaster, ya'ni topshiriqlar usuli o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularning umumiy fikr doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan atamalar, tushunchalar va voqelikning bir-biri bilan *bog'liqligini* anglab olishga o'rgatuvchi uslubdir.¹ Pedagogik ta'limning innovatsion klaster usuli 2019 yili Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ilk bor strategik tadqiqotlar mavzusi sifatida belgilandi.²

O'qitishning klaster usulida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- ta'lim, ishlab chiqarish va manfaatdorlarning o'zaro bog'liqligi;
- biror mavzu yoki darsni o'qituvchi, taklif etilgan mutaxassis va maktab jamoasi ishtirokida o'tish;
- ta'lim oluvchilarning tashabbuslarini inobatga olish.

Bu yondashuv o'qitishning klaster usuli ma'no-mazmunini ifodalaydi. O'qitishning klaster usulining asosiy *maqsadi* quyidagilardan iborat:

- o'qitish jarayoniga eng so'nggi innovatsion yondashuvlarni olib kirish;

¹ Педагогика фанимдан изохли луғат. Ж.Хасанбоев ва бошқ. –Т.: “Фан ва технология”. 2009.222-бет.

² Мухамедов Ф., Ходжамкулов У. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф таснифи. – Чирчик., 2019.

- tushuntirish va o'zlashtirishning uyg'unlashuvi;
- o'quvchilarning faolligi.

Mazkur samaradorlik xususiyatlari hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki unda darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilmiy mutaxassislar yordamiga tayanib o'tish kutilgan samarani bermoqda. Bunday darslar ayniqsa, yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun juda qo'l keladi.

Integratsion darslarga qo'yiladigan talab mavzularni davlat ta'lim standartlari asosida yoritishdir. Shu sababli keyingi paytlarda integratsion darslarning didaktik asoslariga bo'lgan talab kuchayib bormoqda.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsion darslar asoslaridan xabardor bo'lishi taqozo etiladi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Integratsion dars tushunchasi qanday ma'noga ega?
2. Integratsion darslar turlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Integratsion darslarning asosiy turlarini o'rganish mumkinmi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Mashhur amerikalik faylasuf-pedagog Djon Dyuning (1859-1952) quyidagi pedagogik g'oyalarini o'zlashtiring.

Pedagogning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi – insonni hayotga moslashtirish va amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Buning uchun bolalarni imkon qadar har biri mustaqil tarbiyalanishi va voyaga yetkazilishi kerak.

Pedagog olimning qarashlariga binoan bolalarning xususiyatlari quyidagi to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) har bir bolada ijtimoiy instinkt mavjud;
- 2) bolalardagi instinktlar rivojlanish xususiyatiga ega bo'ladi;
- 3) aynan instinktlar rivojlanib bolada quvvatga aylanadi;
- 4) bolalarni instinktini rivojlantirish bilan to'g'ri tarbiyalashga erishish mumkin.

26-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNING KLASTER USULI

Reja:

1. O'qitishning klaster usuli mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli
3. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlari.

Tayanch tushunchalar: integratsiya, ta'lim, boshlang'ich, o'qitish, klaster, usul, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, o'rganish, o'zlashtirish.

O'qitishning klaster usuli mazmuni. *Klaster* tushunchasi G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarish aloqalarini yo'lga qo'yish mazmunida qo'llaniladi. O'qitishning klaster, ya'ni topshiriqlar usuli o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularning umumiy fikr doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan atamalar, tushunchalar va voqelikning bir-biri bilan *bog'liqligini* anglab olishga o'rgatuvchi uslubdir.¹ Pedagogik ta'limning innovatsion klaster usuli 2019 yili Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ilk bor strategik tadqiqotlar mavzusi sifatida belgilandi.²

O'qitishning klaster usulida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- ta'lim, ishlab chiqarish va manfaatdorlarning o'zaro bog'liqligi;
- biror mavzu yoki darsni o'qituvchi, taklif etilgan mutaxassis va maktab jamoasi ishtirokida o'tish;
- ta'lim oluvchilarning tashabbuslarini inobatga olish.

Bu yondashuv o'qitishning klaster usuli ma'no-mazmunini ifodalaydi. O'qitishning klaster usulining asosiy *maqsadi* quyidagilardan iborat:

- o'qitish jarayoniga eng so'nggi innovatsion yondashuvlarni olib kirish;

¹ Педагогика фанимдан изоҳли лугат. Ж.Хасанбоев ва бошқ. –Т.: “Фан ва технология”. 2009.222-бет.

² Мухамедов Ф., Ходжамкулов У. Педагогик таълим инновацион кластери:таъриф, тавсиф тасниф. – Чирчик., 2019.

- o'qitish usulining samaradorligi uchun o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, adabiyotlar, vositalar hamda didaktik materiallarni uyg'unlikda tayyorlash;

- o'qitish jarayoniga keng ko'lamli mutaxassislarni jalb etish.

Umuman o'qitishning klaster usuli maqsadi mashg'ulotlarni jamoaviy tarzda amalga oshirishga asoslanadi.

O'qitishning klaster usulining *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- mamlakatning boshlang'ich ta'lim tizimini zamonaviy bilim, malaka va kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash;

- oliy pedagogik ta'lim jarayonini ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar va ta'lim muassasalari vakillarining teng ishtirokida amalga oshirish;

- o'qitish jarayonini izchillik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillarining uyg'unlashgan tarzida amalga oshirish;

- o'qitish jarayonini manfaatdorlarning hamkorligi asosida jamoaviy boshqarish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish bilan o'qitish jarayonining sifat va samaradorligiga erishiladi. Shu jihatdan o'qitishning klaster usuli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) innovatsion yondashuvchanlik;

2) hamkorlik;

3) innovator o'qituvchilarga ega bo'lish.

E'tibor berilsa, bu tamoyillar o'qitishning klaster usuli innovatsion xarakterda ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida o'qitishning klaster usuli endi joriy etilmaqda. Shu jihatdan quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

- o'qitishning klaster usuli bo'yicha nazariy-metodologik ishlanmalar yaratish;

- bo'lajak o'qituvchilarga o'qitishning klaster usuli bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya berish;

- ta'lim oluvchilar va ta'limdan manfaatdorlarning o'qitishning klaster usuli bo'yicha ko'nikmasini shakllantirish;

- ta'lim muassasasida o'qitishning klaster usuliga amal qilishga doir sharoit va muhit yaratish.

Bu masalalarni ijobiy hal qilish natijasida o'qitishning klaster usuliga o'tish mumkin.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli. Bugungi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish jarayoni kechmoqda. Ulardan biri o'qitishning klaster usulidir.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usulining asosiy *maqsadi* boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzular, darslar va o'quv fanlarini o'qituvchilar, o'quvchilar, maktab jamoasi hamda mutaxassislar ishtirokida hamkorlikda amalga oshirishdir. Bunda mavzularni yoki o'quv fanlarini tushuntirishda keng jamoatchilikning imkoniyatlaridan va keng ko'lamli ma'lumotlardan oqilona foydalanish nazarda tutiladi.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- maktab jamoasining boshlang'ich ta'lim bo'yicha ilg'or mutaxassislari, ilmiy va o'quv markazlari bilan hamkorlikda dars o'tishi bo'yicha rejaga ega bo'lishi;

- boshlang'ich ta'lim mavzularini chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan ma'lumotlar asosida o'tish;

- boshlang'ich ta'lim darslarini an'anaviy va noan'anaviy mashg'ulotlar shakllarida tashkil qilish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikda o'qitish;

- boshlang'ich ta'limda klaster usulini joriy etish jarayonini monitoring qilib borish.

Bu vazifalarni amalga oshirish bilan boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda klaster usuli imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda o'qitishning klaster usulidan foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun boshlang'ich ta'limda klaster usuli bo'yicha bilim berish;

- pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishning klaster usuli bo'yicha malakasini tarkib toptirish;

- boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli bo'yicha metodologik asoslarini ishlab chiqish;

- boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuliga doir xalqaro tajribalarni o'rganish.

Mazkur masalalarni hal qilish boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda klaster usulidan oqilona foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'qitishning klaster usulini boshlang'ich ta'limga joriy etishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlar turkumlariga bo'lib o'qitish;

- mazkur turkumlar bo'yicha mutaxassislarni, ilmiy va o'quv markazlarini boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlariga keng jalb etish;

- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining klaster usulida o'qitish jarayonini Sinf rahbari tomonidan nazorat qilib borilishi.

Bunday yondashuv qo'yilayotgan muammoning yechimini ijobiy hal qilishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usulini joriy etish uchun asosiy *metodlarni* belgilab olish kerak. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu metodlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) uzviylik;
- 2) hamkorlik;
- 3) samaradorlik.

Uzviylik metodi boshlang'ich ta'limning mavzulari, darslari va o'quv fanlarini ketma-ketlikda amalga oshirishga asoslanadi. Misol uchun, O'qish fanining mavzusi Ona tili fanining mavzusi bilan uzviylikda o'qitilishi kerak. Bunda uzviylik deganda tushunchalar va bilimlarni ketma-ketlikda berish tushuniladi.

Hamkorlik metodi boshlang'ich ta'limni undan manfaatdorlar bilan amalga oshirishga asoslanadi. Masalan, dars jarayonini amalga oshirishda o'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlik qilishi kutilgan samarani beradi. Bunda ota-onalar o'quvchilarning darslarni o'zlashtirganligi yoki o'zlashtirmaganligi to'g'risida axborot beruvchi hisoblanadi.

Samaradorlik metodi boshlang'ich ta'limning mavzulari, darslari, o'quv fanlari va tarbiya jarayonini kutilgan darajada amalga oshirishga asoslanadi. Misol uchun, boshlang'ich ta'limda o'qitish va

tarbiyalash jarayoni teng samarani berishi kerak. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maktab jamoasining birligi muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlari endi shakllantirilmoqda. Shu sababli bu borada quyidagilarni amalga oshirish zarurat bo'lib turibdi:

- o'qitishning klaster usuli metodlarini tadqiq etish va ularning asosiylarini belgilash;

- bunday metodlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va shundan keyin ularni ommaviylashtirish;

- metodlarni boshlang'ich ta'limga joriy etishning metodologik asoslarini yaratish;

- mazkur metodlar bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli pedagogik innovatsion tizimning negizlaridan biri sifatida amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. O'qitishning klaster usuli mazmuni nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usuli deganda nimalarni tushunasiz?
3. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlarini nimalar tashkil qiladi?
4. Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli qanday jarayon hisoblanadi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

O'qitishning klaster usuli mazmunini o'rganing va ularni konspekt qiling.

Boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning klaster usulini o'zlashtiring va yodda saqlang.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishning klaster usuli metodlarini yodlang.

27-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "MAKTAB – LABORATORIYA" USULI

Reja:

1. "Maktab – laboratoriya" usulining mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda maktab – laboratoriya tashkil qilish asoslari
3. Boshlang'ich ta'limni maktab – laboratoriya usuli asosida amalga oshirish omillari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, maktab, laboratoriya, usul, yondashuv, tamoyil, bilim, ko'nikma, o'rganish, o'zlashtirish.

"Maktab – laboratoriya" usulining mazmuni. O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik ta'limning innovatsion klaster usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish jarayoni kechmoqda. Ana shunday innovatsion usullardan biri "Maktab-laboratoriya" dir.

"Maktab-laboratoriya" usuli innovatsion yondashuv bo'lib, unda muayyan yangi loyihalar yoki ilmiy tadqiqotlarning natijalari belgilangan maktablarda tajriba-sinovdan o'tkaziladi.¹ Shu jihatdan "Maktab-laboratoriya" o'ziga xos *tajriba-sinov maydonchasidir*. Bu tajriba-sinov maydonchasida quyidagilar amaliyotdan o'tkaziladi:

- pedagogik muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy mavzular va loyihalarni sinovdan o'tkazish;
- o'qitishning innovatsion, integratsion va yangi texnologik modullarini sinovdan o'tkazish;
- tarbiyaga doir yangi yondashuvlar, modellar va uslublarni sinovdan o'tkazish;
- o'qituvchilarning individual va ilg'or o'qitish uslublarini ommaviylashtirish.

Shu jihatdan "Maktab-laboratoriya" tizimining asosiy *maqsadi* ta'lim va tarbiyaga oid hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning xulosalarini tajriba-sinovdan o'tkazish maydonidir.

Mazkur tajriba-sinov maydonchasining asosiy *vazifalarini* quyidagilar tashkil etadi:

- muammolar va loyihalarni amaliyotga bog'lash, ularning haqqoniyligini tasdiqlash;
- pedagogik yutuqlarni tajribaviy asosda ommalashtirib borish;
- maktab o'qituvchilarini ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish;
- ilmiy-tajriba ishlarini maktab o'qituvchilari va mutaxassislar hamkorligida o'tkazish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion vositalar bilan izchil ta'minlab borish.

Shu sababli "Maktab-laboratoriya" tizimi hozirgi zamon O'zbekiston ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirish ishida muhim o'rin tutadi. Misol uchun, bugungi kunda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan Toshkent viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablarida 25 ta "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchalari tashkil etilgan. Unda institutning professor-o'qituvchilari va umumta'lim maktablarining o'qituvchilari faol ishtirok etmoqda. Buning natijasida oliy pedagogik ta'lim va maktab ta'limi o'rtasida ilmiy-amaliy aloqalar, maktab o'qituvchilarini ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish hamda ta'lim-tarbiya muammolarini innovatsion hal etish yutuqlariga erishildi. Shu jihatdan "Maktab-laboratoriya" tizimi amaliy natijalarni berishi namoyon bo'ldi.

Boshlang'ich ta'limda maktab-laboratoriya tashkil qilish asoslari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limini davr talablariga mos rivojlantirish asoslaridan biri "Maktab-laboratoriya" usulidir. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" usulini joriy etish uchun avvalo uni munosib darajada tashkil etish lozim bo'ladi. Bunda quyidagi tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

1. *Kelishuv.* Bunda quyidagilar amalga oshiriladi:
 - geografik jihatdan yaqin bo'lgan oliy ta'lim muassasasi va umumiy o'rta ta'lim maktabi o'rtasida "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasini tashkil etish to'g'risida kelishuv tuziladi;
 - bunda tomonlarning vazifalari aniq belgilab qo'yiladi;

¹ Қаранг: Курносова С.А. Школа-лаборатория как одна из форм исследовательской деятельности учителей// Вестник КГУ.№ 1, 2008.- С.61-64. Ходжамкулов У. Мактаб-лаборатория. – Чирчик, 2019.

- tuzilgan "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasining funksiyalari belgilanadi.

2. *Yo'nalish.* Bunda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasining quyidagi yo'nalishlar bo'yicha vazifalari belgilanadi:

- tajriba-innovatsion yo'nalishi bo'yicha;
- ilmiy-uslubiy yo'nalishi bo'yicha;
- ilmiy tadqiqot yo'nalishi bo'yicha;
- axborot-tahlil yo'nalishi bo'yicha.

Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tashkil qilinadigan "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasi innovatsion, ilmiy-uslubiy, ilmiy tadqiqot va axborot-tahliliy yo'nalishlar bo'yicha amaliy ishlarni amalga oshiradi.

1. *Monitoring.* Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilanadi:

- "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasining amalga oshirgan ishlarini oylik, choraklik va yillik monitoring qilib borish;
- monitoring natijasida amalga oshirilgan ishlarning yutuqlarini baholash va kelgusi ishlar yo'nalishlarini belgilash;
- monitoring natijasida tajriba-sinov maydonchasining faoliyatini takomillashtirib borish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasi tashkiliy jihatdan o'ziga xos tarzda yo'lga qo'yiladi.

Boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasini tashkil etish quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) maydonchanning tajriba-sinov uchun ilmiy-uslubiy ta'minotini tayyorlash;
- 2) maydonchanning tajriba-sinov ishlari rejasi yoki yo'l xaritasini ishlab chiqish;
- 3) ishlab chiqilgan reja yoki yo'l xarita asosida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;
- 4) maydonchanning tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish.

Bu ishlar "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasi uchun tuzilgan guruh tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur bosqichlardagi vazifalar tajriba-sinov maydonchasining faoliyati asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov may-

donchasini tashkil etish bilan mazkur ta'lim turining sifat va samaradorligiga kutilgan darajada erishish nazarda tutiladi.

Boshlang'ich ta'limni maktab – laboratoriya usuli asosida amalga oshirish omillari. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy sifat va samaradorligiga erishishda pedagogik innovatsion ta'lim usullaridan biri "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasi muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagi omillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

1. *Muammoni qo'yish.* Bunda quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonidagi tezkor hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni belgilash;
- boshlang'ich ta'limda o'quv jarayoni bo'yicha yangi yondashuvlar, usullar, vositalar va texnologiyalarni tajriba-sinovdan o'tkazishni mo'ljallash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy faoliyatga jalb etishni rejalashtirish.

2. *Amaliy faoliyat.* Bunda quyidagilar amalga oshiriladi:

- reja yoki yo'l xaritasi asosida boshlang'ich ta'lim muammolarining yechimlari amaliy sinovdan o'tkaziladi;
- o'qitish va tarbiyalash jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish sinovdan o'tkaziladi;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy faoliyati yo'lga qo'yiladi.

3. *Tahlil.* Bunda quyidagilar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlanadi:

- boshlang'ich ta'limdagi ta'lim, tarbiya va ilmiy loyihalar muammolarining natijalarini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy ishlanmalarini muhokama qilish va ommaviylashtirish;
- tajriba-sinov maydonchasining kelgusi faoliyat vazifalarini belgilab olish.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasini tashkil etish omillari mavjud muammolarni ilmiy, amaliy va fundamental jihatdan hal qilishga yo'naltirilgan. Shu sababli bu tizimga keyingi paytlarda qiziqish bilan qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" tizimini tashkil

qilish bilan mazkur ta'lim tizimining samaradorligini oshirish ilk rejada turadi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylarining ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishini taqoza etmoqda. Chunki ilmiy faoliyat ko'nikmasiga ega boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan kundalik yoki doimiy muammolarni hal etib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda "Maktab-laboratoriya" tajriba-sinov maydonchasi eng avvalo o'qituvchilarni ilmiy faollashtirish jarayoni hisoblanadi.

Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Maktab-laboratoriya" tizimi bo'yicha ishlashga tayyorlash taqoza etiladi. Bu borada Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida muayyan tajriba to'planligini eslatib o'tish joiz.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" usuli (tizimi, tajriba-sinov maydonchasi) hozirgi zamon pedagogik ta'lim innovatsion yondashuvlaridan biri bo'lib, u boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini oshirish omillaridan hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. "Maktab – laboratoriya" usulining mazmuni nimadan iborat?
2. Boshlang'ich ta'limda maktab – laboratoriya tashkil qilish asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich ta'limni maktab – laboratoriya usuli asosida amalga oshirish omillaridan nimalarni bilasiz?
4. Boshlang'ich ta'limda "Maktab-laboratoriya" usulini joriy etish qanday natijalar beradi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

"Maktab – laboratoriya" usulining mazmunini o'rganing va uning o'zigi xos xususiyatlariga e'tibor bering.

"Maktab – laboratoriya" usulini boshlang'ich ta'limda tashkil etish asoslarini konspekt qiling.

Boshlang'ich ta'limni "Maktab – laboratoriya" usuli asosida amalga oshirish omillarini eslab qoling.

28-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA MAHORAT DARSLARI USULI

Reja:

1. Mahorat darslarining mazmuni
2. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslari
3. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligi

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, mahorat, dars, usul, samara, bilim, ko'nikma, kompetensiya, individuallik, tajriba, om-maviylik.

Mahorat darslarining mazmuni. Bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonini mazmun, uslub va yondashuv jihatlaridan yangilab borish dolzarb bo'lib turibdi. Buning uchun boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning an'anaviy va noan'anaviy tajribalaridan uyg'un foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan "Mahorat darslari" tajribasi muhim omillardan biri hisoblanadi.

"Mahorat darslari" o'zbek va jahon pedagogikasida keyingi ikki asr davomida shakllanib hamda rivojlanib kelmoqda. Avvalo ta'kidlash lozimki, *mahorat* – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengil, mehnatning yuqori sifati va barqaror sur'ati uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.¹ Shu jihatdan mahorat mutaxassis shaxsning tajriba orqali orttirgan o'ziga xos ko'nikma va ijodkorligining majmui hisoblanadi.

Mahorat darsi – tegishli tayyor ko'nikma va malakalarga tayanib muayyan mavzuni noan'anaviy usullar vositasida o'tish jarayonidir. Mazkur darslar tajribali va ilg'or mutaxassislar hamda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Bunday darslarni o'tkazishdan maqsad quyidagilar hisoblanadi:

- ilg'or o'qituvchilarning individual tajribasini jamoaga uzatish;
- yosh mutaxassislar uchun saboq berish;

¹ Педагогика фанидан изоҳли лугат. Ж. Ҳасанбоев ва бошқ. – Т.: "Фан ва технология". 2009. 304-бет

- o'qituvchi va murabbiylarning ko'nikmalarini rivojlantirib borish;

- jamoaning umumiy tajriba darajasini yuksaltirish.

Mahorat darslari maxsus tashkil etilishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonini mahorat darslari vositasida tashkil qilish samarali hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatning tajribali va mahoratli mutaxassislari darslarini tashkil etish;

- xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi mohir mutaxassislarning darslarini masofaviy ta'lim asosida tashkil qilish;

- mahorat darslarining natija ko'lamini monitoring qilib borish;

- har oyda bir marotaba "Mahorat darsi" o'tkazishga erishish;

- talabalarning ham sinovdan o'tkazuvchi darslarini tashkil qilib borish.

Buning natijasida oliy pedagogik ta'lim jarayoni kuchayadi. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarining muhim mavzularini mahorat darslari vositasida o'tish samarali hisoblanadi. Chunki buning imkoniyati mavjud bo'lib, mamlakatimizda turli muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zgacha aytganda har bir mavzuning o'z egasi bor, shu sababli ana shunday mutaxassislarni mahorat darslariga jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida mahorat darslarining muhim o'rni bor. Shu sababli boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- har bir o'quv fani yoki muhim mavzular bo'yicha mahorat darslarini o'tkazish rejasini tuzish;

- mahorat darslariga jalb qilinadigan mutaxassislarning va o'qituvchilarning bilan doimiy aloqada bo'lish;

- imkon qadar maktabning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- ta'lim maskani joylashgan hududdagi institut, ilmiy va o'quv markazlari bilan hamkorlik qilish;

- mahorat darslari natijasini bayonlashtirib borish.

Boshlang'ich ta'lim darslarini mahorat darslari vositasida o'tish qiziqarli va samarali bo'lib, unda o'quvchilarga ko'proq ma'lumot

va axborot berish imkoniyati mavjud. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish bilan quyidagilarga erishish nazarda tutiladi:

- mavzularni chuqurlashtirilgan tarzda o'tish;

- darsning qiziqarli bo'lishiga erishish;

- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kuchaytirish;

- darsning sifat va samaradorligini ta'minlash.

Har bir maktabning shunday imkoniyati mavjudki, unga ko'ra, mohir va tajribali o'qituvchilarga ega. Bu toifa o'qituvchilar mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish mas'ullari sifatida belgilab qo'yilishi lozim. Ayniqsa, bunday imkoniyatdan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, Ona tili o'quv fanining ko'pgina mavzularini maktab o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi ishtirokida o'tkazish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil etish ishi uchun hududiy xalq ta'limi bo'limlarining metodistlari asosiy vazifani bajarishi kerak. Chunki bunday metodistlar shu hududdagi mohir va tajribali o'qituvchilar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, muayyan hududdagi maktablarning mahorat darslari bo'yicha hamkorlik qilishi yanada samarali hisoblanadi. shuni ta'kidlash lozimki, mahorat darslari har bir o'qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirib borishga asos hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining sifat va samaradorligini baholashda mahorat darslarining ham ahamiyati katta. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligini baholashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- dars o'qituvchi tomonidan mavzuning yoritilish darajasi;

- dars o'qituvchi tomonidan darsda qo'llanilgan jihozlar, vositalar va metodlarning originalligi;

- o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi;

- darsga berilgan kuzatuvchining bahosi.

Aynan mana shu indikatorlar asosida boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan mahorat darslarining samaradorligi baholanadi. Shu sababli mahorat darslarida quyidagilarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- fan o'qituvchisi va Sinf rahbarining ishtiroki;

- maktab jamoasi o'qituvchilarining kuzatuvchi guruhi ishtiroki;

- o'qituvchi va murabbiylarning ko'nikmalarini rivojlantirib borish;

- jamoaning umumiy tajriba darajasini yuksaltirish.

Mahorat darslari maxsus tashkil etilishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonini mahorat darslari vositasida tashkil qilish samarali hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatning tajribali va mahoratli mutaxassislari darslarini tashkil etish;

- xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi mohir mutaxassislarning darslarini masofaviy ta'lim asosida tashkil qilish;

- mahorat darslarining natija ko'lamini monitoring qilib borish;

- har oyda bir marotaba "Mahorat darsi" o'tkazishga erishish;

- talabalarning ham sinovdan o'tkazuvchi darslarini tashkil qilib borish.

Buning natijasida oliy pedagogik ta'lim jarayoni kuchayadi. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarining muhim mavzularini mahorat darslari vositasida o'tish samarali hisoblanadi. Chunki buning imkoniyati mavjull bo'lib, mamalakatimizda turli muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zgacha aytganda har bir mavzuning o'z egasi bor, shu sababli ana shunday mutaxassislarni mahorat darslariga jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslari. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida mahorat darslarining muhim o'rni bor. Shu sababli boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- har bir o'quv fani yoki muhim mavzular bo'yicha mahorat darslarini o'tkazish rejasini tuzish;

- mahorat darslariga jalb qilinadigan mutaxassislar va o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lish;

- imkon qadar maktabning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- ta'lim maskani joylashgan hududdagi institut, ilmiy va o'quv markazlari bilan hamkorlik qilish;

- mahorat darslari natijasini bayonlashtirib borish.

Boshlang'ich ta'lim darslarini mahorat darslari vositasida o'tish qiziqarli va samarali bo'lib, unda o'quvchilarga ko'proq ma'lumot

va axborot berish imkoniyati mavjud. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish bilan quyidagilarga erishish nazarda tutiladi:

- mavzularni chuqurlashtirilgan tarzda o'tish;

- darsning qiziqarli bo'lishiga erishish;

- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kuchaytirish;

- darsning sifat va samaradorligini ta'minlash.

Har bir maktabning shunday imkoniyati mavjudki, unga ko'ra, mohir va tajribali o'qituvchilarga ega. Bu toifa o'qituvchilar mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish mas'ullari sifatida belgilab qo'yilishi lozim. Ayniqsa, bunday imkoniyatdan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, Ona tili o'quv fanining ko'pgina mavzularini maktab o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi ishtirokida o'tkazish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil etish ishi uchun hududiy xalq ta'limi bo'limlarining metodistlari asosiy vazifani bajarishi kerak. Chunki bunday metodistlar shu hududdagi mohir va tajribali o'qituvchilar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, muayyan hududdagi maktablarning mahorat darslari bo'yicha hamkorlik qilishi yanada samarali hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mahorat darslari har bir o'qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirib borishga asos hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining sifat va samaradorligini baholashda mahorat darslarining ham ahamiyati katta. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligini baholashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- dars o'tuvchi tomonidan mavzuning yoritilish darajasi;

- dars o'tuvchi tomonidan darsda qo'llanilgan jihozlar, vositalar va metodlarning originalligi;

- o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi;

- darsga berilgan kuzatuvchining bahosi.

Aynan mana shu indikatorlar asosida boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan mahorat darslarining samaradorligi baholanadi. Shu sababli mahorat darslarida quyidagilarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- fan o'qituvchisi va Sinf rahbarining ishtiroki;

- maktab jamoasi o'qituvchilarining kuzatuvchi guruhi ishtiroki;

- maktab psixologining ishtiroki.

Mazkur ishtirokchilar mahorat darsining mazmuni, sifati va darajasini baholaydi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligiga erishish uchun quyidagi shakllarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- an'anaviy dars shaklida;
- masofaviy ta'lim shaklida;
- onlayn tarzidagi elektron – modulli ta'lim shaklida;
- videoanjuman shaklida.

Bu dars shakllari boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil etish bilan o'quvchilarning quyidagi darajalarda mavzuni o'zlashtirishiga erishiladi:

- 1) tanishuv darajasi (o'quvchilarning yangi mavzu va yangi o'qituvchini qabul qilishi);
- 2) algoritmik daraja (o'quvchilarning mavzuni xotirasida yaxshi saqlab qolishi);
- 3) evristik daraja (o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishi va yangi bilimga ega bo'lishi).

Aynan mana shu darajalarga muvofiq mahorat darslarining samaradorligini baholab borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda mahorat darslari usulining ahamiyati kattadir.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Mahorat darslarining mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligi qanday baholanadi?
4. Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligida mahorat darslari qanday o'rin tutadi?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Mahorat darslarining mazmuni va mohiyatini o'rganing, pedagogik amaliyot davrida mohir o'qituvchilar bilan hamkorlik qiling.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarini tashkil qilish asoslarini o'zlashtiring.

Boshlang'ich ta'limda mahorat darslarining samaradorligini baholash asoslarini konspekt qiling.

29-MAVZU: RIVOJLANGAN DAVLATLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH TAJRIBALARI

Reja:

1. Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi
2. Amerika qit'asi mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi
3. Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi

Tayanch tushunchalar: ta'lim, boshlang'ich, rivojlanish, davlat, integratsiya, tajriba, ilm, o'rganish, o'zlashtirish, tajriba.

Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi. Hozirgi zamon Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni integratsiya, ya'ni hamkorlikda tashkil etish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Unga ko'ra, rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'lim tajribasi o'zga davlatninshg boshlang'ich ta'limiga tadbiiq etilmoqda. Bu o'rinda Yevropa davlatlarining ayrimlarida boshlang'ich ta'limni tashkil etish tajribasiga e'tiboringizni tortamiz.

Buyuk Britaniyada boshlang'ich ta'limni tashkil etishda aniq fanlarning ko'proq o'qitilishiga e'tibor beriladi. Bu yondashuvga ko'ra Matematika kabi o'quv fanining o'quvchilarning aqlini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. shuningdek, mazkur mamlakat dunyodagi boshlang'ich ta'lim tajribalarini muntazam o'rganib boradi.

Germaniyada boshlang'ich ta'limni tashkil etishda gumanitar fanlarning ustuvorligiga duch kelamiz. Mazkur mamlakatning ta'lim mafkurasiga ko'ra, gumanitar fanlar shaxsni oliyjanob qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli bu mamlakatda boshlang'ich sinfdayoq o'quvchilar ongiga "olmon- ulug' millat" milliy g'oyasi singdiriladi. shuningdek, bu mamlakatda dunyodagi har bir mamlakatning boshlang'ich ta'limi to'g'risida xohlagan axborotni

olish imkoniyati mavjud.

Italiya boshlang'ich ta'limida tabiiy fanlarni ustuvor darajada o'qitilishiga duch kelamiz. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiat, koinot va dunyodagi tabiiy muhit to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Shu sababli boshlang'ich ta'limda Biologiya va Antropologiya fanlari o'qitila boshlanadi.

Keltirilgan namunalardan ma'lum bo'ladiki, Yevropaning rivojlangan davlatlarida boshlang'ich ta'limga o'ziga xos tarzda yondashuv mavjud. Ayni paytda, Yevropa mamlakatlarining boshlang'ich ta'limida quyidagi umumiyliklar mavjudligini eslatib o'tish joiz:

- har bir sinfdagi o'quvchilar sonining 10 nafardan oshmasligi;
- eng zaruriy fanlarning o'qitilishi;
- boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda milliy mafkuraga asoslanishi;
- boshlang'ich ta'lim bo'yicha hamkorlikning keng yo'lga qo'yilganligi.

Bizningcha bu tajribani o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amerika qit'asi mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi. Amerika qit'asidagi rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limida ingliz-ispn ta'lim modelining ta'siri ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda asosan milliy g'oyaga asoslanish va o'quvchilarning ongiga dunyo fuqarosi g'oyasini singdirishga e'tibor beriladi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari boshlang'ich ta'limida "amerikalik - kuchli inson" g'oyasi asosida ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Amerikaning barcha shtatlarida quyidagi shakldagi boshlang'ich ta'lim maktablari faoliyat yuritadi:

- federal (davlat) boshlang'ich ta'lim maktablari;
- xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari;
- mintaqaviy boshlang'ich ta'lim maktablari.

Mazkur maktablarda ingliz tiliga asoslangan amerika tili ustuvor darajada o'qitiladi. Ularda "Antropologiya" fani ijtimoiy-gumanitar fanlarning negizi hisoblanadi. Ayni paytda, barcha shakldagi boshlang'ich maktablarda yagonalashtirilgan o'quv fanlari o'qitiladi.

Kanada boshlang'ich ta'lim tizimida AQSHning boshlang'ich ta'lim tizimi xususiyatlari aks etgan. shuningdek, Kanada boshlang'ich ta'lim tizimida asosiy e'tibor tabiiy fanlarni o'qitishga qaratiladi. Bu ta'lim tizimida asosiy e'tibor tabiiy fanlarni o'qitishga qaratiladi. Bu

hol mamlakatning geografik joylashuvidan kelib chiqilgan.

Kanada boshlang'ich ta'limida ham davlat va xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari faoliyat yuritadi. Ayni paytda, 1-2 sinflar kichik sinflar va 3-4-sinflar katta sinflar deb yuritiladi. Har bir o'quv fani mutaxassis o'qituvchi tomonidan o'qitiladi. Barcha o'quv fanlari "Antropologiya" fani tarkibi hisoblanadi. Kanada boshlang'ich ta'limida davlat ta'lim standarti yo'q. Shu sababli xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari o'zlarining o'quv dasturlariga ega.

Braziliya mamlakatida boshlang'ich ta'lim g'oyasida Ispaniya ta'lim modelining ta'siri mavjud. Mazkur mamlakatda boshlang'ich ta'lim 1-5 sinflar hisoblanadi va boshlang'ich ta'lim olish majburiy. O'rta umumiy ta'lim esa majburiy emas.

Braziliya boshlang'ich ta'limida aniq fanlarning ustuvor o'qitilishi ko'zga tashlanadi. Bunda Matematika, Algebra kabi fanlar boshlang'ich ta'limda keng o'qitiladi. shuningdek, o'quvchilar dastlabki bosqichda Astronomiya asoslari bilan ham tanishtiriladi. Braziliya boshlang'ich ta'limi yoz, kuz va bahor oylarida amalga oshiriladi.

Zero, Amerika qit'asi rivojlangan davlatlarida boshlang'ich ta'lim davlat nazoratida amalga oshirilishi bilan umumiy xususiyatga ega.

Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi. Osiyo qit'asidagi rivojlangan mamlakatlar boshlang'ich ta'limida Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limining ta'siri kuchli. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda gumanitar, aniq va tabiiy fanlar turkumlari teng o'qitiladi.

Rossiya Federatsiyasi boshlang'ich ta'limida federal (davlat) boshlang'ich ta'lim standartlari bilan birgalikda O'lka va Respublika boshlang'ich ta'lim standartlari ham amal qiladi. Rossiyaning boshlang'ich ta'limi ko'p tilli ta'lim hisoblanadi va ayni paytda, Rossiyada istiqomat qiluvchi xalqlarning tillarida ham boshlang'ich ta'lim amalga oshiriladi. Misol uchun, Tatariston Respublikasida rus tili bilan birgalikda boshlang'ich ta'limda tatar tili ham o'qitiladi va shuningdek, bu Respublikada boshlang'ich ta'limda dastlabki bosqichda islom dini asoslari ham o'qitiladi.

Osiyoning rivojlanayotgan davlatlarida Rossiya Federatsiyasining boshlang'ich ta'limi ta'siri ustuvor xususiyatga ega.

Yaponiya mamlakatining boshlang'ich ta'limi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatda bosh-

lang'ich ta'lim 6 yil bo'lib, davlat va xususiy boshlang'ich maktablarga bo'linadi. Yaponiya boshlang'ich ta'limida milliy g'oya ustuvor bo'lib, unda yapon tili eng mukammal til sifatida o'rgatiladi.

Mazkur mamlakatning boshlang'ich ta'limida quyidagi o'quv fanlari o'qitiladi:

- Yapon tili;
- Arifmetika;
- Musiq;
- San'at (teatr va kino)
- Jismoniy tarbiya;
- Hayotiy faoliyat asoslari.

Yaponiya xususiy boshlang'ich ta'lim maktablarida qo'shimcha ravishda Dinshunoslik va Dunyoviy etika fanlari o'qitiladi.

Yaponiya boshlang'ich ta'lim maktablari raqam belgilanmaydi, aksincha maktab maxsus hudud nomi bilan yuritiladi. Misol uchun, birgina Tokiyada mingdan ortiq "Tokiy boshlang'ich maktabi" deb yuritiluvchi boshlang'ich ta'lim muassasalari mavjud. Ayni paytda, xususiy boshlang'ich ta'lim maktablarida ba'zida o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida-alohida o'qitiladi.

Mazkur mamlakatning boshlang'ich ta'limi uchun yagona-lashtirilgan o'quv darsliklari yo'q. Har bir hududning o'z darsliklari mavjud. Lekin barcha darsliklar yapon milliy ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart.

Shunday qilib rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limni integratsiya asosida tashkil etish tajribalari mavjud bo'lib, ularni o'rganib borish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi qanday xususiyatlarga ega?
2. Amerika qit'asi mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi xususiyatlarini bilasizmi?
3. Osiyo mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Rivojlangan mamlakatlarning boshlang'ich ta'limi qanday umumiy xususiyatlarga ega?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'limni tashkil qilish integratsiyasi asoslarini o'rganing.

Amerika qit'asi mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni tashkil qilish xususiyatlarini konspekt qiling.

Osiyo mamlakatlarining boshlang'ich ta'limni tashkil qilish asoslarini o'zlashtiring.

30-MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI INTEGRATSION BAHOLASH

Reja:

1. Integratsion baholash mazmuni
2. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash mexanizmlari
3. Boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion baholash indikatorlari.

Tayanch tushunchalar: integratsiya, ta'lim, boshlang'ich, samaradorlik, baholash, bilim, o'zlashtirish, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

Integratsion baholash mazmuni. Integratsiya – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun tarzda birlashtirib baholash jarayonidir. Bunday baholash jarayonida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- bilimlarni tizimli o'zlashtirish;
- har bir fanni kutilgan darajada o'zlashtirish;
- o'zlashtirganlarni amaliyotda qo'llay olish;
- o'zlashtirish natijasida axloq va dunyoqarash jihatidan rivojlanib borish.

Mazkur talablar asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va boshlang'ich ta'limning samaradorligi baholanadi.

Boshlang'ich ta'limni integratsion baholash quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- boshlang'ich ta'limni tashkil etish sharoitlari;
- boshlang'ich ta'limni tashkil qilish asoslari;
- boshlang'ich ta'limning samaradorlik darajasi;
- boshlang'ich ta'limning pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi.

Ushbu talablar asosida ta'limni integratsion baholash amalga oshiriladi. Bunda davlat baholash tashabbuskori hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda xususiy shakldagi boshlang'ich ta'lim maktablari ham rivojlanib bormoqda. Ular boshlang'ich

ta'lim davlat standartlariga asosan faoliyat yuritadi. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan har 3 yilda xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari yuqorida ta'kidlangan talablar asosida tekshirilib boriladi. Bundan asosiy maqsad boshlang'ich ta'limni sifatli va yuksak darajada amalg oshirishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, boshlang'ich ta'limni integratsion baholash metodologiyasi ishlab chiqilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash mexanizmlari. Hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limi milliy va xalqaro standartlar asosida rivojlanib bormoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash mexanizmlarini shakllantirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholashning *maqsadi* mazkur ta'lim turining sifat jihatidan rivojlanib borishini ta'minlashdir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim holatini o'rganish;
- boshlang'ich ta'limning sifat darajasini aniqlash;
- boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini optimallashtirib borish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyasini oshirib borish;
- boshlang'ich ta'lim boshqaruvini demokratlashtirish.

Aynan mana shu vazifalarni amalga oshirish bilan boshlang'ich ta'limni istiqbolli rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion baholashda *quyidagilarning* ishtiroki muhim ahamiyatga ega:

- milliy va xorijiy ekspertlarning xulosasi;
- tajribali va mohir mutaxassislarning fikri;
- ilmiy va o'quv markazlarining bahosi;
- boshlang'ich ta'lim bo'yicha ilmiy-pedagog mutaxassislarning yondashuvlari.

Mazkur ishtirokchilar har bir boshlang'ich ta'lim bosqichini xolis baholash jarayonida ishtirok etadi. Ularning xulosasiga asosan boshlang'ich ta'limning samaradorlik darajasi baholanadi va uni istiqbolli rivojlantirish asoslari ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion baholash indikatorlari. Hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limi samaradorligini integratsion baholashning indikatorlarini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi.

Indikator – muayyan holat yoki darajani baholash belgilaridir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholashda quyidagi indikatorlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) boshlang'ich ta'limga doir belgilangan davlat talablarining bajarilishi;
 - 2) boshlang'ich ta'lim davlat standartlarining samaradorligi;
 - 3) boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish darajasi;
 - 4) boshlang'ich ta'limning oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlanish darajasi;
 - 5) boshlang'ich ta'limning o'quv rejalari, dasturlari va darsliklarining optimalligi;
 - 6) boshlang'ich ta'limda amal qilayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarning samaradorligi;
 - 7) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi;
 - 8) boshlang'ich sinf o'quvchilarining keyingi ta'limga tayyorgarlik darajasi;
 - 9) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuv darajasi;
 - 10) boshlang'ich ta'lim jarayonining izchil rivojlanib borish holati.
- Aynan mana shu indikatorlar asosida boshlang'ich ta'limning samaradorligi integratsion baholanadi.

Integratsion baholash natijasida quyidagilar ishlab chiqiladi:

- boshlang'ich ta'limni rivojlantirish strategiyasi;
- boshlang'ich ta'lim sinflarini optimallashtirish;
- boshlang'ich ta'lim darsliklarining yangi avlodini yaratish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirib borish asoslari.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirib borish imkoniyatlarini beradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ularni o'zlashtirishi taqozga etiladi.

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Integratsion baholash mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash mexanizmlari nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'limning samaradorligini integratsion baholash indikatorlarini nimalar tashkil etadi?
4. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholashning asosiy maqsadi nima?

Topshiriq: pedagogik amaliyot

Integratsion baholash mazmunini o'rganing.

Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash mexanizmlarini o'zlashtiring.

Boshlang'ich ta'lim samaradorligini integratsion baholash indikatorlarini konspekt qiling.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" tushunchasi
2. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi
3. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari
4. Shaxs rivojida umumiy qonuniyatlar ta'siri
5. Shaxs rivojida ta'sir etuvchi omillar
6. Shaxs rivojlanganligini tashxislash
7. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
8. Jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi
9. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining hozirgi zamon rivojlanish tendensiyasi
10. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi
11. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash
12. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini faoliyatga yo'naltirish
13. Boshlang'ich ta'limni tashkil qilish
14. Boshlang'ich ta'limda tarbiya
15. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish
16. Didaktika tushunchasi
17. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari
18. Boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligi.
19. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish qonuniyatlari
20. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida o'qitish turlari
21. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi o'qitish metodlari
22. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullariga doir yondashuvlar
23. Boshlang'ich ta'limni tashkil etish usullari
24. Dars - boshlang'ich ta'limning asosiy shakli sifatida
25. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish asoslari
26. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish mexanizmlari
27. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash metodologiyasi.
28. Tarbiya jarayonining mazmuni
29. Tarbiya jarayoni tamoyillari
30. Tarbiya jarayoni metodlari.

31. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining mazmuni
32. Boshlang'ich ta'limda tarbiya vositalari
33. Boshlang'ich ta'limda tarbiya turlari
34. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini kuchaytirish zaruriyati
35. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish
36. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini demokratlashtirish
37. *Innovatsiya* tushunchasining mazmuni
38. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya
39. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish tajribalari
40. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion ko'nikmasi
41. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion intilishlari
42. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash
43. Integratsiya tushunchasi
44. Boshlang'ich ta'limda integratsiya mazmuni
45. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining integratsion faoliyat asoslari
46. Integratsion dars tushunchasi
47. Integratsion darslar turlari
48. Integratsion darslarning samaradorlik xususiyatlari

GLOSSARIY

Aksiologiya – pedagogik ta'limda milliy, ma'naviy va moddiy g'oyalar, tushunchalar va fikrlarga asoslangan qadriyatlar majmuini bildiradi. *Pedagogik aksiologiya* ta'lim, o'qitish va tarbiyaning asos qadriyatlarini ifodalaydi hamda unda shaxsning savodxon bo'lishi, bilim olishi va tarbiyalanishi asosiy obyekt hisoblanadi.

Annotatsiya – pedagogik ta'limda bilim berish, o'qitish jarayoni va ularning samaradorligini ijobiy yoki salbiy baholashni anglatadi. Annotatsiyada opponent o'zining takliflarini bayon qiladi va muallif bu takliflarni qabul qilishi yoki qabul qilmaslik huquqiga ega.

Akmeologiya – pedagogik ta'limda ta'lim oluvchilarning sog'lig'i, sog'lom ta'lim muhiti va asosiy tarbiyaviy yo'nalishlarni o'rganuvchi soha. *Pedagogik akmeologiya* ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning jismoniy, ruhiy va estetik salomatlik shart-sharoitlarini o'rganadi. Akmeologik tadqiqotchilikda ta'lim sifati salomatlik indekslariga binoan baholandi va shu sababli akmeologik yondashuvlar pedagogik bilimlarning yuqori darajasi hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim – hozirgi zamon ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonlik, bilim olish va tarbiyaviy ko'nikmalari shakllantiriladi. O'zbekiston boshlang'ich ta'limida o'quv fanlarining gumanitar, aniq va tabiiy turkumdagi asoslarining dastlabki tushunchalari bo'yicha saboq beriladi. 2017 yildan e'tiboran O'zbekiston boshlang'ich ta'limining savod o'rgatish funksiyasi maktabgacha ta'lim bosqichiga o'tkazildi. Buning natijasida O'zbekiston boshlang'ich ta'limi o'quv fanlari dverikatsiya qilinib, unga ko'ra, turdosh fanlar o'zaro yaqinlashtirildi va o'quv dasturlari umumlashtirildi. 2021 yil mart oyidan boshlab amalga kiritilgan Milliy o'quv dasturida boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida fanlar turkumlari bo'yicha boshlang'ich bilim berish, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning layoqat kompetensiyasini tarkib toptirish belgilandi. shuningdek, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" fanlari o'rniga yangi mazmundagi "Tarbiya" fani kiritildi. Bu hol O'zbekiston boshlang'ich ta'limi tarixi va tajribasida yangi xodisadir.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – mazkur o'quv fani Umumiy pedagogika asosida shakllangan bo'lib, u XX asrda ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatdan asoslangan. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarkiblarini boshlang'ich ta'limda *bilim berish jarayoni, o'qitish didaktikasi va tarbiya nazariyasi* tashkil qiladi. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim pedagogikasining ta'lim berish nazariyasini Umumiy pedagogikaning tamoyillari tashkil etadi, didaktikasini boshlang'ich ta'lim berishning o'qitish nazariyasi tashkil qiladi va uning tarbiya nazariyasini boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsini ma'naviy, axloqiy, jismoniy hamda aqliy jihatdan dastlabki bosqichda tarbiyalash tashkil qiladi. Hozirgi kunda Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining ilmiy-tadqiqotchilik metodologiyasi asoslari shakllantirilmogda.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya – bu boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining, o'quv jarayonining va tarbiya tadbirlarining boshqa ta'lim bosqichlari bilan uzviy aloqadorligini hamda bog'liqligini ifodalaydi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida integratsiya o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish muassasalari bilan hamkorlikni ham ifodalamoqda. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda integratsiya jarayonini boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligiga ta'sir etkazuvchi omillar majmui sifatida tushunish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda integratsiya muammolari pedagogik, sotsiologik va psixologik jihatdan tadqiq etilmogda. Shu sababli bu jarayon Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining uzviy tarkiblaridan birini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiya – bu tushuncha boshlang'ich ta'lim jarayoniga olib kiriladigan yangi g'oyalar, usullar, tushunchalar, qoidalar va texnologiyalarni ifodalaydi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya deganda boshlang'ich ta'limning mazmuni va mohiyatini davr talablari asosida yangilab borishni tushunish lozim. Shu jihatdan yangi O'zbekiston sharoitida boshlang'ich ta'limga milliy pedagogik tajriba va xalqaro pedagogik an'analar asosida innovatsion yondashuvlar kiritish jarayoni kechmogda. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya jarayoni Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi – tegishli ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarligi bor va ahloqiy fazilatlarga ega mutaxassis shaxslar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida e'tirof etiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tegishli nazariy bilim, amaliy ko'nikma, uslubiy malaka va faoliyat kompetensiyasiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida bir necha o'qituvchilar guruhi faoliyat yuritmogda, biroq ularga nisbatan kasbiy hamda axloqiy talablar yagona tarzda qo'yiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi – bilim olish, ko'nikma egallash va axloqiy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan 7-11 yoshli shaxslar boshlang'ich sinf o'quvchisi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisiga bilim olish, topshiriqlarni bajarish va qiziqishlarini namoyon qilish talabalari qo'yiladi. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning huquqlari ustuvor hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchisining aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik imkoniyatlari ta'lim jarayonida birlamchi tarzda hisobga olinadi. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchisining xaq-huquqlarini to'liq himoya qilish boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yuklangan.

Boshlang'ich sinf rahbari - mazkur kasb egasi 7-11 yoshli o'quvchilar shaxsini ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy jihatdan shakllantiruvchi, himoya qiluvchi hamda yo'naltiruvchi professional o'qituvchi hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida o'qituvchilarning maqomini yuksaltirish yondashuvlariga binoan boshlang'ich sinf rahbarlariga o'quvchilarning mutlaq yetakchisi funktsiyasi yuklangan. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf rahbarining fikri va xulosalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'qituvchilari va jamoatchilik vakillari tomonidan qat'iy qabul qilinadi. Maktab pedagogik Kengashi boshlang'ich sinf rahbarining tavsiyasiga binoan boshlang'ich sinf o'quvchisi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Voleologiya – bu fan pedagogik yondashuvlar asosidagi gumanitar fanlardan biri bo'lib, unda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarning sog'lom turmush tarzi bilan ta'minlanganlik muammolarini o'rganadi. Mazkur fan vositasida ta'lim oluvchilarda, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom fikr, sog'lom g'oya va sog'lom fazilatlar shakllantirildi. Voleogiya fani mustaqillik yillarida O'zbekiston ta'lim tizimiga pedagogik fanlar turkumi sifatida kiritildi va hozirgi

kunda mazkur fanning metodologik asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Gepoteza – pedagogik ta'limda muayyan yangi fikrning tajribasinoz natijalari asosida dalillanishi gipoteza deyiladi. Bu tushuncha ilmiy bashorat ma'nosida qo'llaniladi. Boshlang'ich ta'limda gepoteza o'quvchilarning bilim olish, ko'nikmalar o'zlashtirish va tarbiyalanganlik darajalarini baholashda ishlatiladi, unda ilmiy farazlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish darajasi baholanadi.

Dars – boshlang'ich ta'limni berishning asosiy shakli. Dars kirish, asosiy va yakuniy qismlarga bo'linadi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida darsning quyidagi turlari qo'llanilmoqda: yangi bilimlar berish darsi, ko'nimalarni mustahkamlash darsi, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish darsi, ilmiy dars, klaster dars, innovatsion dars, binar dars. Mazkur dars turlarining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga kutilgan darajada yangi bilimlarni berish, tezkor ravishda ularning ahloqiy fazilatlarini shakllantirish va layoqatlarini rivojlantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining individual dars berish uslubiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Insonparvarlik – boshlang'ich ta'limning asosiy tamoyillaridan biri. Bu tamoyilning asoslarini bolaparvarlik, bola huquqlarining ustuvorligi, mehribonlik va insoniylik tashkil etadi. O'zbekiston boshlang'ich ta'limida insonparvarlik tamoyiliga amal qilinishi 2018 yilda YuNESKO tomonidan yuksak darajada baholangan. Bu baho boshlang'ich ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyiliga amal qilinayotganligining xalqaro e'tirofidir.

Refleks – boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tabiiy xatti-xarakatlari va munosabatlarini ifodalaydi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilimga qiziqishi, yangilikka intilishi va o'zini namoyon qilishi reflekslarini shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunga erishish o'quvchilarning savodxonligini kuchaytirish imkonini beradi.

Stereotip – boshlang'ich ta'limda an'anaviy va tajribalardan o'tgan qadriyatlarga asoslanish jarayonini anglatadi. Misol uchun, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining bilimdon bo'lishi stereotip hisoblanadi. Shu sababli pedagogik va metodologik adabiyotlarga ijobiy ma'nodagi stereotiplarni qo'llash tavsiya etilgan.

Emotsiya – boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijobiy xarakterdagi his-tuyg'ulari va hayajonlarini ifodalaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional xususiyatlarini shakllantirishga e'tibor beriladi va bundan maqsad o'quvchilarning ongi, ruhiyati hamda qalbiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik psixologiya xulosalariga ko'ra, emotsional xususiyatlari rivojlangan o'quvchilar bilim olishga juda qiziqishadi.

Husnixat – 7-11 yoshli o'quvchilarning pedagogik, psixologik va estetik talablar asosida yozish, chizish va hisoblash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fani hamda o'quvchilarning chiroyli yozishga o'rgatish ko'nikmasi. Boshlang'ich ta'limda husnixat asoslari eng muhim pedagogik tavsiyalar, individual tajribalar va lingvistik qoidalar asosida o'qitiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining chiroyli yozish ko'nikmasi shakllantiriladi. Pedagogik psixologiya tajribalariga ko'ra, o'quvchilarning yozuvchiga qarab, ularning xarakterini aniqlash mumkin.

Kontseptsiya – Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ta'lim va tarbiyaning asoslari, vositalari va texnologiyalarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berish majmui Kontseptsiya deyiladi. Kontseptsiyada boshlang'ich ta'limning maqsadi, vazifalari, amalga oshirish yo'llari, uslublari, texnologiyalari va strategik yo'nalishlari belgilanadi.

Kompetentsiya - bu lotincha so'z bo'lib, amaliy layoqat ma'nosini anglatadi. "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomga binoan kompetensiya- bu bilim, ko'nikma va malakaning hosilasi bo'lib, u o'zlashtirilganlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi.

Bilim- eng to'g'ri, tajribadan o'tgan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan tushunchalar, g'oyalar hamda fikrlar majmui bilim deyiladi. Boshlang'ich ta'limda gumanitar, tabiiy va aniq fanlarning asoslari bo'yicha dastlabki bilimlar beriladi. Bilimni baholash o'quvchilarning aqliy rivojlanish mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'nikma - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv tushunchasi bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim davlat standartlariga muvofiq fanlar bo'yicha o'quvchilar bilimlari asosini o'zlashtirishi kerak. Ko'nikma boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim olish, axloqiy fazilatlarini o'zlashtirish va xatti-xarakter asoslarini qabul qilish darajasini anglatadi. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri 7-11 yoshli o'quvchilarning bilish, tushunish,

o'qish va o'zlashtirish ko'nikmalaridan iborat.

Malaka – muayyan bilimlar, axloqiy ko'nikmalar va xatti-xarakat qobiliyatlariga ega bo'lish malaka deyiladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni savodxonlik malakasi shakllantiriladi va o'quvchilar kelgusi ta'lim olish malakasi bilan qurollantiriladi. Boshlang'ich ta'limda malaka bilim, ko'nikma va kompetensiya tushunchalari qatorida asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//”Xalq so'zi”gazetasi. 2020 yil 30 dekabr soni.
2. Стефановская Т.А. Педагогика: Наука и искусство. –М.: «Педагогика». 1998.
3. Психология. Словарь. Составитель Л.А.Карпенко.– М.: «Полииздат».1990. С.77-78.
4. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. –SPb.:Piter. 2001.- s 176.
5. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. Учебник для ВУЗов. - СПб.: «Питер» 2001. С 142-143. Видеть. Гессен С.И. Основы педагогики. –М., 1995 г.
6. Миронов В. Возраст образования.-М.: «Педагогика».1990.
7. Окон В. Введение в общую дидактику. - М.: «Педагогика». 1990.
8. Umarova M. Теория и история педагогики. –Т.:”Cho'lpon”.2018. 202-bet.
9. Pedagogik atamalar lug'ati. R.Jo'rayev va boshq. – Т. “Fan”. 2008.49-bet
10. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchilar R.Jo'rayev va boshq. – Т.:”Fan”.2008.48-bet
11. Muxamedov G'., Xodjamqulov U. Innovatsion pedagogik ta'lim klasteri:ta'rif, tasnif,tarkib.-Chirchiq.:”Universitet”.2018.

**Jabborova Onaxon Mannopovna,
Umarova Zuxra Abduraxmonovna,
Babaxodjayeva Lobar Gafurdjanovna**

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI



Darslik

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: T. Raxmatullayev
Musahhih: N. Ismatova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 25.10.2021 y.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
garniturasida. Hisob-nashr tabog'i. 12,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 65.

«MALIK PRINT CO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi.

- 12608 -




«MALIK PRINT CO»
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-7906-7-4



9 789943 790674